

## Alisher NAVOIY

# MUNSHAOT

### M u q a d d i m a

Hamdi mavfur ul soni'g'akim ilmi munshiysi sun' qalami bila kalomi majid inshosin ofarinish avroqig'a raqam qildi, to ofarinish ahli aning ahkomi bila amal qilg'aylar va yaxshini yomondinu qilurni qilmasdin bilgaylar<sup>1</sup>.

Ul hokimkim omdurur ehsoni,  
Shahlar boshig'a nofiz aning farmoni,  
Farmonig'a insho suvari qur'oni,  
Inshosiga e'joz kelib arzoni.

jalla alouhu va ammat na'mouhu<sup>2</sup>.

Va durudi nomahsur ul rofi'g'akim, shar'i muftisi kilki amri bila shariati hamid imlosi zamon sahoyifig'a yozildi, to zamon eli aniling amr va nahyisi bila ishtig'ol ko'rguzib xato paydosidin savobi tariqig'a rosih bo'lgaylar<sup>3</sup>.

Ul shohki moyan fasohat keldi,  
Har nukta anga mahzi balog'at keldi,  
Haqdin ishi olamg'a risolat keldi,  
Shoni bu risolatdaadolat keldi.

Sallallohu alayhi va alo olihi va ashobibi<sup>4</sup>.

Ammo ba'd: ajillai ashob ollida aidoq ma'rur va aizzai ahbob xizmatida andoq arzg'a yetkurulurkim, atrok inshosida va bu ahli idrok bayonu adosidakim, birovdin birovga ruq'a yozg'ay, yo ul kishi ul ruq'ag'a javob bitigay, dag'i ruq'a kelturgan qosidni qaytarg'an — alfozi latofatdin muarro va tarokibi balog'atdin mubarro erdi va adosi rangin fiqarotdin namoyishsiz va mazmuni rangin abyotdin oroyishsiz va muqobalada forsiy alfozning insholari dilpisand va makotibu imlolari arjumand erdi, xayolg'a andoq keldikim, turk alfozining dag'i ruq'alari hamul misol bila bitilgay va bu tilning nomalarini ham o'shul minval bilan sabt etilgay. Oz fursatda bu ruq'alar jam' bo'lib va nomalar yig'ilib erdikim, bu avroq zimnida sabt bo'ldi.

Ruboiya:  
Har kimki ani o'qurni bunyod etgay,  
Roqimni agar duo bila yod etgay,  
Tengri oni har banddin ozod etgay,  
Har g'admin aning xotirini shod etgay.

### 1

Tog'—tog' niyoz raf'idin so'ngra qof-qof ixlos yuzidin ma'rur ulkim, bu fasldakim, navro'z nasimining mushkbezlig'i lola dimog'in savdoi va bahor salqinining atrangezlig'i bulut mizojin havoyi qilibturur, loladek savdoyilig'din tog' havosi qilib, bulutdek havoyilig'din qayo savdosi boshqa tushti. Chun ul biyik poyag'a sarafruzlik va ul oliy maqomda anjumanpardozliq dast berdi, manzile

ko‘ruldi, saho ahli himmatidin rafe’roq va bisote topildi, zako xaydining xayolidin bade’roq.

M a s n a v i ya:  
Ko‘k sabzasi ko‘kka yetkurub bosh,  
Ul ko‘kta bo‘lub nujum ushoq tosh,

Avjiki bitib falak simog‘in,  
Qoplondin olib qamar tuvog‘in,

Ham subh shamomasi sumanso,  
Ham shom nasimi sunbuloso.

Sarbalandlig‘i sabza tilidin «Va iza—s—samou kayfa rufi’at»<sup>5</sup> a’dosig‘a joriy va pobarjolig‘i sado taqriridin «va izal jibolu kayfa nusibat»<sup>6</sup> bayonig‘a zokir. Munungdek dilkusho maskanda bahoriy bulut qatoroti lola jomig‘a tushgani qarroba sahabidin boda selin lolagun jomg‘a quymoqqa bois ko‘rundi va bu yanglig‘ ruhafzo ma‘manda barq lam’asidin tiyra toshlar sang—kabob pishurgali chaqmoq chaqqali muqtaziy bo‘ldi. Va lekin ul bahori hayot suhbatidin ayru lola ahbob jonig‘a dog‘ o‘rtagali shu’lae va har qatra ashob hayoti sham’ini o‘churgali. Dajlae erdi — gustoxlik yuzidin falonni qulluqqa yiborildi, agar ko‘hnavard ashhabni qulla azimatig‘a surulsa va aning xoro shikof tuvog‘idin sekigan o‘t bila barq lam’asidek muntazirlar ko‘zlarin yorutulsa, tog‘din quyosh chiqqondek bo‘lg‘ay va bahordin gul ochilg‘ondek ko‘rungay.

R u b o i y:  
To fasli bahor zebi olam bo‘lg‘ay,  
Ul zeb ila bog‘ sabzu hurram bo‘lg‘ay.  
Lutfung har bir elga damodam bo‘lg‘ay,  
Gah—gah bizim jonibimiz ham bo‘lg‘ay.

## 2

Chun mehr o‘tidin samandar o‘ldi saraton,  
Otashkadadek tutoshti gulzori jahon,  
Ermas bu isig‘ gunashda chiqmoq imkon,  
Xushtur kishiga bo‘lsa sovug‘ soya makon.

Chun sipehr zargarining anburi uchidan bir kulicha oltun sekrib suvg‘a tushti, ya’ni charx korxonasida javzoning ikki payqari arosidin quyosh qursi saraton obgirig‘a tahvil qildi; sipehri kuraviy zargar ko‘rasidek mehr o‘tidin ul nav’ qizidikim, yaqindurki, falak tosidi savobit donalari tosdag‘i qal‘iy qatarotidek erib, toma kirishgay va tadvir bo‘talaridin sayrot siymi suv bo‘lub, siymbodek oqib, arz konig‘a yetishgay. Bihor suyidin jahon jismi terga g‘ariq va buxor o‘tidin xayol paykari yerda hariq.

Masnaviy:  
Daryog‘a solib isig‘ havo tob,  
To‘lg‘onmog‘i o‘z—o‘ziga girdob,

Tog‘din kishikim tilab nishone,

Bir to‘da qiziq kul anglab oni,

Xurshed haroratidin anjum  
Yer soyasi ostida bo‘lub gum.

Tinmay yugurib kyun takidin,  
Qum uzra ayog‘i kuymakidin.

Ko‘k tab’ig‘a chun harorat oshib,  
Jismig‘a shafaqdin o‘t tutoshib.

Har nasimi dulfuro‘z havo haroratidan bir samumi jonso‘z va har zuloli xuro‘shon harorat shiddatidin bir maraqi jo‘shon.

N a z m:  
Degaysen yuqorroq chiqib zamharir.  
Quyiroq tushubtur sipehri asir.

Aning birla xurshed o‘lub muttafiq,  
Havoni ham aylab turur muhtariq.

Uydin bosh chiqormog‘lig‘ havo otashrezlig‘idin mutaassir va eshikdin ayoq tashqari qo‘ymog‘lig‘ yer otashangezlig‘idin mutaazzir, xususankim, bu zaifning mizozi necha kun may o‘ti ishtiolig‘a mushtail uchun holo ul ishtiol asari tabiatda mushtail bo‘lubtur.

B a y t:  
Oh min—al—hamri va holotihi,  
Axraqa qalbi bi harorothi<sup>7</sup>.

She’r:  
Gah surukluk andoqki aqshomg‘i hol,  
Ko‘runub sabuhiy chog‘ida mahol,

Gah ul nav’ maxmuru pajmurdaliq,  
Gah maydin nekim, jondin ozurdaliq.

Boda o‘ti jismimg‘a tutoshib, ul o‘t dudi, balki shu’iasi boshimdin oshqon uchun «Al—uzru inda kirominnosi maqbulun»<sup>8</sup> mazmunin shafe’ qilib, bu niyoz ruq‘asin gustohlig‘ qilindi. Ashob mizozi istiqomat safhasida «alif»dek muqim va ahhbab tabiat e’tidol gulshanida sarvdek mustaqim bo‘lsun, omin, yo rabbal olamin.

### 3

M a s n a v i y:  
Chun xazon bargi husn etar og‘oz,  
Evurur yuzni zohir aylab noz.

R u b o i ya:

Chun bo‘ldi xazon bargiga husn izhori,  
Nozin etar og‘oz tushub har sori,  
Lekin evurur yuzini zohir aylab,  
Safrat angakim zulmi falaki zangori.

Sipehri dunshior juz talavvun va rangomezliq va ro‘zgori buqalamundisor g‘ayri duranglik va xiylangizlik ermas uchun, lojaram ul biridin gohi bisot bo‘stoni rango—rang gullar bila muzanyandurur va bu biridin gohi bo‘ston bisoti gunogun yafrog‘lar bila mulavvan va lekin chun bahor subhining har guli quyosh gulidek gulbun sipehriddin tulu’ etsa, oqibat xazon oftob zardig‘a mutqaqidur va yigitlikning har chechagi axtar chechaklaridek sipehr gulbunidin ochilsa oxir subh asfar xazoniga muntahi.

M a s n a v i ya:  
Ne bahorida shod bo‘l chandon,  
Aylabon o‘zni gul kibi xandon,

Ne xazonida barg ayshini soch,  
Yuz uza za’faron do‘konin och.

Ammo chun marje’ so‘ngg‘i qism va miqdor so‘nrog‘i shiq bo‘ldi. Har oyinakim, poyada ani volo va rutbada ani a‘lo desa bo‘lg‘ay, bas sabab bu bo‘la olg‘aykim va bois muni desa bo‘lg‘aykim, chun falak tojiri tamanno manzili mazraidi quyosh yusufin big‘ mizoni kaffasig‘a kiyurdi va aning saodat kunduzi kofuriy jismi kechaning bahog‘a kelturgan savdoyi mushki bilan vaznda teng chiqtı. Chamanning ruxsori Yusuf<sup>9</sup> ishqida Zulayxo uzoridek kohiy va xazon yeli ham aning damodam sovug‘ ohi kibi nomutanoziy bo‘ldi. Qaro yig‘ochning sarig‘ barglarin yel uchurg‘oni tutundin uchqunlar ayrilg‘onning misolin va qizil tolning kohiy yafrog‘larin ba’zi jismida qolg‘ay, shingarf xututi uzra za’faron afshoni qilg‘ondin nishona ko‘rguzdi. Murtafe’ shoxlar sham’ shu’lasidek barglar shakli sharhiga bo‘ston muzakkirlari «valaqad zuyyina s—samau d—dunyo bima—sobih»<sup>10</sup> karimasi bilan mutakallim va ul shu’laoso barglar aksi shishai halabiyda oynai Chiniy kabi zulol ichra tushgandin chaman qushlari «ka mishkotin fi—z—zujoja»<sup>11</sup> savtig‘a mutarannim.

Masnaviya:  
Chu qildi kahrabogun mehri gardun,  
Yig‘ochlar bargi rangin kahrabogun.

Shajar yafrog‘i bo‘ldi kahrabodek,  
Demakim kahrabo, mehri samodek,

Sabo qilg‘och suv uzra zarfisonliq,  
Suning tig‘ini aylab zar nishonliq.

Uchub barg o‘tidin haryon sharora,  
Nechukkim, zarvaraqdin pora—pora.

Sarig‘ yafrog‘ uzakim o‘lturub zog‘,  
Bo‘lub andoqki sorig‘ lolada dog‘.

Qilib zarhal xazon naqqoshi tartib,

Qilurg‘a bog‘ avroqini tazhib,

Bu shug‘li ichra aylab sahv tarkin,  
Zar andar zar qilib barg uzra bargain.

Mundoq faslki, hech fasl nishotg‘a mundin loyiqroq emas va mundoq vaqtiki, hech vaqt ayshqa mundin muvofiqroq kishi nishon bermas. Har oyinakim, ul xurshedi avji kamol oltun jom ichra asfar may bila sarxush va aning kayfiyati haroratidin olam ahlig‘a zarfishonlig‘i xazonoso, balki xurshedvashdurkim, ayshi mustadomi mudom bo‘lsun. Va lekin agar gohi umidi bo‘stoni xazondin bargrezga qolg‘anlar va hayoti gulistoni xirmon bargrezidin xazong‘a uchrag‘onlarni jur‘a bila yod qilsa, kamoli quyoshidin zarrai kam bo‘lmaq‘ay va qatra bila shod etsa, jamoli mash’alidin sharorae o‘ksulmagay.

B a y t:

Gulung rangi asfar nishon bo‘lmasun,  
Bahoringg‘a hargiz xazon bo‘lmasun.

#### 4

Duoekim, shito qalbida shito qalbidin dilso‘zro va niyozkim, qish ayinda qish ayindin dulfuro‘zroq bo‘lg‘ay.

Bayt:

Aning har axgari yoquti ahmar,  
Muning har zarrasi raxshanda axtar.

Adosidin so‘ngra arz ulkim, hech vaqtি muvofaqatlik ahbob bir—biri visolidin bahra olurg‘a va hech zamoni musodaqatliq ashob boda bazmi tarhin solurg‘a andin yaxshiroq yo‘qturkim, marg‘ub yoronlar mashhud bo‘lg‘aylar va ag‘yor yuziga hujra eshiklari masdud.

B a y t:

Tuzalgay yor ila bazmi visoli,  
Vale ag‘yordin ul bazm xoli.

Va bu iqbol hech qachon andoq tuyassar bo‘lmas va bu maqsud hargiz andoq dilpazir ko‘runmaskim, qish bo‘lg‘ay. Xususankim, burudat shiddatidin havos idroqdin nokor va kecha bo‘lg‘ay. Bataxis, bulut mushkfon havog‘a qorning suda siymidin kofurbor va day shohi shabixunidin o‘t zardushtining xayli manqal qo‘rg‘onida hisoriy va bahman cherigi chopqunidin sharora mazdakining sipohi tosh birla temur qal‘asida mutavoriy; falak gunbazida anjum anjuman tun qaro kiyshi ichra nihon va ro‘zgor olachug‘ida quyosh turki sahabning xokistariy sinjobida pinhon, sipehr xirgohidek oq uyda anjuman ahli mujtame’, nechunkim, sipehr xirgohida surayyo soqiylarg‘a gohi muoshirlar may taqozosi uchun bu bayt bilan mutakallimkim.

B a y t:

Soqiyo, day shiddatidan aqlu his betob erur,  
Chorasi jomi bulurin ichra la’li nob erur.

Va ayoqchilarg‘a gohi mug‘anniylar boda iltimosi uchun bu nazm bila mutarannimkim.

B a y t:

Qasd etar el jonig‘a hardam sovug‘luq birla day,  
Soqiyo, sinmas havo zahri, ketur tar‘yoku may.

Nor axgarlarining lamaoti nechukkim la’li koniy va anor donalarining bog‘long‘oni nechukkim yoquti rummoniy.

M a s n a v i y:

Xusho, bazm aro o‘tu may bo‘lsa day,  
May andoqli o‘tu o‘t andoqli may.

Aning manqali shiyra taz‘yin kelib,  
Muning shiyrasi manqal oyin kelib.

Yuzinda muning may bati la’li nob,  
Aning ustida bo‘rdag‘on bat kabob.

Muning lam‘asi ko‘zni ravshan qilib,  
Aning shu‘lasi uyni gulshan qilib.

Vale, bazm yuz boshliq oq uy aro,  
Oq uy toshi tun mushki birla qaro.

Hamul mushk uza abr kofurbez,  
Jahon uzra yakdast kofurrez.

Alqissa, tafriqa imkonim onchakim maqduri bor nobud va jam‘iyat maqduri onchakim imkonim bor mavjud va hol ulkim:

Har nekim taqdir bo‘lsa sarbasar top mish vujud,  
Bovujudi muncha yuz ming sen agar yo‘qsen ne sud.

Mehr va’dasi hamono mehri giyohdek itti, yohud tun yarimida mehrdek yer tubiga ketti. Ul la’li otashin hijronida ne la’lgun axgarda haroratu ne otashnok mayda kayfiyat va ul mehroso jabin hirmonida ne sham‘ shu‘lasi yoruq va ne ko‘z sham‘i ayni yig‘idin ochuq, har soya harakatidin bag‘irda tob va har ayoq unidin ko‘ngulda iztirob. Chun muhlik intizordin jon og‘izg‘a yetti va shikebolig‘ ixtiyori ilikdin beixtiyorona ketti, bu parishon alfoz marqum bo‘ldi va oshufta kalimot tahrirg‘a keldi. Agar shabrang sarsar xiromg‘a rokib bo‘lub, ro‘zgori shabrang va ohi sarsar monandlar suhbatig‘a rog‘ib bo‘lalsa, tun yarimida quyosh tulu‘ qilg‘ondek va qish o‘rtasida gul ochilg‘ondek bo‘lg‘ay.

R u b o i ya:

To qishda sovug‘ tab‘g‘a matlub o‘lg‘ay,  
To aysh sovug‘ vaqtida marg‘ub o‘lg‘ay,  
To bu bori tiyra tunda mahbub o‘lg‘ay,  
Majmui sening holinga mansub o‘lg‘ay.

5

Ul saodat burjining quyoshi bir oy kamonxonada varzish qilg‘ondin so‘ngra o‘chku ovi azimatig‘a tog‘ sori yuzlangandek falak turki, ya’ni xurshed qavs chillaxona go‘shasidin jady kullasi avjig‘a tahvil qilib, ul birida burung‘i kecha erisha olmay, firoq zindonida mahbus qolg‘anlarg‘a qiyomat kunining tunicha ko‘rungandek, bu birida dag‘i avvalg‘i oqshom xo‘blar shomi zulfi yaldosidek uzun ko‘runub, anda ushshoq ohi dudi olamni tiyra qilib, hamul yel burudatidin ashki yomg‘urlari jola bog‘lang‘ondek munda ham mushkfom bulut savodidin olam zulmatkirdor va sarsar shiddatidin ul mushk kofurbor bo‘lubtur. Bu burudatni otashkada o‘ti daf‘ qilmas, magar maykada bodasi va bu zulmatni quyosh lam‘asi yoruta olmas, magar ul yuz jilvasi. Arz ulkim, avvalg‘isi dimog‘larni qizitbdur, agar ikkinchisi ham ko‘zlarni yorutsa, g‘oyat lutf bo‘lg‘usidur.

Gar may o‘tidin qolmadi bazm ichra Sovug‘luq,  
Kelsang ketirur tiyralig‘in dag‘i yorug‘luq.

6

Talab daryosidin maqsud gavharin birov iliklay olg‘aykim, murodi safinasining debochasin ul sonii javohir hamdi bila murassa’ qilg‘aykim, har noumidlig‘ barri aro aning hayoyi ehsoni yuz ko‘rguzsa bahri najot yetgay va murod tengizidin matlub kemasini birov sohilg‘a yetkurgaykim, maqsud jungining fihristin ul qodiri zavohir shukri bila mulamma’ etgaykim, har dard sog‘arida aning bodai shavqining durdi tomsa daryoyi hayot qilg‘ay.

M a s n a v i y:  
Anga hamdkim, charxi daryo navol  
Topar andin anjum laoli misol.

Bu daryoda kishti yangi oy o‘lub,  
Ki zavraq kibi bahr paymoy o‘lub,

Bu zavraqqa gulmex, etib kavkabin,  
Qilib bodbon subh chodirshabin,

Tengrining hamdi chunki topti nasaq,  
Na’t daryosig‘a suray zavraq.

Ulki chun bahr qurbati toshni,  
Charx to‘quz tengizidin oshti.

Durrat ut—toj o‘lub sifoti aning,  
Bahr ul—abror na’ti zoti aning.

Eski na’layndek vale nimasi,  
Nuh to‘foni daf‘ig‘a kemasi.

Ko‘ngul bahridin maxfiy durlarni oliy majlisqa bu nav’ nisor qililurkim, bu safarkim bu notavoni bechora va bu bexonomoni ovora ilayiga tushubtur, biyoboni suubatin, bal vus’atinkim, xayol toyiri yillar qanot urub, aning poyonig‘a yetmak xayoldurur va tog‘ining shiddatin, bal rif’atinkim nazar

payki qarnlar qadam solib, aning avjig‘a yetmak mahol, burunqi ruq’ada sharh qililib erdi.

Harneki varaqda erdi marqum,  
Bo‘lmish bo‘lg‘ay o‘qurda ma’lum.

Ul dasht va tog‘ni hidoyat dastyorlig‘i va inoyat poymardlig‘i bila dastu poy urub qat’ qilg‘och, daryoe ilayga keldikim — umqi tamanno lujjasи bila teng va sathi tahayyul bahridin kengkim, andin chora ubur erdi va kemaga kirmak zarur. Ruhsiz badan go‘rda orom tutqondek va nursiz mardum ko‘zda maqom qilg‘ondek, ul mardumi yo‘q ko‘zlar masallik tiyra uylarga kirildi va bu munxasif hilollar sayrining sur’ati bila bir oyg‘a degincha ul martabada erdikim, harbir kun ming yilchiliq yo‘l bor emish deyilsa, mingdin birini deyilmamish bo‘lg‘ay va ul falakvash bahrning vus’atining yuzi ul g‘oyatqacha erdikim, sipehr lujjasig‘a tashbih qililsa, daryosidin qatrae aytilmamish bo‘lg‘ay. Bahriy jonvardin ajoyib suvar g‘oyatsiz va daryoiy suratdin g‘aroyib paykar nihoyatsiz.

M a s n a v i y:  
Ayon suv ichra har yon yuz g‘aroyib,  
Bo‘lub ming zohir ul yuz bo‘lsa g‘oyib.

Necha ko‘z tushsa ko‘k suv charx monand,  
Topib atrofi ko‘k zaylig‘a payvand,

Xiromon har taraf yuz turfa mohim,  
Xirad mohiyatin bilmay kamohi,

Aningdek sahmnoku uyla hoyil,  
Ki aylab ko‘rguchi hushini zoyil,

Ravon yuz tog‘u birga bo‘lmay orom,  
Vale tog‘eki, bo‘lg‘ay mohi andom,

Negakim orqasi tog‘ avji yanglig‘,  
Tanida naqsh daryo mavji yanglig‘,

Kashaflar har birining sahmi behad,  
Yasab suv uzra jismi birla gunbad,

Bo‘lub me’mori qudrat anda boniy,  
Suvdin qilmay xarob andoq binoni,

Balig‘ sayd aylabon haryon nahangi,  
Nechukkim, rang sayd etgay palangi,

Tani bir pushtakim bo‘lsa xoro,  
Temurdin tishu changal oshkoro.

Ko‘runub jonvar bahr ichra behad,  
Nechukkim dasht ichinda har nechuk dad,

Tamavvuj bahr uzakim tutmay orom,  
Alar ustiga subh ilgi yonib dom.

Va gohi sarsar tahrikidin daryo talotumi bila «Va izal biharu fujjirat»<sup>12</sup> savodig‘a roqim va gohi ko‘lak tashviridin amvoj taoqibi suv xurushi uni bila «va izal biharu sujjirat»<sup>13</sup> adosig‘a mutakallim. Har nafas yuz ofatdin ko‘ngul suv bo‘lub, jondin ilik yuvub va har zamon ming xatardin jon og‘izg‘a yetib, o‘lumg‘a ko‘ngul quyulub, ko‘zga tufroq qarog‘i surmai sipohoniycha ko‘runub, vale ul ko‘runmay ko‘ngulga tosh qiymati yoquti rummoniycha topilib, vale ul topilmay, bu tavr baliyat aro halokka mushrif ekanda va bu nav’ maholik aro o‘ldum deganda daryodin obxo‘rish uzuldi va bu firoqda habib visoli nasib bo‘ldi, yuz yerga qo‘yub va ko‘z tufroqqa surtub, shukr bajo keturuldi va shavq yuzidin boshtin qadam qilib, ka‘bai maqsad azmig‘a qadam uruldi. Umid ulkim, andoqqi visol vodisi tay bo‘ldi, hijron bavodisi ham qat’ bo‘lg‘ay va lekin tavaqqu’ ahbobi jonyidin ulkim, duo yeli bila gohi bu nihoyatsiz dashtdinkim, na‘l barahna qadam urubmen, baliyat xasu xorin supurgaylar va iltimos ashobi jovidoniydin ulkim, gohi niyoz ashki bila bu shorii yo‘q biyobondinkim, qilovuzsiz kiribmen, ofot gardu g‘uborig‘a suv urg‘aylar.

Rubooya:

Yonsam yana g‘urbatni havas qilmag‘amen,  
Hijron o‘tig‘a tanimni xas qilmag‘amen,  
Juz jomi visol multamas qilmag‘amen,  
Haq hazratida shukrni bas qilmag‘amen.

7

Fano beshasi sahatida visol shajarasidin samara topg‘onlar boshig‘a falakning muxolif harakatidin har jafo arrasi kelsa zikriyokirdor tillari juz xoliqi bechun hamdig‘a zokir bo‘lmog‘usidurur va vafo shajarasidin soyasida murod samarasidin natija ko‘rgonlar oyog‘iga charxning mutaoqib zurubidin har sitam teshasi tegsa mansurvori nutqlarini g‘ayri sone’ kun fayakun shukriga takallum qilmog‘usidur.

Nahleki rizo sohilidur besha anga  
Rust angla fano tufrog‘iga resha anga,  
Har lahza oyoqqa tegsa yuz tesha anga,  
Boshdin chu kechibdurur ne andesha anga.

Kim aytsa fano beshasida budi aning,  
Har shoxqa ilurmoq emas sudi aning,  
Istarki yetushgay ulcha maqsudi aning,  
Ma‘dum kerak har neki mavjudi aning

Va alhaq bu sheva bir sarvdek ozodavash dabidururkим, sipehri tez dav jafosi haroratidin, istima ishtioli chinordek jismig‘a o‘t solsa juz haq rizosi naqdin istarga ovuchin ochmog‘oy va bu tariqa bir sanobardek nolakash rasmidururkим, charxi sabukrav harakati burudatidin sapedordek a‘zosig‘a ra’sha yetkursa sabot tufrog‘idin qadam olmag‘ay va sabr havosidin bosh chekmag‘oy. Bihamdillah val minnatiqa<sup>15</sup> to sipehri davvor havodisi sargardonlig‘idin ro‘zgori nopoymor navoyibi besomonlig‘idin Mozondaron changaliga qadam qo‘yulubturkим, ashjori kasratidin sabog‘a harimi tavfidin mahrumluq ishdur va shoxsori rif‘atidin samog‘a har lahza yuz ming sarzanish. Yafrog‘i g‘ulusi hijoblig‘idin tufrog‘ig‘a hargiz mehri zarfishon anvoridin bir diram tushmagan va murtafi‘ shajari behisoblig‘idin sahatig‘a mutlaq sahobi guharafshon javohiridin bir jola yetushmagan. Arsh soqig‘a chirmashib

chiqqan ishqpechondin bir dona suho va sidrah shoxig‘a to‘lg‘onib bosh chekkan tokidin bir xo‘sha. Surayyo g‘oyatsiz ashjorig‘akim yer bila ko‘kka ittisol berur «asluho sobitun va far‘aho fis samo»<sup>16</sup> sodiq va nihoyatsiz tuyurig‘akim, yerdin uchqonda falak yuzin yopar «diji tamuru mur as—sahob»<sup>17</sup> mutobiq.

Ne besha emish bo‘stonu bog‘i,  
Aning ne uchi paydo ne qirog‘i,

Yog‘ochi ustida ko‘k sabzalar fosh,  
Vale ko‘k sabzasidin o‘tkarib bosh.

Kuhan ashjor har yon boqsa yuz ming,  
O‘tub boshi falakdin har birining,

Etib haykallari paydo mahobat,  
Qilib paykarlari zohir g‘arobat.

Payopay devlog‘ aning jaboli,  
Sarosar devbod aning shamoli,

Bo‘lub har barg bir mir’oti vasvos,  
Tuta olmay xirad o‘z hushini pos.

Qilib har rudi suyining sadosi,  
Ayon yuz g‘ulu shayton mojarosi.

Shag‘olining uni afg‘on anduh,  
Chekib kirgan kishining so‘giga duh.

Har eski yog‘ochini qo‘ng‘orurg‘a falak pili subx xartumi bila ajz zohir qilib va agar qo‘ng‘orsa bolorin toshirg‘a sipehr arabasi ul yuk ostig‘a yonchilib, eashroti mahbatidin ro‘zgori buqalamun arqami bir paysa tanob va sabo‘i salobatidin charxi dun asadig‘a pargizzdin yasag‘an shercha hisob. Vuhushi xaylining oyog‘i ko‘pidin yer a‘zosida yuz ming jarohat va tuyuri jo‘shining fig‘on va nafiridin falak dimog‘i pardasida yuz tuman qarohat. Kunduzi oftob o‘tidin kuygan xirman shakli anda mehri raxshon va kecha talbis shu’lasidin yorug‘an kirmi shabiston sham‘i anda anjumi duraxshon. Yog‘ochining samari bordil va samarining ta‘mi zahri qotil. Bovujudi bu g‘arib holot va turfa maqolot chun anda bo‘lmog‘liq ro‘zgorim nosiyasida qazo qalamidin tahrir top mish va nosiyam safhasida qadar xomasidin shashpazir bo‘lmish har tikandin bir gulcha osoyish yetar va har toshdin bir durna oroyish fahm bo‘lur. Muhlik havosi Masiho dami va qotil suyi Xizr chashmasining nami. Va do‘zavvash fazosida seli balodek rudxona «jannotin tajri tahtihal anhoru»<sup>18</sup> din nishona, badta’m mevalari bila nomaqbul ashjori «va favokihatun va naxlun va rummon»<sup>19</sup> din namudor.

O‘zligin oshiq agar do‘st havosig‘a berur,  
Yordin har ne kelur ruhig‘a osoyish erur.

Va agar vatan hajri ayyomig‘a muqtaziy bo‘lub, bu firoq beshasidin visol dashtig‘a yuz qo‘yulsa va bu furqat changalidin qurbat sahrosig‘a qadam urulsa ham chun qazo hodisi inonkash bo‘lg‘usidur, barqvor sekirmakdin o‘zga, abrkirdor yelmaqdin o‘zga chora bo‘lmog‘usidurur va davosi

topilmag‘usidurkim, haq subhonahu va taolo barcha yirog‘liq mug‘aylonlari aro sargardonlarni yaqinlik Ka’basi tavofig‘a musharraf qilg‘ay, omin!

## 8

Hamdu sano ul soni’ag‘akim olam bo‘stonida saltanat gulbunining sarsabzlig‘in adl jo‘yboridin qildi, to bu suvdin serob bo‘lub, ul gulbinda sabot va davom gullari ochildi. Va davlat binosig‘a zavol yetkurur ofat yog‘inlarin zulm sahabida nihon etti, to ul yog‘in sellaridin bu bino asosig‘a buzug‘luq yetti. Hakimeki, har hokimni hukumat taxtida poydor istadi, ko‘ngliga o‘z hukmlari inqiyodin marg‘ub ko‘rguzdi va har farmonravoning asosi davlatin bemador tiladi xotiri chamanidin sayyid al—mursalin shar‘ining mutobaati gullarin uzdi. Odilekim, har nekahdlig‘ shajarasig‘a murod samarasin berdi, to ul shajarni ekkan kishi bu samarni terdi. Saburekim, maqsud gavharin taammul daryo ig‘a soldi, to har kim ul daryog‘a g‘avs qildi, bir guharni oldi.

Taollahu zihi har pokdin pok,  
Ki, ne shah, ne gadodin bor anga bok,  
Gadoni shoh etardin yo‘q haroson,  
Anga shohni gado qilmoq ham oson.

Va huva yo‘hyillazi layamutu abada va sha’nihi taqaddasa va taala<sup>20</sup>.

Haq subhonahu va taolo ul donish hadiqasaning nurin havodis xazoni yeli xataridin va ul biynish hadiqasi nurin navoyib chashmi zaxmi zararidin o‘z panohida asrasun. Muborak xotirg‘a borcha oni o‘tkarsunki, chun vujudqa kelturgay, dunyosi va uqbosig‘a sud yetsun va arig‘ ko‘nglini barcha ul sori tutsunki, ul ishdin musulmonlar rozi va tengri taolo xushnud bo‘lsun, omin, yo rabbil olamin.

## 9

Bu uchurda charxi nilun qazosidin va sipehri dun iqtizosidin andak g‘ubore va juzviy iztiorekim, ul hazratning ro‘zafzun davlati va humoyun zotig‘a mutavvashshih bo‘ldi qiyamateki, ul sababdin bu notavon holig‘a va rustoxezeki, ul jihatdin bu parishon ahvolig‘a yuzlandi: shammae andin qaysi xoma tahrirg‘a kela olg‘ay, zarrae andin qaysi til taqrir qila olg‘ay. Ammo xaq taolo sihhat bila ul ofotdin va salomat bila ul baliyotdin xalos qilg‘on xabari tahqiq bo‘lg‘och, ul mashaqqat va mehnatlarg‘a talofi va tadoruk bo‘ldi.

Bu voqe’ bo‘lg‘on ishlarda agarchi davlatxoh mushfiq qullarg‘a mahal ul bor erdikim, biror ta’namez va kinoyatangiz so‘z g‘oyat jonlari kuygandin va ko‘ngullari tahammul qilmog‘ondin arz qilg‘aylar. Ammo muqarrardurkim, bu vaqoe’ din ul hazratning muborak xotirig‘a onchakim kerak tanbih va e’tibor va tajribai ro‘zgor hosil bo‘lmish bo‘lg‘ay, holo iltimos ulkim, chun inson nisyondin xoli ermas va bashariyat muqtazosi tag‘oful va taqsirdin o‘zga natija bermas — o‘z atvoringiz tegrasiga yaxshi evrulgaysiz, tengri taolo hazratida borcha o‘tgan ishlardin o‘zingizni muqassir bilgaysiz, qila olg‘oncha tengri taolo buyrug‘i bila, sayyidal—mursalin shar‘ining muxolifi ishlaridin kulliy ijtinob qilib, muvofiq umurni jid bila irtikob qilg‘aysiz. Davlatu mulk qalin sipoh himoyatidin yo‘qli, tengri taolo inoyatidin va mustashor tadbirdin yo‘qli, kirdigor taqdiridin erkani bilib, o‘zungizni tengri taoloning fazlu—karami himoyatig‘a qochurg‘aysiz. Va «Man kona lillahi kona—I—lohu lahu»<sup>22</sup> mazmunicha mahbubi haqiqiy bila musohabat lofin urg‘aysiz, har neki o‘tti azal qismatidin erkanin bilib, ortuksi g‘ussa tutmag‘aysiz. Ammo har neki kelur, azal qismatig‘a havola qilib, o‘zungizni amr bo‘lg‘on ishdin ma’zur tutmag‘aysiz.

Saloting‘a sizdan ko‘prak shikast tushganda tengri taolo panohiga sig‘inib, kulliy najotlarig‘a mulohaza qilib ko‘ngul solmag‘aysiz. Saltanat umurida ish hayratg‘a munjar bo‘lub, borcha taammul

raxnalarin bog‘lig‘ ko‘rub, tavakkul shohrohig‘a kirarni taqsir qilib, boqib qolmag‘aysiz.

## 10

Har sahar to quyosh chobuksuvori Xo‘tan sipohining muhofazati uchun subh jo‘yboridin xandaq qilib, zulmat cherigin shohining gulchehralar sunbul zulfidek parishon xaylin torumor qilib, falak hisorin fath qilg‘ay, ul saharxandlik, quyoshroyliq, chobuksuvorlar shohi uchun tengri taolo o‘z jo‘ybori hifzidin xandaq qilib, muxolif cherigining zulmin munhazim etsun va hazmda ehtiyyot xandaqi jo‘yboridin sabo xaylidek o‘tkarib, xoksor aduvning tufrog‘in ko‘kka sovurub, kishvaru mulk hisorining fathin nasib qilsun.

Masnaviy:

O‘n ikki burjluq gardun hisori,  
Havodis toshidin to bo‘lsa ori,

Sipohing ko‘k sipohi uzra hokim,  
Disori Shodmondin kam desun kim,

Musallam zotinga kishvarsitonlig‘,  
Hisori davlat uzra shodmonlig‘.

Arzadosht ulkim, bu haqirni ba’zi maslahatlar uchunkim, ul hazratning maslahati dag‘i aning zimnidadur, agarchi bilhaqqa ikalasi bir maslahat o‘qdur, Xuroson viloyatiga yuborildi. Umidim tengri taolo karamidin uldurkim, ul hazratning humoyun zamiri ko‘zgusida doyim behbud chehrasi jilvanamoy bo‘lg‘ay va muborak xotiri o‘trusida borchcha maqsud shohidi chehrakushoy. Ammo iltimos ham qilinurkim, gohi ul parishon abyotg‘akim, gustohliq yuzidin tobuqqa topshurulubdur qoyil haqoratig‘a boqmay, mulohaza qilg‘aylar.

Masnaviy:

Necha ganj ichra bo‘lsa gavharu dur,  
Ko‘rki, bordur aning kalidi temur,

Ganji maqsud kimga bo‘lsa umid,  
Ul nasihatlar erur ang‘a kalid,

Qufl ocharda gadovu sohib toj  
Teng bo‘lurlar kalidga muhtoj.

Yana ulkim, talab bo‘stonida maqsud gullari kechrak ochilg‘ondin ko‘ngul g‘unchasin xorxori malomat bila resh qilmoq munosib emas. Nedinkim, to taqdir chamanidin inoyat nasimi esib, mehnat xazonin ishrat bahorig‘a mubaddal qilmag‘uncha maqsud guli ochilmog‘ining imkon yo‘qdur. Mundoq bo‘lg‘ondin so‘ng ta’jil sud qilmas va malolatdin g‘ayri malomat ish ochilmas.

Masnaviy:

Agar yuz qatla bulbul cheksun afg‘on.  
Bahor o‘lmay gul ochilmoq na imkon,

Agar olamni tutsun shomi dayjur,

## Tong otmay kun chiqormoq kimga maqdur?

Bu bobda ul hazratning muborak tab’larig‘a kulliy e’timod bor, ammo bu so‘zlar mazkur bo‘lmog‘ining nuqsoni yo‘q. Bu zaifning xayolida uldurkim, o‘z duo va niyozim ami-obodin ul hazrat tegrasiga hisor qilibmen. Ammo zulm toshi ul hisor tomig‘a raxna qilmoqdin va nomashru’ umur naqbi bila borasi yiqilmoqdin tengri taolo inoyatig‘a sig‘inib, o‘zingiz uhda bo‘lg‘aysiz.

Iltimos ulkim, qachon yuqori elchi yuborilsa, ma’hud tariyqi bila biror inoyat ruq’asi yuborilsa muqarrardurkim, yoronlar ani bu xoksorg‘a yetkurur sa’yin qilurlar. Eshikda andin kelur elchilar ishi bor esa har nav’ ishkim, bu faqir anga murtakib erdim arz qilib, yori aziz falong‘a muqarrar bo‘ldi.

M a s n a v i y:

Duo birla og‘oz qildim kalom,  
Kerakkim, duo birla qilsam tamom,

Alo toki har shahki kom istagay,  
Jahon mulki taxtin maqom istagay,

Mashaqqat esa ibtidosi aning,  
Murod o‘lg‘usi intihosi aning.

Muroding binosig‘a yetmay xalal,  
Mashaqqatlaring aysh birla badal,

Ne komeki ko‘ngulunga o‘lsa havas,  
Falak bersun ul kominga dastras,

## 11

Ne qilsa qazo kilki azalda tahrir,  
Mumkin yo‘q anga abadqa tegru tag‘yir,  
Aql aylasa har amrda yuz ming tadbir,  
Sudi yo‘q agar muvofiq ermas taqdir.

Sun’ mashshotasi maqosid gulchehralarining jamolin g‘ayb pardasiga andoq yoshurmaydurkim, aql xurdabini ko‘zi andin bahra topa olg‘ay va qadar g‘avvosi matolib bihorlari guharlarin xafo durjida andoq berkitmaydurkim, xirad javharshinosi basorati andin nishona ayta bilgay. Har oyinakim anbiyoyi mursal avval orzu savolni qilg‘onda «Va mo tadri nafsun mozo taksibu g‘adan»<sup>23</sup> javobi bila noumid bo‘lurlar va avliyoi akmal «g‘urfatullohi bifash al—g‘aroim»<sup>24</sup> nuktasi bila takallum qilurlar.

Anga hamdkim ilmi lorayb erur,  
Hamul ilm ila olimul—g‘ayb erur.

Jalla subhonahu va azim ush—shonahu. Bas, bu taqdir bila hech kishiga hech ishda vuquf eshigi ochilmaydur, to ixtiyorga ne yetgay va shuur yo‘li topilmaydur to iqtidorg‘a ne yetishgay. Qazo amri yuki og‘irlig‘idin falak qadi nigundur va qadar panjasি zo‘ridin falak martabalari zori—zabun.

Andaki falak turob bo‘lg‘ay,  
Tufroqqa ne hisob bo‘lg‘ay.

G‘araz bu kalimotdin va maqsad bu muqaddimotdin ulkim, bu faqiri xoksor va bu xokivashi bee‘tiborkim, bu davlatlig‘ eshik ostonasig‘a tufrog‘dek tushub erdim, xayolimda bu erdikim, magar ajal sarsari tufrog‘imni bo‘sog‘adin sovurg‘ay va o‘lum sayli xoshokimni bu eshikdin surgay va lekin xayol botil ekandur va muddao otil.

Bu uchurda yuqoridin bu faqir xizmatig‘a raqame tortildi va ubudiyatig‘a qalame suruldikim, javobi tasdiqdin va xitobi sidqdin o‘zga bililmadi «va ih—jumu yaf’allullohu mayasha’ mo yuridu».<sup>25</sup> Hosil: shavvol oyining yigirmi oltisida dushmanba kuni ijozat bo‘lub, Marvdin Astrobodg‘a azimat ittifoqi tushdi. Emdi agarchi sizga hech ishda nasihatg‘a ehtiyoj bilmasmiz va lekin bir—ikki so‘z ayturdin ham choramiz yo‘qdur. Olamda hargiz do‘stluq kishi dushmanisz bo‘lmaydur va ahbobliq odami a‘dosiz topilmaydur. Va tavfiq nishoni uldurkim, andoq maosh qilg‘aykim, do‘stlar tili dushmanlar qoshida qisqa bo‘limg‘ay va ahbob boshi a‘do ilayida quyi tushmagay va bu ish munhasirdur ikki ishga: biri haq taolo amrig‘a itoat qilmoq va ul biri nahyidin ijtinob qilmoq. Va lekin chun bashariyatning zulmati hijoblari maqsud nuri yuyiga mone’dur, jame’ avomunnosi uhdasidin chiqmoq mushkuldrur.

Ammo birovnikim, tengri taolo bir suruk bandalari ustiga hokim qildi — anga hech amr itoati adlcha bo‘lmas va hech nahyidin ijtinob chog‘ir tarkicha bo‘lmas chunki «innalloha ya’muru bil adl va—I—ehson»<sup>26</sup> va hazrat risolat sallallohu alayhi vassalom buyurubturkim, «adlun saatun xayrun min ibodatis—saqalayn»<sup>27</sup>. Va chog‘irni «ummul—xabois»<sup>28</sup> debdurlar. Jam‘i yomonlig‘ andin mutavallid bo‘lurkim, borchha yaxshiliq va yomonliq bu ikki nima zimnida mundarijdur. Va iltimos ulkim, agar muyassar bo‘lur kulliy va agar muyassar bo‘lmasa, ulcha maqdurdur, bu ikki ishda qo‘shish qilg‘aysiz. Dag‘i agarchi bu faqir hech hisobda ermasman, ammo eshikda erkonom bila yiroq erkonomiga bir hukm bermangiz va ulcha imkon bor Mirzoning hukmi ijrosida sa‘y qilib, ul davlat maslahatining daqoyiqidin hech daqiqani hech vaqtida nomar‘i qo‘ymangiz. Va hazarot va maxodim bila, balki Soyir navvob va xuddom bila xizmatkorlig‘ tariyqin masluk tutunguz.

So‘z muxtasar, bir ruboyi bila ixtisor qililur.  
Haq amriyu nahyini ketur yaxshi bajo,  
O‘tkarma qadam shar‘i nabiyidin qat‘o.  
Shah xizmatini tuzluk ila aylag‘il ado,  
To ikki jahonda bo‘lg‘asen komravo.

## 12

Vahki, hajring o‘ti jismi notavonim o‘rtadi,  
Notavon jismimg‘a tushgan shu’la jonim o‘rtadi.

Ko‘pdin—ko‘p duo va salomin so‘ngra arz ulkim, bu faqir Xurosonda erkonomda ham sizdin ayru erdim, emdikim, Astroboddamen firoq haysiyatidin ikkalasi birdur, nevchunkim:

Birovki yordin ayru erur: asiriy firoq,  
Aroda xoh yaqin tut yo‘lini, xoh yiroq.

Ammo munda kelgali badang‘a firoq o‘tining tobi va ko‘ngulga ishtiyooq suubatining iztirobi ko‘prak bo‘ladur. Jihat bu bo‘laolg‘aykim, anda erkanda visol davlati marjuvul husulroq va muloqot saodati mumkin ul-vusulroq erdi erkan. Ammo bu hisob xiradi durbin vazzoni bila va aqli durandish mizoni bila rost ermas.

Masnaviy:  
Yana bir hisobi dag‘i bordur,  
Ki aqlu xirad anda nokordur.

Erur sirridin aqli kull bexabar,  
Kim otini derlar qazou qadar.

Ne ish bo‘lsa behaddu imkon base,  
Erur ul hisob ichra oson base.

Umid ulkim, haq subhonahu va taolo ko‘ngulga kirmagan vosita bila va xotirg‘a kechmagan vasila bila muloqot huzuri va muvosalat sururi nasib qilg‘ay.

Yuborgan ruq‘ada bitib erdingizkim, anda borg‘ali kishi yubormadingiz deb, aning jihat ul bo‘ldikim, yuborgan kishimiz hanuz kelmaydur erdi va bitilgan ruq‘ag‘a javob kelturmaydur erdi.

Yana iltimos ulkim, mizojingiz rioyatin yaxshi qilingizkim, sihhat ne’matig‘a badal bo‘lmas va ishingiz ehtiyyotin yaxshiroq qilingizkim, noxush ish voqe’ bo‘lsa, pushaymonlig‘din sud yo‘qtur. Hech vaqt ko‘ngulni tengri taolo yodidin g‘ofil va musulmonlar dodidin otil qilmang. Do‘sstar fikridinu dushmanlar makridin beparvolig‘ joyiz ermas va bu ish nadomatidin o‘zga natija bermas. Podshoh davlati maslahatin borcha ishda muqaddam tutmoq vojibdur. Tengri amrini andin ham aqdam ko‘rmak farz.

Sizga bu so‘zlarni aytmaq ehtiyoj ermas, ammo aytmakdii nuqsoni ham yo‘q jihatidin muncha so‘zga musadde’ bo‘laldi.

Ulkim firoq mulkida qilmish meni g‘arib,  
Ham ul visol davlatini aylagay nasib.

## 13

Ul nishonkim, keldi shahdin tanda jon bo‘ldi, manga,  
O‘lmish erdikim, tiriklikdin nishon bo‘ldi manga.

Qulluq arzadosht ulkim, safar oyining g‘urrasida shanba sabohi Nishopurdin bir manzil Sabzavor sari Abdushuju’ Ansoriy mazori boshida yuqoridin kelgan piyodarav muborak nishonnikim, bu bandaning mujibi sarafrozlig‘i erdi—etkurdi.

B a y t:  
O‘pub yer, barmog‘im qosh uzra qo‘ydum,  
Ani xud o‘ptumu bosh uzra qo‘ydum.

B a y t:  
Jonda qo‘ydum chirmag‘on maktubini hijron aro,  
Bilmon ul maktub erur yoxud «alif» dur jon aro.

Mundag‘i holatni nishon kelgan kunning burunqi kuni arzdosht qilib, Mavlono G‘iyosiddin Jaloliyдин<sup>29</sup> yuborilib erdi, yetgan bo‘lsa, arzg‘a yetkurmish bo‘lg‘ay, deb qulluq arzadoshti yakshanba kuni bitildi.

B a y t:

Orazing naqshin ko‘ngul lavhida tasvir etgamen,  
Bo‘lmasa taqdir ani ko‘rmak ne tadbir etgamen.

## 14

R u b o i ya:

Nomangki, manga mujdai jonyi erdi,  
Hijron g‘amidin xatti amoni y erdi,  
Zulmatqa savodi gar nishoniy erdi,  
Mazmun anga obi zindagoniy erdi.

Qulluq duodin so‘ngra arzdosht ulkim, shanba sabohi safar oyining boshida inoyatnamaekim, bu xoksorg‘a mujibi tafoxur erdi — yetishti. Inoyat yuzidin shafqatangiz so‘zlarkim, bitilib erdi — o‘quldi. Ne had bila, balki ne til bila aning javobin bitisa bo‘lg‘ay.

M a s n a v i y:

Necha solsa quyosh tufrog‘ uza nur,  
Demak uzrini tufrog‘din ne maqdur,

Quyoshdek charxdin o‘tsun kamoling,  
Falakdin bo‘lmasun, yo rab, zavoling.

## 15

Ruboiya:

To olam uza falakka davron bo‘lg‘ay,  
Aflok uza to nujum raxshon bo‘lg‘ay,  
Anjumg‘a sabotu sayr imkon bo‘lg‘ay,  
Bu barcha sanga mutei farmon bo‘lg‘ay.

Muxlisona duodin so‘ngra qulluq arzadosht ulkim, avvali julusdakim, ul xurshedi avji sultanat olam ahli ko‘zin o‘z partavi bila bahramand qildi va ul jamshed sarir xilofat taxti sultanat avjin o‘z poybo‘si bila sarbaland etti, bu faqiri haqirg‘a bir nishoni oliy shon yuborilib erdi va bu bandai afkandani bir misoli vojibul — imtisol bila tufrog‘din ko‘tarilib erdi. Mazmuni bukim: «Parishon ab‘yotingni jam’ qilib, Mavlono Sultonali Mashhadiyg‘a<sup>30</sup> yozdurub, hazratimizg‘a yuborgil».

Ul kitobat shukriga notiqa tili «Alhamdu lillahil—laziy anzala a‘la abdihil - kitaba»<sup>31</sup> adosig‘a mutakallim va aning mazmuni javobida «Al abdu va mofaadihi kana liljavlohu»<sup>32</sup> savtig‘a mutarannum bo‘ldi. Va lekin chun ul xizmatgorlig‘ surati kechroq zohir bo‘ldi va ul farmonbardorlig‘ zuhuri botroq surat bog‘lamadi — aning sababin ado qilg‘ali va boisin arzg‘a yetkurgali yori aziz Mavlono Mir Husayn Bovardiynikim,<sup>33</sup> yuzi ul dargoh tufrog‘idin quyoshqa yetib erdi va boshi ul bargoh sajdaside falakdin o‘tub erdi — iltimos qilidikim, iqboloso qulluqqa mutavajjih bo‘lg‘ay va bu muqassir qul taqsiri uzrin qo‘lg‘ay. Umid ulkim, uzrixoh maqbul ko‘rungay va uzr ma‘qul tushgay.

R u b o i ya:

To qolg‘usi boqiy bu jahoni foni,  
To bo‘lg‘usi insong‘a hayot imkon,  
Tengri tutsun sanga musallam oni,  
Lekin qilibon bu xaylning sulton.

To har yil boshi quyosh zarrin g‘azolasi hamal o‘tlog‘ida lolazor uzra jilva qilur — ul sultanat sipehrining quyoshig‘a sharaf bahori lolazori uzra g‘azolalar bila anjuman tuzulsun. Va to har gul chog‘i sabo mashshotasi rayohin nav—aruslari qulog‘ig‘a jola gavharlari bila ziynat berur — ul xilofat bo‘stonining sarvi navxezi chaman hulalida ko‘rguzulsun.

Qulluq arzdosht ulkim, inoyatnomada bitilib erdikim: «muddatedurkim, arzadosht bitimaysen». Bu parishon holning oshufta xayolidin ne sodir bo‘laolg‘aykim, ul oliv majlis mulozimlari eshiturga loyiq bo‘lg‘ay va oshufta xayolning qalamiy maqolidin ne raqam surat bog‘lag‘aykim, ul sharif mahfilning mukorinlarining farxunda roylarig‘a muvofiq kelgay.

Bizzarurat g‘oyibona, duo bila iktifo qililitur: Hayot bog‘i toza va ul bog‘i murod rayohini beandoza bo‘lsun.

R u b o i ya:

To dasht bahor fasli rangin bo‘lg‘ay,  
Gulzor nigorxonai Chin bo‘lg‘ay,  
Dasht uzra sanga sultanat oyin bo‘lg‘ay  
Gulzor ichra taxtinga taskin bo‘lg‘ay.

## 17

Ruboiya:

Ey bodi sabo, aylasang ul sori guzor,  
Jon birla ko‘kgulni topshuray — olg‘ach bor,  
Ko‘nglumni itiga to“ma qilg‘il zinhor,  
Jonimni dag‘i ayog‘ig‘a ayla nisor

To falaki mudavvar qalqonig‘a xurshedi anvar muhrasidin qubba bo‘lg‘ay va qavsi kuzah safinasig‘a sahobi sipehr paykar safinasidin bodbon qurulg‘ay. Ul mulamma’ qalqon humoyun chatringg‘a yashil mushamma’ bo‘lsun va bu mulavvan tusluq yoydek hiloliy joming nujum javohiridin murassa’.

Arz ulkim, mundag‘i holot shohidi jamolig‘a xayr mashshotasi ilgidin oroyish va umur zebosi uzorig‘a amniyat ko‘zgusi ruxsorida namoyishdur, va lekin:

Bog‘ni netsun kishi sarvi xiromon bo‘lmasa,  
Ko‘k ravvoqi tiyradur, xurshedi raxshon bo‘lmasa.

R u b o i ya:

Vasling bo‘lubon jong‘a tuyassar, yo rab,  
Chehrang qilibon ko‘zni munavvar, yo rab,  
Nutqung sochsun bazm aro gavhar, yo rab,  
Yo rabki, ijobot aylagil har yo rab.

## 18

R u b o i ya:

Yoshung‘on emish qaro bulutqa mohim,  
Gardunni sovurmog‘lig‘ erur dilxohim,  
Kirmish qaro tufroqqa quyoshdek shohim,

Nevchun qaro qilmasun falakni ohim.

Jigarso‘z hodisakim, istimoi ko‘zga mujibi xunborliq va g‘amando‘z voqiakim, ittiloi jong‘a boisi afgorlig‘ erdi — yetishti. Ko‘z ashk to‘fonidin bahor yomg‘uridek seli anduh oqizib, jon g‘ussa fig‘onidin nayson bulutidek o‘kurmak og‘oz qildi.

O‘rtanur el furqatingdin nola bunyod aylasam,  
Qo‘zg‘alur olam o‘kurmak birla faryod aylasam.

Ammo «Kulli nafsun zoyiqat ul—mavti»<sup>34</sup> sharbatidin hech mutanaffas maof va «kulli man alayha fana»<sup>35</sup> xil’atidin hech kimarsa xalos ermas. Sabrdin o‘zga chora va tahammuldin o‘zga tadbir topilmas.

Ruboiya:

Gul bordi esa, chaman muattar bo‘lsun,  
Sham’ o‘chti esa, quyosh munavvar bo‘lsun,  
Shahzodag‘a gar ravza muyassar bo‘ldi,  
Sultong‘a jahon mulki musaxxar bo‘lsun. Omin.

## 19

Bulbulekim, gul xori hijroni g‘unchadek ko‘nglin figor qilmish bo‘lg‘ay — dastonsaroylig‘ bila ne tarannum ko‘rguzay va to‘tiyokim, ko‘zgu dog‘i hirmoni zamiri ko‘zgusida g‘ubor solmish bo‘lg‘ay — shirin kalomlig‘ bila ne takallum tuzgay!

Ammo «al—ma’muru ma’zurun»<sup>36</sup> hukmi bila o‘tluq ohi dudidin ashkbor ko‘z suvi birla murakkab qilib, ko‘ngul otashangizligi bila ko‘z ashkrezligi sharhida bir necha parishon bayt murattab qilildi. Umid ulkim, mutolaasi ko‘ngulga mujibi ayshu huzur va mushohadasi ko‘zga boisn safo va nur bo‘lg‘ay.

## 20

Hidoyat nuridinkim, murod sham’i demak maqsud aning lam’asidindir xilvatingiz munavvar bo‘lib, partavi andin bu tiyra ro‘zgorning zalolatangiz avqotig‘a tushsun va inoyat ko‘zgusidinkim, maqsud quyoshi demak murod aning ashi’asidindur, shabistonningiz muzayyan bo‘lub lam’ae andin bu xoksorning zulmatomez mir’otig‘a yuz ko‘rguzsun.

Ruboiya:

Maqsud jamoli jilvagustar bo‘lsun,  
Nuri bila ofoq munavvar bo‘lsun,  
Mundoq kishvar sizga musaxxar bo‘lsun,  
Sizdan nazare bizga muyassar bo‘lsun.

Ma’mul andoqkim, ko‘nglunguz haramida fath olamidin matlub sham’i yoqilsa, bu tiyra ro‘zgor parvonadek ul ma’man girdiga evrulgay va matlub o‘shondoqli, joningiz eramida fayz shabnamidin nishot guli ochilsa, bu zori, beqaror bulbul kibi ul gulshan tegrasiga chevrulgay, to ul sham’ nuridin ko‘zi munavvar bo‘lib, bu gul atridin dimog‘i muattar bo‘lg‘ay.

M a s n a v i ya:

Etar xorani mehr la’li muzob,  
Qilur qatrani bahr durri xushob,  
  
Bu ikkidin o’ksuk meni zori dun,  
Va lekin sen ul ikkidin ham fuzun,  
  
Quyosh xorani javhar etgan kibi,  
Tengiz qatrani gavhar etgan kibi,  
  
Ishim himmating birla topsun nizom,  
Payom ushbu erdi manga, vassalom.

## 21

Ruboiya:  
Bir mo’r Sulaymong‘a<sup>37</sup> bo‘lay deb hamroz,  
Ko‘p sa’y ila yo‘l qat’ini qildi og‘oz,  
Chun taxti Sulaymong‘a yetishti qadami,  
Yer o‘ptiyu qaytti qilib arzi niyoz.

Qulluq arzdosht ulkim, Ka’ba tavofidinkim, murod ul qiblai iqbol rutbalig‘ ostondur va qibla safaridinkim, maqsud ul ka’bai omol suddalig‘ osmondur — xokbo‘slug‘ig‘a ehrom bog‘lanib, yaqin yetishildi, ammo.

R u b o i ya:  
Har necha yuzung xayolin etsam tasvir,  
Naqqoshi qazo borig‘a berdi tag‘yir,  
Men vasl umidig‘a ko‘p ettim tadbir,  
Tadbir ne sud, gar emastur taqdir.

Arzadoshtning sharhi mujibi maloldur va holning bayoni boisi kalol. Ruju’ ruq’a homilining adosig‘a va havola noma noqilining duosig‘a qilildi, vassalom.

## 22

To firoq mubtalosining talx—talx sho‘robasi hijron o‘tining lahza—lahza zabona tortarig‘a taskin bergay va ishtiyoyq giriftorining nafas-nafas shu’lai shavqi ko‘ngul vayronasig‘a zamon—zamon o‘t solg‘ay.

R u b o i ya:  
Mizojinga allme yetmasun firoq bila,  
Zamiring o‘lmasun ozurda ishtiyoyq bila,  
Ko‘zumga tengri yetursun ikki toboningni,  
Hal aylabon qaro qilmoq ikki qiroq bila.

## 23

R u b o i ya:

Vaslingni tilab, ey shahi farxunda  
Ko'nglum qushi egnidin chiqib erdi qanot,  
Ko'p xukm yetishtikim, yonib kelsun bot,  
Chun bo'ldi zarurat, ayladim azmi Hirot.

To falak jafosi ishtiyoy shajarasining samarasi hijron mevasi qilg'ay va to sipehr zulmidin hijron ahlig'a shavq va hirs gulbunidin hirmon gullari ochilg'ay, falak ul hazratning hukmi chavgonig'a go'ydek farmonbardor va sipehr aning shodurvoni azamat va jaloli davrida tugma kirdor bo'lsun.

Qulluq duodin so'ngra arzdosht ulkim, bu bandaning za'fining quvvati va xo'ro'shining xaroshi ul martabag'a yetib erdikim, atibbo tashxisida va hukamo muolajasida besomon bo'lub erdilar. «Tasofiru tasihhu»<sup>38</sup> amr va mujdasi bila hazrati Imom razvasig'a degincha ruxsat bila kelildi, xayolda ostonbo'slug' orzusi bag'oyat va ko'ngulda sarig' yuzni oltun bo'sag'ag'a surtmak muddaosi benihoyat erdi. Andoqkim, aning kayfiyatidin falonekim, tab'inining diqqat va latofati jonbaxshliqda Masihsoso erur va nazmining salosat ravonlig'i Xizr zuloli xosiyati berur — sohib vuqufdur. Chun banda hukm yo'suni bila mahkumvor yondim, mushorun ilayhnikim, aladdavom bu faqirni o'z suhbati bila masrur tutor erdi — o'z ivazim (agarchi ul beivaz tushubtur) yibordim. Ul dog'i bir—ikki qatta kelsun deb, aning otig'a oliv nnshon kelgan jihatdin bu ma'kig'a tolib erdi. Faqir iltimosi bila aning muddaosi muvofig tushgan uchun qulluq ehromin bog'lab, mutavajjih bo'ldi. Umid ulkim, o'zi maqbul va arz qilur so'zi pisandida va ma'qul ko'rungay. Necha kitobkim, hukm bo'lub erdi, ulcha moyassar bo'lur chog'lig' erdi, andin yuborildi. Qolg'onne ham umid ulkim, bot moyassar bo'lg'ondin so'ngra alarni ham yetkurulgusidur.

Charx davridin fuzunroq tuli davroning sening,  
Olam axli sar-basar mahkumi farmoning sening.

## 24

R u b o i ya:

Tokim, nazarimda shahsuvorim yo'qtur,  
Hijronida juz nolau zorim yo'qtur,  
Bir yerda quyun kibi qarorim yo'qtur,  
Sargashtaligimda ixtiyorim yo'qtur.

Qulluq duodin so'ngra arzdosht ulkim, bu davlat xoh qul gustohliq qilib, Shayx Muhammad miroxurdin<sup>39</sup> yuborilgan arzdoshtning javobin inoyat qilibkim, Sulton Mahmud og'odin<sup>40</sup> yuborilib erdi, mazmunidin andoq ma'lum bo'ldikim, doyimig'i dastur bila mustahsan tushubtur. Tengri taolo umru davlatingizdin barxurdor qilg'ay, dunyo va oxirat murodot va maqosidini nasib qilg'ay.

Umid ulkim harnekim bu banda davlatxohliq yuzidin bitibmen — maqbul tushubtur, amal qilib, natija topmoq ro'zi bo'lg'ay. Yana Muhammad Aminbek<sup>41</sup> bila Xoja Faxriddin bitikchi<sup>42</sup> bobida ham nishonlarkim, bitilib erdi — yuqori arz qilib, barchag'a javoblar bordi; navvob arz qilg'ondin so'ngra ma'lum bo'lg'ay, deb qulluq arzdosht bitildi.

## 25

Qulluq duodin so'ngra arzdosht ulkim, humoyun bitikkim, inoyat qilib, falondin yuborib erdingiz — yetishti va mazmuni ma'lum bo'ldi. Andoq ishorat bo'lub erdikim, hazrati xon bobida ikki so'zni Mirzo tobug'ida arz qilib, javobin olib yuborgil. Bir ulkim, ne dastur bila alarni kishi yuborib so'rdurali. Yana bir ulkim alar tobug'ida maktub ne nav' yetmak munosib bo'lg'ay; buyruq yo'suni

bila arzg‘a yetkuruldi.

So‘ruq bobida andoq hukm qildilarkim, inilari bila soyir hazarot xonni ne nav’ dastur bila so‘rg‘onlarining naqlin kelgan kishi eltsun, barchaning og‘asi va arshadi ul aziz farzanddur. Ul naqlni ko‘rub anga yarasha yaroq qilib, so‘rdura kishi yuborsun. Yana bitik bobida andoq buyurdilarkim, agarchi yoshqa ul farzand andin ulug‘roqdur, ammo ul sultonlig‘ martabasidin munda kelmaydur, xonlig‘ masnadidin hodisa voqe’ bo‘lg‘on uchun munda tushubtur, bu muddatda bizga mundoq aziz mehmon kelgan ermas, bitikda xon tobug‘ida deb bitib, maktubni oxirig‘acha ta’zim bila bitisun va orqasida muhr yo ismin bitik o‘rtasida qirog‘i sori mayl qila bosib yo bitisun deb, hukm qildilar. Tobug‘da ma’lum bo‘lsun deb, qulluq duo arz qilildi.

## 26

Qulluq duodin so‘ngra arzdosht ulkim, inoyat nishonp keldi, inoyat so‘zлari ma’lum bo‘ldi. Har oyinakim, andoq bo‘lg‘usidur, quyoshdin zarraparvarliqdin o‘zga ish kelmagusidur va bu quyoshdin ravshanroqtur. «Firoqnom»kim, yuborilibtur — tasvir qililsun deb, ani tasvir qilaolur kishi ustod Behzoddur<sup>43</sup> va bu yaqinda Ustodi mushorun ilayhni Mirzo tilab oldilar: o‘z qoshlarida bog‘da hujra yasatib ish buyuradurlar. Yana andoq kishiki, ul kitobatqa munosib ish qila olg‘ay — yo‘q erdi. Har nechuk ul bobda hukm kelsa, anga ko‘ra qililg‘usidur deb, arzadosht bitildi.

## 27

Qulluq arzadosht ulkim, bu qul mulozamat ehromin bog‘lab, mutavajjih bo‘lurda tole’ za’fidin oriza dast berdikm, ul tavajjuh monii bo‘ldi. Ammo Shayu himningkim<sup>44</sup>, bu banda bila alarning orasida hech judolig‘ yo‘qturur — banda evazi mutavajjih bo‘ldilar, kayfiyat ma’lum bo‘lg‘usidur, Bandai muxlisning davlatxohlnq yuzidin xotirig‘a kelgan so‘zni ham borg‘on yoronlarg‘a aytilibtur — arz qilsalar, umid ulkim, ul so‘zga iltifot bo‘lg‘ay deb, qulluq arzadosht bitildi.

## 28

Zihi nozil maqoming taxti shohi,  
Tushub tojing uza zilli ilohiy,  
Ham o‘lsun poyai taxting falakso,  
Ham o‘lsun toji qadrin arsh farso.

Qulluq duodin so‘ngra arzdosht ulkim, Mir Sayyid Abu Ishoq<sup>45</sup> kelib, inoyatnama bila soyir in’omotin yetkundi. Bandanavozlig‘ nishonn bila boshimni falakdin o‘tkardingiz va sarafrozlig‘ markabi bila xoksor tanimni tufrog‘din ko‘tardingiz va inoyat libosi bila zohir ayblarimni mastur va bu inoyatlar siposi bila buzulg‘on botinim uyi ma’mur bo‘ldi. Muning muqobalasida duodin o‘zga ilgimdin ne kelgay va sanodin o‘zga tilimdin ne ochilg‘ay.

To jahon bo‘lg‘ay himmatingiz samandi charx paymo va to sipehr evrulgay jahon ahlig‘a in’omingiz tashrifi ziynatafzo bo‘lsun. Omin, yo rabbil olamin.

## 29

Qulluq arzadosht ulkim, inoyatnama mazmunidin humoyun zot va farxunda mizojingizning salomatlig‘i ma’lum bo‘ldi. Umid ulkim, haq taolonning panohida bo‘lub, muddao muvofiqi va orzu mutobiqi davlat tuyassar bo‘lg‘ay. Bu qul bir necha kun ziyoratgohda erdikim, miroxur kelgandurur. Ul jihatdin arzadoshtni o‘tkarurda hozir ermas erdim. Haml mulozamat taqsirig‘a bo‘lmaq‘ay. Jahon

mulki musaxxar va ikki jahon murodi muyassar bo‘lg‘ay. Omin, yo rabbil olamin.

### 30

Qulluq arzadosht ulkim, yiborgan inoyat nishonida Samarqanddin qochib kelgan kishi bobida so‘zlar bitilib erdi. Arzadoshtda dag‘i ul so‘zlardin mazkur erdi, barchasin sharh bila yuqori arz qililur. Chun qochib kelgan kishi hanuz ko‘runmaydur erdi, ul jihatdin hanuz ul bobda hech nav’ hukm voqe’ bo‘lmadi. Inshoollo, ul qo‘rungandin so‘ngra harne hukm bo‘lsa, sharh bila arzadosht qililg‘usidur. Davlat bardavom va sao—dat mustadom bo‘lsun.

### 31

Qulluq arzadosht ulkim, Mirzoning muborak mizojlari sihhat topib, «taxti ravon» bila zilhijja oyining yigirma beshida dushanba kuni toshqori chiqtilar. Umid ulkim, Mirzomning sharif zotlari dag‘i hamisha sihhatda bo‘lub, davlatlari kundin-kunga ortqay.

Inoyat qilib doyimg‘i dastur bila vahyosor ruq‘alar bila sarafroz qililsa, bu faqirning mujibi saodati dorayni bo‘lg‘usidur. Parishon nazmlardin bir juz tobuqta yuborildi. Chun muborak nazarlari tushgay — isloh bila musharraf bo‘lg‘ay.

Davlat mudom va sultanat molokalom bo‘lg‘ay.

### 32

Qulluq arzadosht ulkim, axtachidin inoyat qilib yiborgan og‘zi muhrluq bitikni o‘qub, javob olg‘uncha, axtachi oshuqub ketgan ermish. Ul bitik bobida har so‘zkin bo‘lsa, bu banda mulozamat iqbolig‘a musharraf bo‘lg‘ali qulluq ehromin bog‘lab, mutavajjiyhdurur. Umid ulkim, banda yetguncha yayloqlarda bo‘lg‘aylarkim, mizojda juz‘iy harorat bor. Astrobodning shahrig‘a bandannng boruri hojat bo‘limg‘ay. Chun ostonbo‘sluq ishtiyoqi haddin o‘tub erdi — bu vasila bila xayol qilildikim, ul oliy maqsadqa yetgay.

Davlat ro‘zafzun va iqbol hamidun bo‘lsun.  
Ko‘zum ucharki, humoyun yuzungni ko‘rgan bot,  
Biaynih anga kirpiklar o‘lmish ikki qanot.

### 33

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, Mirzoning muborak mizojlarida juzviy za’fkim bor erdi — sihhatqa mubaddal bo‘lub, parhiz ushottilar. Bu uchurda ul viloyatdin dag‘i juz‘iyot uchun Mavlono Xudoyberdini<sup>46</sup> qulluqqa yuborildi. Qulluq izhorig‘a arzadosht bitimoq vojib erdi. Mashhaddin bu banda o‘z holin xoja Falondinkim, arzadosht qilib erdim, holo mulozimlar himmat va davlatidin bu bandaning marazi ham sihhatqa yuz qo‘yubtur, ammo biror nima za’fbor. Umid ulkim, ul dag‘i, daf‘ bo‘lg‘ay deb qulluq arzadosht bitildi. Bu matla’ voqi’ bo‘lub erdi, umid ulkim, islohqa musharraf bo‘lg‘ay:

Raxshingki xirom ichra o‘tar kabki daridin,  
Istarmen aning na’lini tovus paridin.

### 34

Qulluq arzadosht ulkim, bu banda alassaboh eshikka hozir bo‘lganning jihatni ul erdikim, muborak diydoringizni ko‘rub qolg‘aymen. Xabar bo‘lg‘uncha salomatlig‘ bila azimat qilib ermishsiz. Otlanib, yo‘lda quluqqa musharraf bo‘lur xayol qilg‘och, hukm keldikim: «G‘oyib bo‘lmasunkim, so‘z bor». Bu jihatdin mahrum qolildi. Haml taqsirg‘a bo‘lmasa g‘oyati karam bo‘lg‘ay.

Buyurg‘on g‘azallardin tayyor bo‘lg‘onlarni yuborildi. Qolg‘onni dag‘i tugatib, borur kishidin yuborilgay.

Hukm bo‘lub erdikim: «Xayolingg‘a kelgan davlatxohona so‘zung bo‘lsa ayt».

So‘z budurkim, havo isidi ulcha imkonli bor, chog‘ir icharda rioyer vojibdur. O‘zga so‘zlar ham bo‘lsa, arzadosht bo‘lg‘usidur.

## 35

Qulluq arzadosht ulkim, Abdulkarimdin<sup>47</sup> yiborgan npoyatnomani bajins Mirzoning ilgiga berduk, xukm bo‘ldikim, siz davlat bila borib, Mo‘g‘ulbek<sup>48</sup> ko‘mak yo‘sunluq kerak bo‘lsa kelganlar, ammo mundoq so‘z kechtingim: «Mo‘g‘ul andag‘i ishlarga bag‘oyat ko‘p ehtimomlar qilur erdi, Badnuzzamon Mirzo oncha ehtimom qilg‘aymu?» Arz qildimkim, andin ko‘prak ehtimom qilg‘usidurlar. Emdi inoyat qilib, o‘zlukunguz bila mashg‘ulluq qilib, ish-kuchni kishi — qaro umidiga qo‘ymasangiz yaxshiroq bo‘lg‘ay. Inoyat qilib, chun bitirsizkim, mening ish—kuchim sanga uhdadur. Agar andag‘i ishlarda beehtimomlig‘ voqebo‘lsa, Mirzo tobug‘ida bu qul uetlig‘ bo‘lg‘usidur deb, qulluq arzadosht bitildi.

Ba’zi tarbiyat qilg‘on qullar bobidakim, bitilib erdikim, taqsirlari jihatidin xitob va musodara voqe’ bo‘lubtur.

Qullardin taqsir va salotindin goh afv va goh xitob voqe’ bo‘la kelgandur. Ammo podshohning o‘z ish kuchidin voqif bo‘lub, siyosatidin qullarning vahmining bir uluq natijasi budurkim, alardin jarima oz voqe’ bo‘lur. Dag‘i podshohqa ham muqobalada itob qilmoq lozim kelmas. u mahalda har hol bila bo‘lsa navkar jonibini asramoq vojibdur. Ammo alarning ahvoidin ham voqif bo‘lmoq vojibdurkim, beqoida voqe’ bo‘lmaq‘ay va barcha hushyorliqqa vobastadur.

May meho‘ru hushyor mebosh»<sup>49</sup>.

## 36

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, Vaqfada ziyorat jihatidin Imom ravzasig‘a kelilib erdikim, davlatingiz duosi qilg‘aykim, Ildirim<sup>50</sup> keldi. Yana bir duo bila o‘zni sog‘indurmoq vojib ko‘rundi.

Har qayon yuzlansangiz fathu zafar yoringiz bo‘lsun va jamii ofot va baliyotdin haq taolo nigahdoringiz, omin.

Bu matla’ voqe’ bo‘lub erdikim:

Ishq dashtin hech g‘urbatkash musofir ko‘rmasun,  
Men g‘arib ul dasht aro ko‘rganni kofir ko‘rmasun.

Islosg‘a xokimsiz.

## 37

Qulluq arzadosht ulkim, inoyatnomadin sarafrozlig‘ dast berdi.

Ne lutf ediki, meni noma birla yod etting,  
Ne noma erdiki, mahzun ko‘ngulni shod etting.

Davlat bardavom va saodat mustadom bo‘lsun.

Ko‘ksumda na’l bo‘ldi xadanging nishonasi,  
Ko‘nglum uyi erur aning omochxonasi.

Yaqinda bu matla’ voqe’ bo‘lubtur, gustoqliq qilildi.

Barcha holotdin farzandi arjumand Haydar<sup>51</sup> sohib vuqufdur, so‘rulsa arzadosht qilg‘usidur.

Davlat mustadom bo‘lsun.

### 38

Qulluq arzadosht ulkim, mundag‘i holot tengri taolo inoyati bila Mirzo davlatidin ko‘ngul tilagondektur. Bu uchurda Sulton Mahmud Mirzo<sup>52</sup> qoshidin Mahmud barlos<sup>53</sup> kelib, peshkash va sochiq kelturub, qulluq xizmatgorlig‘larin izhor qildi. Yana atrof va javonibdin kelgan xabarlar dag‘i barchasi davlatqa muvofiq erdi. Gustohliq yuzidin bir necha so‘z bitib, qog‘az boshin yopushturub yiborildi. Anga dag‘i mulohaza qililib, nazarg‘a kelturulsa, davlatqa muvofiq bo‘lg‘usidur deb, qulluq arzadosht bitildi.

### 39

Safardin kelgan ermish ul musofir oyu men mahrum,  
Sabo oldida arz et, chunki holim aylading ma’lum.

Qulluq arzadosht ulkim, safardin salomatliq bila qaytib, maskanga tushulgan habardin davlatxoh quyllar shodmon bo‘ldilar. Umid ulki, hamisha davlat bila sog‘ va salomat bo‘lub, olam ahlig‘a komron bo‘lg‘aysiz. Doranda mutavajjih uchun duo bila o‘zni muborak xotirg‘a bermak vojib ko‘rundi deb, qulluq duo bila arzadosht bitildi.

### 40

Qulluq arzadosht ulkim, bu bandag‘a behjat va sarafrozlig‘ mujibi bo‘lg‘on ruq‘a yetishti. O‘pub oni ko‘zu qoshimg‘a qo‘ydum. Ne qoshu qaysi ko‘z, boshimg‘a qo‘ydum. Inoyat qilib, mundag‘i holatni ruq‘a homilidin so‘rulsa, arza qilg‘usidur.

Davlat muxallad va saodat muabbad bo‘lsun. Omin yo rabbil.olamin.

### 41

R u b o i ya:  
Qasring uza charx toqi manzar bo‘lsun,  
Bazming aro oftob mijmar bo‘lsun,  
Javloninga arsa yetti kishvar bo‘lsun,  
Har ne tilasang barcha tuyassar bo‘lsun.

Qulluq arzadosht ulkim, Abdulkarim Mirak hukm bo‘lg‘on ish kuchni so‘zlashib, ko‘ngul tilagandek javob olib bordi, ma’lum bo‘lg‘usidur. Umid ulkim, mahjur quyllar muborak xotiringizdin chiqmag‘aylar deb qulluq arzadosht bitlidi.

### 42

R u b o i ya:

Ey zuhra kelib, mutribi bazmi tarabing,  
Birjisdin ortibon hayovu adabing,  
Olam elida xisravu xoqon laqabing,  
Odamg‘a degincha xon bin xon nasabing.

R u b o i ya:

Ne charx bisoti ishrat afzoyingcha,  
Ne mehr jamoli olam oroyingcha,  
Ne oy davri chatri falak farsoyingcha,  
Ne ko‘k avji xoki kafi poyingcha.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, bu faqirning parishon ash’ori va oshufta ab’yotidin harnekim tartib libosig‘a kirib erdi va har qaysig‘a tadvin oyini berilib erdi - barcha humoyun kutubxonag‘a yetib erdi va andag‘i kutub silkiga kirar sharafin kasb etib erdi.

Bu o‘tgan ikki yilkim, bu banda boshig‘a havodisi ro‘zgordin yuz nav’ balo va ishqilabunkush bedodidin yuz turluq ibtilo yuzlandi. Ollimg‘a har shiddat kelsa, chun ayturg‘a bir yori g‘amgusorim va ilayimga har suubat yetsa, chun izhor qilurg‘a bir rafiqi sohib asrorim yo‘q erdi, ul shiddatu suubat mazmunidin biror bayt yo matla’ xayol qilur erdim va ko‘nglumni ul g‘ussa va anduhdin xoli etar erdim, bu oz vaqtida ko‘p nazm aytilg‘on ermish va har nav’ she‘r va g‘azal yig‘ilg‘on ermish. Bularni zoe’ qilmoq bandag‘a nomaqdur erdi va tartibig‘a ham hukm bila ma’ mur.

Bu sababdin burung‘i ikki devon ash’ori bila so‘ngra aytilg‘onlarni bila qo‘shub, tartib bila to‘rt ayrildi, dag‘i to‘rt ot qilildi: tufuliyatda voqe’ bo‘lg‘on g‘arib ma’nilarg‘a — «G‘aroyibus—sig‘ar» va yigitlikda zohir bo‘lg‘on nodir tarkiblarga — «Navodirush—shabob» va umrning vadatida jilva qilg‘on badi’vashlarga — «Badoeul—vasat» va umrning oxirig‘a yaqin nazmg‘a kirgan foydalarga — «Favoidul—kibar» ot qo‘yuldi. Dag‘i majmuig‘akim maxlut bitilibturur, chun tab’ xazoyinidin hosil bo‘lg‘on maoniy erdi —«Xazoyinul—maoniy» laqab berildi, vojib erdikim, muborak nazarg‘a yetkurulgay.

Ul sababdin mafxarus—savohib Mavlono Sohibni<sup>54</sup> qulluqqa yiborildi va ul musvaddani oliy majlisqa yetkursun deyildi. Bu gustoxliqqa afv umididur va ul gustoxliqlarga isloh umidi, to to‘rt taboyin muxtalif inson xilqatidakim, ofarinishning xazoyini maonisidur — muvofiq bo‘lg‘aylar. Rub‘i maskunda hukmunguz ravon bo‘lsun va rub‘i maskun ahlig‘a adlingizdin amnu amon. Omin, yo rabbil olamim.

### 43

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, Ildirim miroxur<sup>55</sup> kelib, bandanavozlig‘ nishonni kelturdi. Zaif jismg‘a andin quvvate va majruh ko‘ngulga andin sihhate yetishti.

O‘pub ko‘zumga qo‘yub, jonim ichra yer berdim,  
Alif kibiki bo‘lubtur makoni jon ichra.

Agarchi sa‘b maraz nihoyatida o‘lmak biymi bor, ranjur marizg‘a jon umidi, balki hayoti jovidon navida yetishdi. Ul qalamg‘akim varaq hoshiyasida badoe’ nukta surub, zamon notavonin masrur qilibtur-etti iqlim yakqalam bo‘lsun va ul ilikkakim, ul qalamni ul safhag‘a yetkurub turur, haq subxonahu va taolo rub‘i maskun kishvarin musallam tutsun. Bu zayf banda tobuqqa borg‘on beklar xizmatida andoq deb yubordimkim, necha kun Mashhadda turub, o‘z holimg‘a mulohaza

qilg‘umdurur. Ahvolimda tafovut ma’lum qilsam, qulluq ehromi bog‘lag‘umdur, ul muyassar bo‘lmadi.

Ummid ila keldim, vale armon bila bordim.

Emdi umidvorlig‘ Yusuf Alidin<sup>56</sup> yuborgan og‘zi sireshtlik arzadoshtdadur. Tengri taolo inoyatidin hazratingizda osondur deb, arzadosht bitildi.

Ruboya:

To davr durur davr sanga yor o‘lsun,  
To charx durur charx madadgor o‘lsun,  
Zotingg‘a Xizr umridin osor o‘lsun,  
Umringg‘a abad fursati miqdor o‘lsun.

Omin, yo rabbil olamin.

#### 44

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, bu faqir muddate bo‘ldikim, muborak diydoringizg‘a musharraf bo‘lmog‘on jihatdin ishtiyooq bag‘oyat g‘olibdur. Bu qatla Mashhadg‘a kelgandin g‘araz bu erdikim, o‘zumga oncha quvvat chenasamkim, o‘n—o‘n besh—yigirmi kunda qulluqqa yetib, poybo‘sluq davlatig‘a musharraf bo‘lib kela olg‘ayman. Qulluq azimati qilib, andoqkim, Shayx Alibek bila Husaynqulibekka<sup>53</sup> sharh bila aytib erdim, shoyadki arz qilmish bo‘lg‘aylar. Bu muddaog‘a dalil bukim, bu muddatda zahmat tortib yasag‘on muraqqa’ni har miqdor takalluf qilib tugatgan kitoblarnikim, bulardin o‘zga hech nimaga xotirbaetalik yo‘q erdi — olib kelib erdimkim, chun bandag‘a za’f chirmashibtur muborak diydoringizg‘a musharraf bo‘lub, qazo ham yetsa, bu kitoblar bori sizning nazaringizda bo‘lg‘ay. Chun o‘zumda ul quvvat topmadim, ul kitoblarni Yusuf Alidin qulluqqa yubordim. Alar taqriyibi bila gohi bu bandangizni sog‘inurga hokimsiz deb, qulluqqa arzadosht bitildi, vassalom.

#### 45

R u b o i ya:

Ey toju sariru mulk zebanda sanga,  
Ma’mur kelib tole’i farxanda sanga,  
Ham bo‘lsun ulus shohlari banda sanga  
Ham sarkashlar barcha sarafkanda sanga.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, manozil sayridin xurshed o‘z manzilig‘a, ya’ni asad burjig‘a yuzlanganini va qulon ovidin sher o‘z beshasig‘a, ya’ni Jurjon taxtgohi gardun ishtibohig‘a qaytqonini eshitildi. Humoyun zotqa salomati abadiy g‘oyatsiz erkonin ko‘rguzmak vojib va ro‘z afzun davlatqa istiqomati sarmadiy nihoyatsiz erkonini so‘rdurmoq lozim erdi. Bu jihatdin:

Manga ulkim nadimu sohibdur,  
Tunu kun hamdamu musohibdur,

ani qulluqqa yibordimkim, ko‘zum mardumi xokbo‘slig‘in ul dargoh tufrog‘ig‘a yetkurgay va kirpigim supurgusi vakolatidin ul borgoh ostonig‘a ko‘z surtub, xoshogin supurgay. Umid ulkim, bu

davlatqa musharraf bo‘lub, bandani ham bu arzadosht javobig‘a musharraf qilg‘ay.

M a s n a v i y:  
To doirai sipehr bo‘lg‘ay,  
Tokim anga nuqta mehr bo‘lg‘ay,

Ham avji sipehr taxtgojing,  
Ham nuqtai mehr xoki rohing.

## 46

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, doim sohib davlati azimush—shon salotin zamonida mamlakatlarining mutaayyin elidin ba’zi davron havodisi va zamon navoyibi lagadko‘bidin xoksorliqqa qolib, bee’tiborliqqa tushar erkanda ul salotin ul shikastai aftodag‘a dastgirliq yuzidin iltifot va shafqat ko‘rtuzur ermishlarkim, alarniig madad va himmatlari jixatidin ul bechora yana o‘z holig‘a kelur ermish.

Bu zamonda Xoja Hoji Mahmud Tabriziyg‘a<sup>59</sup> halul hol voqe’ bo‘lubtur. Agar ul salotin dasturi bila shafqat va iltifot aning holig‘a shomil tutulsa, umid ulkim, ul shafqat natijasidin anga dag‘i burung‘idek jamiyat va rafohiyat nasib bo‘lg‘ay, vassalom.

## 47

R u b o i ya:  
Jon qasdi ko‘p etti yor hijroni manga,  
Hirmon o‘qin urdi ulcha imkonni manga,  
Gar bo‘lsa mute’ charx davroni manga,  
Yetkursa meni ul oyg‘a yo oni manga.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, zaif va quvvatsiz qulunguzning za’fi quvvatqa va marazi sihhatqa yuz qo‘yub erdi. Inoyat qilib, so‘rdura yiborilgan nishonkim, yetti, aysa bo‘lgaykim, badanda harorat shu’lasidin sharare va ko‘ngulda iztirob shiddatidin asare qolmadi.

Bitikingdinki savodini ko‘rub jon toptim,  
Zulmat ichra masalo chashmai hayvon toptim.

Xasta qullar o‘chun haq taolo ul humoyun zotni xastalig‘din asrasun va qadimiy bandalar uchun ul farxunda sifotni dilbastalig‘din o‘z pano힒ida tutsun.

Bu uchurda Xoja Hofiz G‘iyosiddin Muhammad Dehdor<sup>60</sup> tarxon qulluq ehromini bog‘lab, azimat qildi. Qaysari Rum iltifotin va ul bobda topqon ahkom holotin arz qilg‘usidur.

Ruboiya:  
Yo rab, bo‘lsun gardi rahing zevari Rum,  
Zotingg‘a nasib taxt ila afsari Rum,  
Doxili mulkung ichinda yuz kishvari Rum,  
Tobe’ sipahing xaylida yuz qaysari Rum.

## 48

Ruboiya:

Ber mujda ko‘ngulki, gul’uzorim keladur,  
Jon gulshanida toza bahorim keladur,  
Bir kavkaba birla shahsuvorim keladur  
Kim, yuzini oy demakka orim keladur.

Ruboiya:

Bu mujda bilaki, tuqqusi subhi visol,  
Hijron qaro oqshomig‘a yuzlandi zavol,  
Emdi menu intizori mehri iqbol,  
Kech qolsa bu mehr to ne bo‘lg‘ay manga hol.

Ruboiya:

Qosid keldi zohir etib ko‘p ta’jil,  
Bir noma qo‘lida vasl komig‘a dalil.  
Bu nomadurur kalomi munzalg‘a adil,  
Yo yuqoridin vahy keturdi Jabrail<sup>61</sup>.

Ne noma erdikim, arshoso dargohdin nozil bo‘ldi aning shonida «Alhamdu lillahil—laziy anzala a’la abdihil kitabi»din o‘zga nima xotirg‘a kelmas va ne safha erdikim, falak farso borgohdin nuzul qildikim, aning shonida «Alhamdu lillahil-laziy ahzaba g‘ina alxazon» din o‘zga kalima tilga evurulmas. Umid ulkim, zafarpaykar royatning humoyunfol ko‘lkasidin firoq dashtida hijron samumidin mahrur bo‘lg‘on zaiflar osudahol va xujasta asar mavkibning jonparvar xabaridin hajr zindonida mahbus va mahjud bo‘lg‘on nahiflar forig‘bol bo‘lg‘aylar.

Qulluq arzadosht ulkim, inoyat nishonida bitilib, erdikim, Mirzo mulozamatlarig‘a ozim bo‘luldi va ul azimat ijrosig‘a jozim. Shak yo‘qturkim, bu xizmat dunyo va oxirat maslahatig‘a muvofiq va Mirzodek otog‘a sizdek o‘g‘uldin munosib va loyiqdur. Inshollohki, har tavajjuhda kishvare fath topqay va har hamlada askare mag‘lub bo‘lg‘oy va har onda jahone musaxxar va har damda olame muyassar bo‘lg‘ay. Ulcha bitilib erdikim, Panjdeh va Marvchoq navohisida kelib, mulozamat davlatig‘a musharraf bo‘la olursen. Bu arzadosht ne yerda yetsa, hukm bo‘lsakim, ul yerdin Panjdeh va Marvchoqqa deginchal manzillarni bitib, ne kun ul navohig‘a yetarni qiyos qilib, inoyat nishoni yuborilsakim, bu banda hamul hisob bila chiqib, inshoolloh, taraddudsiz bitilgan yerda mulozamatqa yetsam. Bu umidvorlig‘ intizoridadur deb, qulluq arzadosht gustoxliq qilildi.

R u b o i ya:

Yo rab, ne tarafki azm qilg‘ay roying,  
Mansur o‘lg‘ay royati gardun soying,  
Mag‘lub o‘lubon aduvi kinafzoying,  
Masrur o‘lg‘ay xotiri mulkoroying.

49

Ruboiya:

Nomangki ko‘ngul komiga marg‘ub erdi,  
Topti ko‘ngul andin ulcha matlub erdi,  
Yo‘q, nomaki, dilpaziru mahbub erdi,  
Xattida ko‘ngul murodi maktub erdi.

Toyiri davlat va iqbol balki qosidi farxundapayi farruxfol muknat va ubbahat bo‘stonidin, balki saltanat va azamat ostonidin mahjurlar ro‘zgorig‘a tashrifi huzur yetkundi va mahrumlar sarvaqtig‘a saodat va iqbolo so qadam urdi, ilgida huqqai labolab la’li koniy va durri ummoniy, balki qo‘ynida nomai sarosar zebi, alfoz va gavhari maoniy, ul huqqa og‘zini muhri ixfo urg‘on, balki u noma boshin g‘ayr ko‘zi tushmasun deb, yopushturg‘on.

Bu banda chun ul javohiri obdor qiymatin bildim va ul maxfiy asrorg‘a filjumla vuquf hosil qildim. Maxfiy xitob javobin fosh arzadosht qilmoqni va nihon masala bayonini oshkor bitmakni adabdin yiroq va ubudiyatdin qiroq ko‘rdum. Ul jihatdin chun o‘zum qulluqqa ozim va bandalig‘ azimatig‘a jozim erdim, munosib andoq ko‘rundikim, xotirg‘a kelgan shikasta basta alfovni o‘zum arzg‘a yetkurgaymen va bu parishon va parokanda ma’nini o‘zum navvob qulog‘ig‘a urg‘aymen deb, qulluq arzadosht bitildi.

To jahondur jahong‘a homiy bo‘l,  
Saltanat taxtida kiromiy bo‘l.

## 50

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim:

R u b o i ya:  
Nomangki yetishti yuz ming ehson birla,  
Ko‘nglumni fidosi ayladim jon birla,  
Lutf ayla bu xonumoni vayron birla,  
Qil yod qadah ichar zamon xon birla.

Davlat mustadom bo‘lsun, vassalom.

## 51

Agar qoziyi islom tengri rahmatig‘a bordi — podshohi islomni haq taolo ko‘p yillar diyori islom va ahli islom boshig‘a poyanda va mustadom tutqay. Ul mansabqa kishi ta‘yin qilur uchun ko‘p taammul vojibdur, magarkim bu toyifaning ahvalidin sohib vuquf va hozir bo‘lg‘onda barchaning saloh va fasodin arzg‘a yetkurganidin so‘ngra nechukkim, podshohi islom davlatig‘a va ahli islomning maslahatig‘a muvofiqroq kishi zohir bo‘lsa ta‘yin qililg‘ay deb qulluq arzadosht bitildi.

## 52

Ey kelib jurmu gunoh ahlig‘a lutfung uzrxoh,  
Uzrxoh andoq esa, netong kishi qilmoq gunoh?

Arzadosht ulkim, bu vaqtda Haydar ko‘kaltoshning toleinining kavkabi nuhusat tiyralingidin chiqib, saodat burjig‘a yuzlangan uchun va iqbolineg axtari raj’at vubolidin qutulub, istiqomat avjidin tulu‘ qilg‘on uchun qilg‘on taqsirlaridin sharmanda va ko‘rguzgan jurmlari bila sarafkandalig‘ bila saodat axtaridek falakfarso dargohqa va iqbol kavkabidek sipehroso borgohg‘a yuzlandi. Xayoli bukim, boshin eshikdagi qullar oti ayog‘ida o‘ynag‘ay va murodi bu kim, jonin ostonadag‘i itlar olida fido qilg‘ay. Umid ulkim, niyatig‘a qo‘ra iltifot nazardin bahramand va azimatig‘a ko‘ra shafqat adaridin sarbaland bo‘lg‘ay. To abad karam mujrimlarg‘a panoh va sharmandalarg‘a uzrxoh bo‘lsun.

## 53

Ruboiya:

Ne holat erurki oshiqi shefta hol,  
Qo‘yg‘on yuragiga hajr yuz dog‘i malol,  
Solib boshig‘a soya humoyi iqbol,  
Yetkurgay anga mujdai ummidi visol,

Olloh, Olloh! Firoq shomi savodi ne balo dilgir va umrfarso ermish!

Vah vah! Visol subhi kushodi ne ajab dilpazir va ruhafzo ermishkim, haq subhonahu va taolo aning giriftorlarig‘a najot raqami surgay. Va muning shakar guftorlig‘ig‘a lo ilonihoya mujdasin yetkurgay.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, bu banda qulluqdin mahrum bo‘lg‘ali doyim umidvor ko‘nglum xayol vodisida sargardon va mudom umidim ko‘zi intizor yo‘lida hayron erdikim, doyimg‘i dastur bila kelur kishidin xabar va biror nomadin asar zohir bo‘lg‘ay. Bu jihatdin ko‘ngul xarob ahvol va ko‘z tiyra hol erdi. To bu vaqtqachaqim, Arslonbek axtachi<sup>62</sup> fath nishonlari bila mazkur bo‘lg‘on inoyatnomani yetkurdii. Ko‘ngulga andin osoyish va ko‘zga kushoyish yetishti. Alhamdulilahkim, harne matlub edi hosil va harne marg‘ub edi vosil bo‘ldi. Umid ulkim, emdi bori kishi kelsa ma’hud inoyatnoma bila mumtoz va aning mazmunida iltifotlar bila sarafroz qililg‘ay.

To jahon o‘lg‘ay mute’ sanga,  
Tobei tab‘i bade’ o‘lsin sanga.

## 54

R u b o i ya:

To payki sabo keturdi yorim xabarin,  
Sharh ayladi sarvi gul’uzorim xabarin.  
Bilmas ko‘ngul emdi joni zorim xabarin  
Kim, payk keturdi shahsuvorim xabarin.

Firoq shomida visol subhidin navmidlarig‘a nasimi sahar payki mujdasidin jonfizoroq xabare mumkin ermas va ishtiyooq maqomida jamol mehridin ko‘zi tiyra bo‘lg‘onlarg‘a vasl quyoshi tuluidin o‘zga nima yorug‘luq bermas. Bihamdilloh, burung‘i davlat tuyassar bo‘ldi. Inshoollohhikim, so‘ngg‘i saodatg‘a ham musharraf qilg‘ay.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, shotir fadoniy falon oy nechasida falon kun kelib, inoyatnomakim, bu bandani yod qilib erdingiz — kelturdi. Hadsiz nishot va g‘oyatsiz inbisot yuzlandi. Emdu dag‘i kelur kishidin biror inoyatnoma bila o‘zga qullardin mumtoz va soyir bandalardin sarafroz qilurg‘a hokimsiz. Davlati abadiy bardavom va saodati sarmadiy mustadom bo‘lsun, omin.

## 55

Hadisi qudsiydurkim «man konallahi konallahu lahu», ya’ni har kishi tengriga bo‘lsa, tengri ul kishiga bo‘lur. Va tengriga bo‘lg‘onliqning ma’nisi muni debturlarkim, tengri taoloning buyrug‘i bila amal qililg‘ay va nahyidin ijtinobda. Va tengri taolo bu kishiga bo‘lmoqning ma’nisi muni debturlarkim, qulning har nav’ murodu maqsudi bo‘lsa, tengri taolo hosil qilg‘ay va barcha ofat va balodin saqlag‘ay. Bas lozim keldi: har kishi tilasakim, murodu maqsudi hosil bo‘lib, ofat va balodin

emin bo‘lg‘ay, tengri taolo buyrug‘i bila amal qilib, nahiyan ijtinob qilg‘ay.

Va olamda hech kishi yo‘qturkim, har nav’ murodi bo‘lmaq‘ay va o‘zin balodin emin tilamagay. Ammo har kishining murodi ko‘prak bo‘lsa, haq taolo amrig‘a itoati ko‘prak bo‘lsa kerak: batahsis salotin. Har oyinakaim, gadoeki matlubi bir diram siym bo‘lg‘ay, podshohekim, maqsudi bir iqlim bo‘lg‘ay, agarchi ikkalasining tengri taolog‘a ehtiyoji bor, ammo chun matlublarda tafovuti ko‘ptur: zaruratdurkim, itoatda tafovut ko‘p bo‘lg‘usidur.

G‘araz bu muqaddimotdin bukim, chun salotin tengri taoloning barguzida va azizroq bandalaridurlar va ehtiyojlari va muddaolari o‘zga bandalardin ko‘proqdur, muqarrardurkim, niyoz va xoksorliqlari ham va amri va itoati ham alarg‘a ko‘prak va jamii itoatni hazrati risolat o‘z joddai shar‘ig‘a muqarrar qilibdur. Har kishi shar‘ joddasida rosixroq tengri taolo bila payg‘ambar alayhissalomg‘a mute‘roq va murodi hosilroq va baliyotdin eminroq.

## 56

Payg‘ambar sallallohi alayhi vassalam buyurubturkim, «rizo urrobbi fir—rizail validi va saxatun arrobi fi saxatul—validi»<sup>63</sup> ya’ni tengri taolo rizosi ota rizosig‘a vobastadur va tengri taolo g‘azabi ham ota g‘azabig‘a vobastadur. Bas kishi ota rizosin hosil qilsa, tengri taolo rizosini ham hosil qilmish bo‘lg‘ay va ota g‘azabig‘a uchrasa, tengri taolo g‘azabig‘a uchramish bo‘lg‘ay. Mundoq bo‘lg‘ondin so‘ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urg‘ay yo qadam qo‘yg‘ay. Va mashoyix rahimulloh so‘zi bukim, «valaduka rabbuka», ya’ni otang parvardigoringdur, bu jihatdinkim, tengri taolo seni yo‘qdin bor qilmoqqa vasila uldur va tufuliyatdin shabob sinnig‘acha parvarish berguvchi ul. Va Hakim Sulaymon alayhurrahmata<sup>64</sup> valg‘ufron ro‘zidurkim, ota qodiri qayyum, ona roziqi marsum va Adib Ahmad<sup>65</sup> rahmatulloh debdurkim,

R u b o i ya:

Atodin xato kelsa ko‘rma xato,  
Savob bil xato toki qilsa xato.  
Atoning xatosini bilgil savob,  
Seni yuz balodin qutqarg‘ay xudo.

Ibrohim Xalil<sup>66</sup> salavot ur—rahmon alayhining atosi bovujudi ulkim, Ozari buttarosh<sup>67</sup> erdi, ul hazrat atosig‘a nasihat qilurda nido keldikim, ta’zim va muloyamat bila nasihat qil.

Va Yusuf alayhissalom hazrati Ya’qub alayhissalomg‘a sahv yuzidin bir tarki adab qilg‘on uchun, bovujudi nubuvvat va’da budurkim, soyiri anbiyodin yetmish yildin so‘ngra bihishtga kirgay va Homkim Nuh alayhissalomning o‘g‘lidir, ul hazratqa adab tarki qilib, ul hazrat duosi bila gangi qaro bo‘lub, payg‘ambarliq aning naslidin munqate’ bo‘ldi.

G‘araz bu muqaddimotdin ulkim, bu banda doyim sizga davlatxohlig‘ so‘zin aytibmen va sizni umru davlatdin barxurdor tilab, duo qilibmen va har nomunosib ishkim, sizdin ko‘rubmen sizga aytibmen, balki kitoblarimda nasihatnomalar nazm qilib, arzingizg‘a yetkurusmen.

Bu uchurda bir necha ish sizning tarafingizdin eshitildikim, vojib ko‘rundi sizga arz qilmoqkim, borchha Mirzoning jonibining rioyatidin g‘ofil bo‘lg‘on chog‘lig‘ ko‘rundi.

Biri ulkim, viloyat molin mashvaratsiz olib turursiz va bu ma’hud emas erdi. Hech uch—to‘rt kun emaskim, bir kishingiz kelmas, agar imoyi qilsangiz erdi» yo‘q deyilmagusi erdi.

Yana ulkim, bitibsizkim: «Astrobodg‘a kishi yubormangkim, bermagumdur». Bu mazmunni ham muloyimroq bitiolur erdingiz va «Iroq viloyatlarin ulashibmen» deb bitibsiz. Inshoollo, Iroq ilikka kirgay. Kirmasdin burun, Mirzo bila bir—ikki qatla so‘zlashmay, arz qilmay, bu ish qililmish bo‘lsa, o‘zga eldin ajab bo‘lmasa, sizdan ajab voqe’ bo‘lubdur.

Kerak erdikim, shar‘ rioyati uchun, o‘zingiz ham oz yo ko‘p soqol qirqmasangiz erdi, to anga ne

yetgaykim, elingizning ham soqollarin qirqturmag‘aysiz. Munda ko‘p so‘z bor, desa bo‘lmas.

Yana ulkim, bir nishoningizni kelturdilar, tug‘rosida Mirzo otini bitmaydursiz. Sizdek oql, xushtab’ musulmonvash yigitdin mundoq nimalar ravo bo‘lg‘aymu? Agar bu nishonni bilib bitibsiz, ne hisob bila bo‘lubtur, agar munshi yo g‘ayr sahv qilibdur, nechuk har nishonni o‘zungiz ko‘rmay bir yerga yuborilgay?

Ota bila o‘g‘uldin o‘g‘ul bila ota orasida farqlar bor Boysung‘ur mirzo<sup>68</sup> o‘g‘lonlaridin Bobir mirzodek<sup>69</sup> ermas erdingizkim, ko‘p shafqat ko‘rmamish bo‘lg‘aysiz. Ulug‘bek mirzo<sup>70</sup> farzandlaridin Abdullatif<sup>71</sup> mirzodek yo Jahonshoh<sup>72</sup> mirzo o‘g‘ullaridin Hasanalidek<sup>73</sup> tengrilik o‘rtadadur. Sizning ko‘prak ishingiz orasida bu faqir erdim, borchadin sohib vuqufmen. Siz doyim barcha maxdumzodalarining maxdumi va Mirzoning seviklugi va qurratul ayni erkansiz. O‘zungiz bilursizkim, Mirzoning mofiz zamirin nisbat sizga bu faqirdin yaxshiroq kimsa bilmash. Billohilazimkim ushbu bitgandek ma’lum qilibmen.

Holokim, Astrobodni berib, yaxshi navkarlar qo‘shub sizni yibordilar va bu xabarlar Iroqdin kelurin va yana ko‘maklar xayol qilib erdilar. Ham mahdumzodalardin va ham beklar, ichkilardin va ham soyir xalq sizdin andoq ko‘z tutar erdilarkim, agar Iroq viloyati fath bo‘lsa dag‘i xizmatgorlig‘, bandalig‘ingizni ulug‘roq qilg‘aysiz. Hanuz hech yerda hech nima yo‘q bu nav’ suratlarkim, zohir bo‘ladur — sizdin hayfdur.

Mirzoga Temurbek<sup>74</sup> to‘rtunchi nasabdur. Mirzo xutbada bekning otig‘a sharif ruhig‘a masjidi jome‘da har odina kuni duo qildururlar. Bu ishda Mirzog‘a ham duodin o‘zga ne kelgay. Siz nishoningiz to‘g‘rosidin Mirzoning muborak otin chiqorursiz. Kerak Iroqdin Makka, balki Mag‘rib zaming‘acha olsangiz bu voqe bo‘lmasa erdi. Agar Mirzoni zaif xayol qilibsiz — tengri taolo qaviydur. Farzand kerak zaiflig‘ida otasig‘a xizmat mahallin toptim deb, jonsiporliq qilsa.

Billoh, Mirzoning aziz boshi va sizning boshingizkim, bu arzadosht bitilgan tarixdin yigirmi kundin burunroqdin har sabohdin tush vaqtig‘acha, peshindin oqshomg‘acha o‘lturub, oncha ish qilurlarkim, necha devon, necha navisanda, necha baxshi, necha parvonachi jonlarig‘a yetib, necha xiyla bila qutulurlar. Bu ma’nidin farzand Mavlono Darvesh Muhammad<sup>75</sup> sohib vuqufdur. Bu nav’kim, o‘zlugi bila borchha ishining naqir va qitmiring‘a yetishiladur. Agar o‘tgan avqot munungdek bo‘lsa erdi, ne ishlarkim bo‘lmaq‘ay erdi.

Sohib davlat salotin mushfiq va davdatxoh qullarining beg‘araz so‘zlariga kiribdurlar. O‘zingiz bilursizkim, Mirzo tobug‘ida bu qul ne nav’ so‘zlarga gustoqliq qilibmen. Sizning dag‘i qoshingizda hamul dastur bila voqe’ bo‘lubdur. Yoshingiz uzun bo‘lsun. Andoq kam voqe’ bo‘lubdurkim, bu qulning so‘zin rad qilmish bo‘lg‘aysiz. Emdi dag‘i bu qulning joni kuyganda, o‘zgalarning etagi kuymas. Bu bir necha so‘z gustoqliq qilildi umid ulkim, qabul tushgay. Tushmasa bu banda aytur so‘zni bo‘ynumdin ado qilmish bo‘lg‘aymen.

Tengri taolo tonuqdurkim, bu arzadosht Mirzo buyrug‘i bila ermas, balkim vuquflari ham yo‘qdur. Xayolingizg‘a kelmag‘ay — buyruq bila bitilibdur. Chun sizning tobug‘ingizda ayturcha davlatxohlig‘ so‘zini ayturg‘a ma’murmen. Ul jihatdin go‘stoxliq bila arzadosht bitildi.

## 57

Qulluq arzadosht ulkim, bir necha so‘z xotirg‘a kelib erdi, arz qilmog‘i vojib ko‘rundi. Avval ulkim, iltizom qililsakim, erta uyg‘onib namoz qililsa, agar eshikda masjid tayin qilib, farzni jamoat bila qililsa - xud fabiho va illo besh vaqt namoz bori tark bo‘lmasa, borchha masjidda muyassar bo‘lmasa, ba’zi bori bo‘lsa.

Yana ulkim, alassaboh haramdin chiqqach, devonda o‘lturub dodxoh so‘rulsa, dag‘i dodxoh so‘rarda o‘zruk bila mashg‘ulluq qililsa, agar bir mazlumg‘a birovdin zulme o‘tgan bo‘lsa, zolimg‘a andoq siyosat qililsakim, o‘zga zolimlarg‘a mujibi intiboh bo‘lsa.

Yana ulkim, dodxoh ishi tugagondin so‘ngrakim, shelon ham bartaraf bo‘lur, ichkixona ta’yin

qilib, anda o‘lturub, arkoni davlatni tilab, mulk va mol ishi aytilda, o‘zluk bila barchag‘a yetilsa.

Yana ulkim, arkoni davlatg‘a har ishkimi, buyurulur, agar butmagi bir kun tuyassardur, agar ikki yo uch kun andoq muqarrar bo‘lsakim, bot butardek ish hamul kun arz qilib, javob olsalar. Kechrak butar ishni tongla yo indin yo miqidin o‘tkarmasalar, har kun ne miqdor butganin kelib arz qilsalar. Agar ba’zi hukm yo‘suni bila mioddin o‘tkarib, arzg‘a yetkurmasalar alarg‘a andoq xitob bo‘lsakim, o‘z ishlaridin g‘ofil bo‘lmasalar.

Yana ulkim, umid uldurkim, haq taolo chog‘irdin kulliy tavfiq bergay. Agar bu ucharda uyqu irtikob qililsa, albatta peshindin burun bo‘lmasa. Ikki namoz orasida bun‘yod qililsakim, uyur chog‘ ma’xudiy uyqu vaqt bo‘lsa, tong namozi fav bo‘lmasa. Bori borchha hol bila har necha ichmoq ishida ehtiyyotlik, balki ta’xir vojib bililsa.

Yana ulkim, mulk va mol ishidin, bas dodhoh ishidin farog‘at hosil bo‘lsa, malolat daf‘i uchun kitobxonag‘a kirilsa, kutubxona ahli bila mashg‘ulluq qililsa. Navvobdin harqaysi munosib ko‘runsa tavorix o‘kumoq buyrulsa, bataxsis «Zafarnoma»,<sup>76</sup> agar mashoyix so‘zi yo ba’zi davvovin dag‘i guftushunuft bo‘lsa nomunosib ermas.

Yana ulkim, sudurg‘a hukm qililsakim, eshikda obodon imom bila muqri ta’yin qilsalarkim, saloti xamsani qoyim tutsalar; dag‘i muhtasib ta’yin qililsakim, elni namozg‘a targ‘ib qilsa.

Yana ulkim, haftada ikki kunkim, eshikda akobir jam‘ bo‘lurlar. Hofiz Muhammad Sanoiyg‘a<sup>77</sup> yaxshi ehtirom qilinsa, balki buyurulsakim, yaqinroq o‘lturub, shar‘iya umurni qat’ qilsa, to muborak xotir o‘l bobda dag‘i balog‘at paydo qilsa.

Yana ulkim, Iroq mamlakatig‘a fahmliq, hushliq kishilar yuborib, doyim xabar tutula turulsa. Arz qilur yo‘sunluq xabarlarni arzadosht qilib, yuqori yuborila turulsa, ul bobda ne hukm bo‘lsa, anga ko‘ra qililsa.

Yana ulkim, shahr ehtisobi amrida yaxshi ehtimom qililsa andoqkim, sharobxona, baytul-lataf, qimorxona - bularg‘a o‘xshar nomashru’ umurni kulliy man‘ qililsa. Muhtasiblar haftada ikki qatla bozor ahlining narxlaridin vuquf topsalar.

Yana ulkim, sudurg‘a hukm bo‘lsakim, shahr masojidin ehtiyyot qilib, imom, muazzindin mahalla amlin surub, balkim xat olib, namozg‘a targ‘ib qilsalar, agar fisqu fasod ahli bo‘lub, alar amri ma’ruf qila olmasalar arz qilsalar.

Dag‘i har masjidning imomig‘a ta’yin qilsalarkim, mahalla amlin ug‘ul va ushog‘ig‘a maktab tutub o‘qutsalar.

Yana ulkim, bu dastur bilakim, shahrda ta’yin qilinur bo‘lukot ulug‘larni Xoja Faxriddin yanglig‘ borchha bu dastur bila muqarrar qililsakim, bo‘luklar kent-bakent bu nav‘ amal qilsalar.

Yana ulkim, sudurg‘a hukm bo‘lsakim, viloyat avqofidin xabardor bo‘lsalar, buzulg‘onin tuzatsalar, mutag‘alliba ilgida bo‘lsa chiqorib, hosilin masrifig‘a yetkursalar. Bu ishlarkim, sudurg‘a buyurulur Xoja Falong‘a dag‘i hukm bo‘lsakim, alar ishidin xabardor bo‘lub, alarg‘a madadgorlig‘da taqsim qilmasa.

Yana ulkim, Hofiz Muhammad Sanoiy g‘animatduri, shar‘ bobida aning qavlig‘a quvvat berilsakim, shar‘g‘a mujibi tarvij bo‘lsa. Bas masjidi jom‘eg‘a bormoq tark bo‘lmasa. Munda ko‘rulgan dastur bila masjidi jome‘da masoili shar‘iya mazkur bo‘lsa.

Yana ulkim, devon beklariga hukm qililsakim, bir kun devonda o‘lturub, musulmonlar ishin yasasalar. Bu kung‘i ishni tonglag‘a qo‘ymasalar.

Dag‘i yiborib devonlar ham raoyo ishin o‘zları qila olurchani qilib, qila olmasni arz qilib, hukm olsalar.

Yana ulkim, tavochi beklariga hukm bo‘lsakim, mol devonida muhr bosar beklar dasturi bila yasog‘lig‘ ishga mashg‘ulluq qilsalarkim, anda dag‘i ish favt bo‘lmasa.

Yana ulkim, shahr dorug‘asidin beklar bila Xoja Falon andoq sohib vuquf bo‘lsalarkim, juzvin ishdi qulliy imdod tilamasalar. Har mujrimdin jarimasig‘a ko‘ra jurmona olsalar.

Yana ulkim, bir munosib kishi ta’yin qililsakim, Mirzom davlat bila devonda o‘lturg‘onda har

ishkim, voqe' bo'lur qalamiy qilib, ro'znomada sabt qililsa, dag'i tarixin bitsakim, qachon ul ishni ehtiyoji bilmak bo'lsa, mazmuni va tarixi ma'lum bo'lsa.

Yana ulkim, beklarga va devonlarg'a basa parvonachi va muhrdor va munshig'a hukm bo'lsakim, musulmonlarning nishonin ortuq tama' birla kechga qo'ymasalar. Shar'iy va qavliy nishonni bir chorsu muhri bila

hukm bo'lg'on kun—o'q butkarib bersalar. Kulliyarak nishonlarni dag'i qilaolg'oncha hukmdin qo'rquq, botroq butkarsalar.

Yana ulkim, majlis qurub chog'ir icharg'a ko'p hirs ko'rsatilmasa, agar ahyonan bizzarur voqe' bo'lsa, navvobg'a muqarrar qililsakim, hukm bo'lmas 'on kishi mutlaqo murtakib bo'lmasa, yo majlisda tartibe mar'i

bo'lsa.

Yana ulkim, yuqoridin har nav' hukm yetsa agar qulliy va agar juzviy — vaqtida hukm yo'suni bila ishga faysa berilmay, hech ishga shuru' qililmasa, agar qilg'uluq ishtur, hukm yo'suni bila qililsa, agar muyassar bo'lmas bo'lsa ham javobin bot arzadosht qilib yuborilsa.

Yana ulkim, har turluk arzadoshtkim, yuqori bitilsa, «nasx va ta'liq» xati bila andoq xono bitilsakim, o'qurda o'qur kishiga tashvish yetmasa, «turkcha» xat bila xud aslo bitilmasaki, bu bobda qavle dag'i bordur. Har so'z kim, arzadosht qilinur ulcha imkonibor mashruh bitilsa, har ishning tarixin ne oy, ne kunda ekandur andoq bitilsakim, maqsudda hech ishtiboh qolmasa.

Yana ulkim, atrof va javonibdag'i elning arzadoshti kelsa, bot uzatur elni ko'p mavquf qilinmasa. Har qaysig'a o'z xurd holig'a ko'ra iltifot qilib, batahsis Mir Zaynulobiddin<sup>78</sup> jonibikim, rioyati bag'oyat vojibdur, mundag'i iltifot dasturi bila alar jonibin doyim rioyat qililsa.

Yana ulkim, ul viloyatlarning bir kulliy ishn dahonalarning zabtidur. Bu mahaldakim, ko'ngul tilamasdek amre voqi' emas, dahonalarda andoq mazbut kishilar qo'yub, andoq mustahkam va mazbut qilsakim, nauzu billohkim, agar amre hodis bo'lsaki, mujibi taraddudi xotir bo'lsa, dahonalar tarafidin xotir bikulliy jam' bo'lsa. Yana ulkim, ish-kuchga andoq mashg'ulluq qilib, g'avrig'a yetilsakim, arkoni davlatdin harqaysig'a ish buyurulsa mioddin o'tkara olmasalar, tag'ofil bila ichkuga mashg'ul bo'lub, eshikka kelib, arz qilmoqdin ehtiroy qilsalar.

Yana ulkim, otlanmoq, tushmoq, ov qushg'a mashg'ulluq ko'p bo'lmasa, ul bobda e'tiqol rioyat qililsa, to ul ishdin ish-kuch favt bo'lurg'a bois bo'lmasa.

Yana ulkim, Mirzo navkarlarikim, anda qulluqqa mashg'uldurlar, Mirzo navkarligi haysiyatidin inoyat va hurmat alar bobida kam bo'lmasa, lekin beqoidalig'e biridin zohir bo'lsa, bozxost va siyosatda ma'zur tutulmasa.

Yana ulkim, tavochi beklariga hukm bo'lsakim, yotish elin mazbut ta'yin qilib, yotish tavochisi har kun alarning yotishig'a kelgan—kelmaganin yaxshi tergasa, to yotish ishi favt bo'lmasa.

Yana ulkim, devoniylarg'a hukm bo'lsakim, atrofdin kelgan bozurgonlarning jonibin rioyat qilsalar. Ul viloyatda «tamg'o» lafzi mazkur bo'lmasa. Zakotni shar' va hukm yo'suni bila zakotchilar alardin mustaxlas qilsalar. Zakotchilar ishidin tavochi moh-bamoh, balki hafta-bahafta vuquf topib arzg'a yetkursalar. Juzviy jarima qilg'onne kulliy siyosat qililsa bok yo'qdur, to bu ovoza olam mamolikiga yoyilsa, tujjorning rujui ko'prak bo'lsa.

Yana ulkim, mundin ortuq juz'iyoti arz qililsa shoyad mutolaasi mujibi kaloli xotir bo'lg'ay. Ammo sa'y qililsakim, jam'i umurda tengri taolo yodidin g'ofil bo'lulmasa. Mirzoni dag'i ko'rulsa, to bu ikki ish mujibi saodati dinu dunyo bo'lsa.

Iltimos ulkim, bu arzadoshtni Mavlono Darvesh Muhammadga topshurulsa, har ikki—uch kunda bir qatla tilab mulohaza qililsa, dag'i hukm bo'lsa, agar muborak xotirdin po'shida bo'lib, tilamak unutilsa, ul o'zi tilamay dag'i har ikki—uch kunda kelturub, tobug'da arz qilsa, dag'i har xususdin harqaysi ishkim, arz qilg'on yo'sunluq surat bog'lasa, ani sharh bila inoyat qilib, bitib yiborilsakim, Mirzo arzig'a yetkurulsa.

**59**

Qulluq duodin so'ngra arzadosht ulkim, inoyatnomangiz bu bandag'a mujibi sarafrozlig' bo'ldi. Hamisha bandanavoz bo'lg'aysiz.

She'r:

Yetishti ruq'ang ovora qildi ko'nglumni,  
Ne ruq'a erdiyi, yuz pora qildi ko'nglumni.

Davlatingiz mustadom bo'lsun.

**58**

Ul qator tevakim, hijron kunida ashkim qatalari qatoridin namuna bo'lg'ay va ul oq uykim, firoq ayyomida sirishkim seloblari hubobidin nishona bo'laolg'ay - yetti. Ul biri rahmat maloyikidin ashraf va bu biri saodat sipehridin arfa' ko'rundi.

To falak buxtilari tuzgay qator,  
To to'lun oy oq uy etgay oshkor,

Sarboningg'a ul o'lsun borkash,  
Bu biri firoshingga xirgohvash.

**60**

Ko'ngluma kelmas xazoni bog' aro noranj xush  
Kim, xazoni hajr bo'ldi yuzim noranjvash,

Xazoniy bog' aro ul oy tanu chehramni ko'rgan chog',  
Degaykim, bir quruq shox uzra qolmish bir sorig' yafrog'.

Qulluq duodin so'ngra arzadosht ulkim, bandavozliq qilib yiborgan noma yetishti, durri obdordek maoniysi firoq o'tig'a suv urdi va la'li shahvordek alfozi ko'ngul jarohatig'a javhari ruh yetkurdi.

Noma ermas erdikim ta'vizi jon erdi manga,  
Hajr tig'i qatlidin xatti amon erdi manga.

O'zungiz dag'i unutmay gohi Mirzo tobug'ida sog'indursangiz.

Avvalg'i: Uluk tanimg'a jon bermakdur,  
Ikkinch'i: Hayoti jovidon bermakdur.

Ikki dunyo saodati muyassar bo'lg'ay.

**61**

Ruboiya:  
To hajr asiru dilfigor etti meni,

Dasht uzra quyundek oshkor etti meni,  
Devona misol beqaror etti meni,  
Sargashtalik ichra xoksor etti meni.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyatnomaekim, savodi zulmatidin hijron tig‘i qotillarig‘a zuloli zindagoniy tekurgay va safhasi bayozidin firoq tuni shohidlariga subhi hayoti jovidoni yketurgayki, bu zarrani mazmunidin quyoshga yetkurub erdingiz, falakdin o‘tkarib erdingiz - yetishti. Zaif tang‘a boisi quvvat va nahif jong‘a mujibi sihhat bo‘ldi.

Bu nav’ birla meni goh—goh yod aylang,  
Shikasta xotiru g‘amgin ko‘ngulni shod aylang.

Mundag‘i mulozimlar bila raoyo xushvaqturlar. Umid ulkim, kundin-kunga yaxshiroq bo‘lg‘aylar.

Abadiy davlat mustadom va sarmadiy saodat bardavom bo‘lsun.

## 62

Ismat haramida jilvagohing bo‘lsun,  
Iffat chamani harami johing bo‘lsun.  
Iqbol sipehri xoki rohing bo‘lsun,  
Tengri bori holatda panohing bo‘lsun.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, mulozamat muforaqatining shiddati sharhi qalam tahririg‘a kelmas va ubudiyat muhojaratining suubati bayoni raqam taqririg‘a sig‘mas.

Birovki vasl nasimi tarabfizodur anga,  
Chu qadrin anglamadi hajr o‘ti sazodur anga.

Umid ulkim, inoyat chamanidin vasl nasimi esib, firoq tufrog‘ining xas-xoshogin uchurg‘ay va hidoyat bulutidin qurbat yog‘ini yog‘ib, hijron o‘tining axtar va shu’lasin o‘churgay.

Bu faqir bu viloyatg‘a kelganda voqe’ bo‘lg‘on ishlar kayfiyatini yuqori arzadosht qilib, Falonni yuborildi. Ul bobda inoyatni kam qilmay, dorandani botrod uzoturg‘a mulozimlar hokimdurlar.

B a y t:  
To Zuhaldur qoshingda qul bo‘lsun.  
Yo quyoshdur boshingda evrulsun.

## 63

Xazoni hajr aro qoldim yiroq bahorimdin,  
Yururmen itdek ulub ayru shahriyormdin,  
Istaram Luqmon kibi kasb aylasam parrandalik,  
To yetib ul ostong‘a zohir etsam bandaliq.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, Luqmon keldi, inoyatlarkim, soyir qullarg‘a voqe’ bo‘lub erdi-etkurdil. Borchalarining boshi ko‘kka yetib, Mirzoning davlatlarining duosin bajo kelturdilar. Mundag‘i soyir holotni arzadosht qilib yiborgon uchun mukarrar bitilmadi.

Yom otlari bila yomxonalar ishi buzuqdur, ul bobda qullar tobug‘ida so‘z arz qilibidur. Arzadosht qilsalar umid uldurki, mustahsan tushgay, deb qulluq arzadosht bitildi.

## 64

Egnimni musharraf ayladi xil’atingiz,  
Jismimni muazzaz ayladi kisvatingiz,  
Ko‘nglumni xush etti ruq’ai shafqatingiz  
Kim, kundin-kunga ortsun davlatingiz.

Tashrifotkim, inoyat bo‘lub erdi hijron do‘zaxida azob tortadurg‘on uryon jismimg‘a visol bihishtidin bihisht hullalaridek yopildi va iyd shomi yatim atfol mungg‘a qolg‘ondek yalang paykarg‘a inoyat maxzanidin karomat debolari keldi.

Arz ulkim, mulozamat muforaqati chun varaqg‘a mujibi tutashmoq va qalamg‘a anduh shu’lasi boshdin oshmoq erdi — lojaram ul bobda shuru’ munosib ko‘rulmadi. Ikki dunyo davlati tuyassar bo‘lsun, omin.

## 65

Firoq aroki, yetar ko‘kka shu’lai ohim,  
Bu o‘tg‘a, oh, agar rahm qilmasa mohim.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyat nishoni bila bu qulungizni yod qilib erdingiz — mujibi sarafrozliq bo‘ldi. Tengri taolo davlatingizni orttursun va yoshingiz uzun bo‘lsun.

G‘amim yetkundi mingdin birga ruq’ang,  
Ki bergay tengri bir yoshing‘a ming yosh.

Bitib erdingizkim, Mirzo tobug‘ida kamina qulni yod qilib yig‘larmen. Yod qiluringizg‘a rozimen, yig‘laringizg‘a yo‘q.

Dema hajringdin manga odat bo‘lubdur yig‘lamoq,  
Shod bo‘lg‘ilkim, manga qismat bo‘lubdur yig‘lamoq.

Davlat bardavom va saodat mustadom bo‘lsun.

## 66

Ruq’aekim, safhasi bayozi majruh ko‘ngul jarohatiga kofuriy marham yetkurgay va nomaki, savodi nuqtasidin oqorg‘on ko‘zga mardumi biyno keturgaykim, bu hijron dardi bechorasin va firoq dashti ovorasin aning bila mukarram qilib erdingiz - yetti.

R u b o i ya:  
Mazmuni bila ko‘nglum o‘ti kam bo‘ldi,  
Alfozi bila zamir xurram bo‘ldi.  
Hijron so‘zi garchi mujibi g‘am bo‘ldi,  
Vasl ummidida shodlig‘ ham bo‘ldi.

Haq subhonahu va taolo ul zoti malakiy sifotni falak havodisidin masun va royi jahonoroni havodis kuduratidin ma'mun tutsun, omin.

**67**

Ham tutulmish jon ko'nguldin ham ko'ngul jondin manga,  
Men alarg'a hasm, alar ham dard hijrondin manga.

Qulluq duodin so'ngra arzdosht ulkim, inoyatnomakim, yiborib erdingiz keldi.

Yo'q—yo'qki olib qoshimg'a qo'ydum oni,  
Ko'zga surtub boshimg'a qo'ydum oni.

Agar bu firoq o'tig'a zor bo'lg'ong'a ul savod zulmatidin obi hayot zuloli kelmasa erdi, ul o'tg'a ne nima taskin bergay erdi va bu hijron shomig'a giriftorlig' bo'lg'onda ul subh bayozidin umid quyoshi tulu' qilmasa erdi, bu tiyralikni ne nima yoruta olg'ay erdi?

Hayotingiz zuloli abadg'acha zavol kasofatidin oriy bo'lsun, omin.

Qadim xam o'ldi ayru qoshingning hilolidin,  
Bag'rim chu boshg'a tushgali qadding niholidin.

**68**

Bog'din keldi nasimu, gul isin kelturmadi,  
Ne tikanlarkim, bu g'am ko'nglum aro sindurmadi.

Hulluq duodin so'ngra arzadosht ulkim, axtachi keldi, mulozimlarining muborak mizojarining sihhati xabari bitilmaydur erdi, sinuq ko'ngulga mujibi g'am va buzuq xotirg'a boisi alam bo'ldi. Umid ulkim, haq taolo ul sinuq bila bu buzuqdin ul g'am bila bu alamni daf' qilg'ay.

B a y t:  
Dahr bo'lg'uncha johingiz bo'lsun,  
Tengri doyim panohingiz bo'lsun.

B a y t:  
Yetishti qosidu yo'q anda yorning raqami,  
Buzuq ekinga bulut keldiyu yo'q erdi nami.

**69**

Baski hijron har zamon ko'nglum aro yuz g'am solur,  
Nogahon ko'rsa birovni shodmon hayron qolur.

Qulluq duodin so'ngra arzadosht ulkim, goh—goh iltifot qilib yiborilgan inoyatnomakim, mutolaasi furqat dardig'a dofe' va mushohadasi hijron alamig'a rofe' erdi, biror nima kamrak bo'lubdur.

B a y t:

Tole' agar budurki ko'rarmen meni g'arib,  
Andin emasdurur buvu yuz muncha ham ajib,

va lekin:

Lutf agar qilsang damodam bandamen,  
Dambadam qilsang jafo ham bandamen.

Ammo necha dag'i mundoq bo'lsa tabiat odat qilg'on lutf va inoyatni ko'z tutar ermish va ko'ngul o'rgangan shafqati benihoyatni sog'inur ermish.

Ismatu davlat borgohi gardunsoy va iffatu shavkat saropardasi sidrafarsoy bo'lsun.

B a y t:

Ko'zungni tengri doyim shah jamoli birla yorutsun,  
Yamon ko'zdin seni, sendin yamon ko'zni yiroq tutsun.

## 70

Ruboiya:

Ham charx bisoti arsai borgahing,  
Ham oy jirmi na'li samandi sipahing,  
Ham kun sipari qazo o'qidin panahing,  
Yo'q—yo'q, bu charxu oyu kun xoki rahing.

Qulluq duodin so'ngra arzadosht ulkim, inoyat nishonikim, tug'rosi uchun quyosh oltunini falak sadafida hal qilib erdi va mehri uchun mushtari yuziga humoyun alqob yozilib erdi — yetishti. Chun ul oliv misolni boshimg'a qo'ydum — martabada boshim quyoshdin o'tti va saodatda yuzum Mushtariy<sup>79</sup> yuziga yetti. Shohona xil'atlar mujibi ul bo'ldikim, qulluq kisvatin bir—biri ustiga kiygaymen va muqarrar fo'ta boisi ul bo'ldikim, qulluqqa belimni ikki yerda bog'laymen, va yaxshi ot bila olam aro yaxshi ot chiqorg'aymen va nafis raxt, bila sipehr atlasig'a bosh indurgaymen. Bu inoyatlar jozibaidurkim, inoyat rishtasi bila tortib kelturadur va bu shafqatlar kashishedurkim, muhabbat qullobi bila chekib yogurtadurkim, ne oliv dargoh mulozamati orzusidin qaror bordur va ne ul orzuni qilmoqqa ixtiyor. To sipehr bo'lg'ay, ul sipehroso dargoh falak qadrlar sajdagohi va to mehr bo'lg'ay, ul falakfarso borgoh xurshedvashlar panohi bo'lsun.

B a y t:

Mutei amru nahying ahli olam,  
Alar xayli aro men notavon ham.

## 71

Ruboiya:

Gulshang'a, nasimi subh, rozim yetkur,  
Ne roz, hadisi jongudozim yetkur.  
Gul boshig'a evrulub, o'pub sarv ayog'in,  
Ko'pdin—ko'p qulluqu niyozim yetkur.

Qulluq duodin so'ngra arzadosht ulkim, firoq zoviyasida ovoraliqning bayoni mujibi kudurat va boisi malolat bo'lg'ay deb andin shammae izhor qilmoq maslahat ko'rulmadi.

Yana arz ulkim, inoyatlarkim, har biri rashki nig‘orxonai Chin va g‘ayrati bihishti barin erdi, har biridin qororg‘on ko‘zga nur va buzulg‘on ko‘ngulga surur yetishti. Va ulcha saltanat durjining durri poki va xilofat burjining kavkabi tobnoki Sulton Muhammad Mirzo<sup>80</sup> tula umruhu va xulida davlatuhu bobida bitilib erdi, ul shodmonlig‘ sharhini qaysi til bila qalamning tahrir qilurg‘a salohiyati va qaysi raqamning bayon qilurg‘a qobiliyati bo‘lg‘ay. Ul durri garonmoyani tengri taolo Mirzo bila Begim<sup>81</sup> uchun poyanda tutsun, va ul axtari baland soyani haq subhonahu va taolo Mirzom bila xonim uchun tobanda asrasun.

Davlati abadiy va saodati sarmadiy poyanda va mustadom bo‘lsun, omin.

## 72

Mirzom tobug‘ida qulluq duo va niyozdin so‘ngra arzadosht ulkim:

Dahrg‘a bersun mudom maqdamidin zebu zayn,  
Shoh Muhammad Badi’ ibni Muzaffar Husayn.

Qit’ a:

Talab bahorida bog‘ingki gulbuz etti ayon,  
Bu gulbunung‘a dag‘i toza gullar ochilsun.

Umid bog‘ida tikding niholu gul berdi,  
Gulungni haq karami emdi borvar qilsun.

Bu saltanat avjining axtarikim, sharaf burjidin tulu’ etmis — partavidin dahr shabistoni ravshan bo‘lsun va bu xilofat bo‘stonining vardikim, saodat chamanidin jilva qilmish — tarovatidin olam vayronini gulshan etsun. Bu nahli balandpoya validayig‘a borvar va jaddayig‘a soyagustar va bu durri garonmoyadin obog‘a osoyish va ummahotg‘a oroyish.

R u b o i ya:

Ham shohg‘a durri toji torak bo‘lsun,  
Ham xalqg‘a zilli haq taborak bo‘lsun.  
Andokqi Xurosonda muborak bo‘ldi,  
Mashriqdin Mag‘ribg‘a muborak bo‘lsun.

B a y t:

Tirik bo‘lsam gar o‘zni bazmi vasling ichra solg‘aymen,  
Firoqing shiddatin dey olmasam xud, yig‘lay olg‘aymen.

## 73

Ne ruq‘a edi mendin o‘ksutgali g‘am,  
Yor ilgig‘a olib qalamu safhani ham,  
Safha lavhida qalamiy qildi raqam  
Kim, xattig‘a ofarin dedi lavhu qalam.

To shafaqning rangin safhasi quyosh muhrasidin jilo topqay - ul safha sun’ kotiblari kilkidin shoh madhi shoh baytlari bila zevar va ziynat topsun va to ul safha naqqoshlari sun’idin sobit va sayyora bila zarafshon bo‘lg‘ay — shahanshoh vasfi gavhari shohvorlari bila zevar ko‘rguzsun. Ne ikki bayt

edikim, ikki saroy hosilin fido qilsam, hech ish qilmamish bo‘lg‘aymen va ne nazm va nasr erdikim, jon va ko‘ngul javharlarin nisor etsam, qadrin bilmamish bo‘lg‘aymen, nazmining ra’nolarida yuz noz va nasrining zebolarida ming roz.

R u b o i ya:

Nasr andaki, anjom ila og‘oz erdi,  
Har lafzi aning moyai e’joz erdi,  
Har turfa xat anda roz pardoz erdi,  
Yo‘q ayb agar desam xati roz erdi.

B a y t:

To jahondur umru davlat poydor o‘lsun sanga,  
Saltanat taxti uza doim qaror o‘lsun sanga.

## 74

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyat nishonida hazrat haqoyiq panoh navvarollohu marqadahu va jaal al-jannata masvohu nur hodisa vafotlarin<sup>32</sup> so‘rub erdilar; haq subhonahu va taolo ul hazrat zoti malaksifotin ahli olam uchun ko‘p yillar boqiy va poyanda tutsun va davlatlarining xurshedini jovid muziy va tobanda asrasun. Muborak xotirg‘a ravshandurkim «Kulli man alayha fana» karimasi manzumi bila har kimgakim baqo jomidin nash'a yetishti fano xumorini tortardin guziri yo‘qtur va «Qulli sha’yin holikin illa vajhahu»<sup>83</sup> oyati mazmuni bila boqiyi mutlaq va hayyi barhaq vujudidin o‘zga jami’ ashyog‘a zahri halok jomin ichardin chora yo‘q va bu fano maqomi baqo dorussalomi yo‘lida bir manzildurki, «kun fid-dunya k-annaka g‘aribun av obiri sabilin»<sup>84</sup> andin xabar berur. Va ahlullohkim bu yo‘ldin va bu manzildin ogohdurlar o‘zlariga bu vodiy qat’ini oson va dori fanoning boru—yo‘qini yakson qilibturlar. Alar bu mahalli havodisdin «fi maq’adi sidqin inda maliki muqtadir»<sup>85</sup> g‘a rog‘ibroqdurlar. Ammo faqirlarkim alarning sharif zotlari barokotidin mahkuf va jonbaxsh takallumlari obi hayotidin mahrum qolurlar, har oyinakim mujibi so‘gi abadiy va boisi motami sarmadiydek bo‘lur. Ammo ul hazratdek so‘rg‘uvchi bo‘lsa, ko‘ngul g‘amidin ne g‘am va xotir alamidin ne alam.

To jomi baqog‘a mast bo‘lg‘ay Jomiy,<sup>86</sup>  
Kavsar mayidin bo‘lg‘ay aning oshomi,  
Shah jomi ichida bodai gulfomi,  
Bo‘lsun to‘lavu hamisha andin komi.

75

Aning tobug‘idakim:

Erur majmui sultonlarg‘a sulton  
Ki, emdi tengri oni aylasun xon,

bosh urub, tobuq aning janobidakim:

Xilofat avjida andoq quyosh emas mumkin,  
Poklikdin deb oni Muhammadi Ma’sum,<sup>89</sup>

aning ostonidakim:

Xusravi pok guhar sha'nida bo'ldi marqum,  
Poklikdin deb oni Muhammadi Ma'sum,<sup>89</sup>

aning hazratidakim:

Erur sultanat jismig'a nuri ayn,  
Muzaffar Husayn ibn Sulton Husayn.<sup>90</sup>

B a y t:

Ulki shah xizmatida mendin o'zin shod etgay,  
Iltimosim buki, gohi meni ham yod etgay.

Ya'ni Safiyabeka<sup>91</sup> xizmatlarida niyoz birla duo majlis ahlining javoblari:

Shah qoshida azizu sohib qadr,  
Nuri ayni zamona Sayd Badr,<sup>92</sup>

Ulki tug'mas atodin andoq o'g'ul,  
Yakjihat banda shahqa Miri Mo'g'ul,

Shohg'a jonin tilar etgay nisor,  
Shoh Husayn ulki erur jonsipor,

Shoh davlatidin qadakhashu guharposh  
Kim, derlar ani Muhammad Ko'kaltosh.<sup>93</sup>

Ulki bo'lg'ay karam qilib ma'bud,  
O'yakim oti oqibat Mahmud.<sup>94</sup>

Shoh bazmida qadah tutquchi,  
Mir Darvesh Muhamad suvchi.<sup>95</sup>

Ulkim erur surudi zoti kibi muloyim,  
Boshida yo'q sari mo'qulluqdin o'zga qoyim.

Ulki egrida tuzdur ohangi,  
Ya'ni Ustadzodai Changi<sup>96</sup>

Yana shah qullug'ida bemuhobo,  
Nadimu g'amgusoru banda bobo.<sup>97</sup>

Yana yoriki sofу beg'ashdur  
Ham vafokeshu ham jafokashdur.

Anga yo'q borcha fazllarda badal,  
Fazl ahlidin otidek Afzal.<sup>98</sup>

Borining xoksoru xoki poyi,  
G‘aribi benavo, ya’ni Navoiy.

Duo aytib qilur bu nav’ e’lom,  
Ki shah bazmida maydin olsangiz kom,

Gar itgan itlarin yod aylasa shah,  
Meni ham aylagaysiz yod gah—gah.

M a s n a v i ya:  
Zihi ruq’ang hayotimg‘a vasila,  
Ko’ngul zaxmig‘a marhamliq fatila,

Yetib chun ul fatila birla marham,  
Butub qonlig‘ ko’ngul zaxmin jigar ham.

Mazkur bo‘lg‘on ruq’akim, iltifotizingz‘a mush’ir erdi va mastur bo‘lg‘on nomakim, salomatlig‘ingizg‘a, muxbir-mahzun xotirg‘a andin forig‘bolliq va mag‘bun ko‘ngulga andin xushholliq yuzlandi.

Marfu’ ulkim, bitib erdingizkim, sen muqarrar qilg‘on ishlar ba’zi yoronlarning nomuvofiqlig‘idin surat tutardek emas. Olam ahlining muddaolarikim, muxolif bo‘lg‘ay bir maqsudqa muvofiq yasamoq dushvordur. Ammo tab‘i salim va aqli mustaqim shonidin budurkim, qila olg‘oncha o‘z holig‘a muhofiz va o‘z afolig‘a mulohiz bo‘lg‘aykim, aning jonibidin amre vuqu’ topmag‘ay va surate yuz ko‘rguzmagaykim, indalloh ma’huz va indannos ma’lum bo‘lg‘ay.

Siz qila olg‘oncha borchani Mirzo davlatig‘a munosib ishlarga soyi bo‘lung. Qilsalar davlatlari bo‘lg‘ay, qilmasalar sizning nekandishligingiz natijasi sizga yetishgusidur.

Qit’ a:  
Hamisha to anosir to‘rt ziddayn,  
Qilur tarkibi insonni muvofiq,

Qila ko‘r mahzi insoniyatingdin,  
Nekim az dod erur oni muvofiq.  
Tavfiq rafiq bo‘lsun, omin.

Mehri olamtob agar bo‘lsa jamoling ko‘zgusi,  
Kecha ham kunduz kibi tutg‘ay jahonni yog‘dusi.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyat qilib yiborg‘an sochiqkim, qizilidin firoqim tiyra kuniga yuz mehri raxshanda tole’ bo‘ldi va oqidin hijronim qaro tuniga ming anjumi daraxshanda lome’ va hulla kirdor xil’atkim, majnunluq motamidin chiqmoq nishonasi va vahy osor kitobkim, Maxzunluq g‘amidin qutulmoq nishoni erdi - yetishti. Ul ikki bila visol sarmoyasidin g‘ani bo‘ldum va bu ikki bila firoq besarmoyalig‘idin mustag‘ni. To mehr fulurisi ko‘rungach, anjum diramlari itgay va to subh hullasi oshkor bo‘lg‘ach, kecha palosining raqamlari ketgay.

Masnaviya:  
Qamar birla xurshiddin muttasil,,  
Sochilsun boshing uzra oqu qizil.

Kirib dahr tashrifi ehsoninga,  
Falak bosh qo‘yub xatti farmoninga.

## 78

Ruboiya:  
Ey toyiri davlat, aylasang azmi visol,  
Bu chok ko‘ngulni uz urubon changol,  
Bo‘lsun birisini aylasang to“ma halol,  
Qolg‘on birisini itlari ollig‘a sol.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulim, bu bandanikim ul dargoh qullug‘ining havosi yoru diyordin nufur va ul borgoh xizmatining muddaosi sabru qarordin mahjur qilib, bu viloyatda maskan va bu sarhadda ma’man tuttum, shak yo‘qkim, xulusi aqidam natijasidin erdi. Ham mavkibi humoyundinkim, gardi surmasidinadolat va nusrat qo‘zlar ravshan va asokiri mansurakim, tig‘lari suvidin fathu zafar biyoboni gulshandur — bu tarafdag‘i viloyatda qishloq qildilar.

Masnaviya:  
Qishingning qori siymi nob bo‘lsun,  
Sahobi qoqumu sinjob bo‘lsun.

May ul siym ustida yoquti mahlul,  
Tutub yoqut xat soqiyi maqbul.

Sen o‘l soqiyu ul may birla xushhol,  
Ochilg‘uncha bahori ayshu iqbol.

Bahor o‘ldi chu baxti komrondin,  
Ani haq aylasun emin xazondin.

Chun bu tavr davlat tuyassar bo‘ldi va bu nav’ saodat yuz ko‘rgo‘zdi — quyosh otashi burjg‘a tahvil qilg‘ondek ul saltamat sipehrining mehri jahontobi qishloqqa kirgan komronlig‘ning va arslon marg‘zorg‘a chiqqondek ul xilofat beshasining sheri g‘obbi toqqa yuzlangan shodmonlig‘ning tahniyat so‘rg‘ali va bularning zimnida bu bandayi hoqsor va choqari umidvor o‘zining soyir qullar javorig‘a kelganin va umum bandalar silkiga kirganin arz qilg‘ali mu’tamad anis va mu’taman jalis Xoja Hofiz G‘iyosiddin Muhammad Dehdorni ostonbo‘sluqqa yuborildi. Umidkim, iltifot ko‘ziga maqbul va inoyat nazarig‘a mashmul tushgay.

M a s n a v i ya:  
To jahon bo‘lsa dahr shohi bo‘l,  
Dahr elining jahonpanohi bo‘l.

Vasfing ichra ulus tili qosir,  
Zotingga tengri hoziru nozir.

## 79

Bo‘lmas ermish jilvagar sarvi xiromonim menin  
Kim, ayog‘ig‘a fido bu notavon jonim menin.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, nishon mazmunidin ma’lum bo‘ldikim, ma’hud maraz zohir bo‘lg‘ondur. Bu xabarni o‘qug‘och:

Aningdek bexabar bo‘ldum o‘zumdin  
Ki, zojil bo‘ldi nur ikki ko‘zumdin.

Ko‘p urdum dardu mehnat toshig‘a bosh  
Ki, sindi har tarafdin boshu ham tosh.

Va lekin chun bu mudhish xabar zaylida sihhat so‘zi bitilib erdi va ul za’f so‘ngg‘ida shifo kayfiyati yozilib erdi, g‘amgin ko‘ngulga mujibi taskin va alam o‘tlarig‘a boisi orom bo‘ldi.

Ruboiya:

Guldek badaning bo‘lub salomat, yo rab,  
Shamshodinga bo‘lsun istiqomat, yo rab.  
Bir umr haq aylasun karomat yo rab,  
Kim kirsun arosig‘a qiyomat, yo rab.

## 80

Ne bahor o‘lg‘ayki bir gul hajridin badhol men,  
O‘ylakim, bulbul xazon faslida gungu lol men.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyatnomakim bu faqirg‘a mujibi mubohat bo‘lub erdi — yetishti. Safhasi bayozidin firoqim shomig‘a subhi iqbol yuzlandi va hurufi savodidin hijronim kuniga shomi visol zohir bo‘ldi. Ammo Mirzoning muborak mizojlarig‘a za’f yuzlangan jihatdin va ul za’fqa sihhat bo‘lg‘on va kayfiyatdin hech nima izhor qililmaydur erdi va ul haysiyatdin shammai bitilmaydur erdi. Agarchi ko‘ngulga izardrob va xotirg‘a izardor yuzlandi va lekin chun bu ish marazning ozlig‘ig‘a dalolat qilur va sihhatning botlig‘idin xabar berur erdi, bu dag‘i mujibi nishot va boisi inbisot bo‘ldi.

Umr asosi muxallad va davlat binosi muabbad bo‘lsun!

## 81

Ruboiya:

Ul dargohdin keldi rasuli maqbul,  
Aflokdin andoqki nabi qildi nuzul.  
Farxundalig‘ig‘a boqsalar ahli uqul.  
Ham desa bo‘lur rasulu ham oli rasul.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyatnomakim, safhasi ranginlig‘idin jon gulshanida otashin gullar ochilg‘ondin va obdor lolalar sochilg‘ondin namunae va raqami ul gul va lola arosida

mushki nob sepilgan va sunbuli serob ekilganidin nishona ko‘rguzur erdi — yetishti. Gulning har yafrog‘i buzulg‘on ko‘nglum ravzasig‘a zevar berdi va lolasining har charog‘i qarorg‘on ko‘zum uyin munavvar qildi. Inoyatlarkim, qilib erdi — alarning muqobalasida ne shukr dey olg‘aymen va ne uzr biti olg‘aymen, to falakning lojuvardiy atlasi quyosh zarrishtasidin mutallo bo‘lg‘ay, qullaringiz egniga chorqab tikulsun va to mehr va anjumning oq va qizil diramlari sipehr atboqini muzayyan qilg‘ay, bandalaringiz boshig‘a sochiq sochilsun.

Noma yozg‘on chog‘da bo‘lmish erdi xunafshon ko‘zum,  
Oq varaq gulrang bo‘ldi toki sochti qon ko‘zum.

## 82

Ruboya:

Ermas andin nola bila oh g‘arib,  
G‘urbat istar gar ulus ogoh g‘arib,  
Tushsa kishi bir mulk aro nogoh g‘arib,  
Kim so‘rg‘ay ani shohi jahon — Shoh G‘arib.<sup>99</sup>

Qulluq arzadosht ulkim, g‘aribnavozlig‘ikim, bu aftodag‘a mujibi sarafrozlig‘ erdi, bandaparvarligi kim, bu shikastag‘a dilnavozlig‘ berdi, ya’ni:

Ul ruq’aki, sochib edi kofur uza anbar,  
Har nuktasi mushk erdiyu har nuqtasi gavhar —

etishdi. Nuktasi mushkini ko‘zum mardumi ustida qo‘ydum va lafzlari gavharini jon rishtasig‘a chektim, ko‘z uyi andin munavvar bo‘ldi va jon kulbasi mundin zebu zevar topti. Ul shohlar g‘aribin haq taolo o‘z panohida va ul g‘ariblar shohin tengri taolo murod jilvaghohida tutsun.

Masnaviya:

To jahondur sang‘a murod o‘lsun,  
Ishinga dam—badam kushod o‘lsun.

Ham kushoding murod sori yaqin,  
Ham muroding kushod birla qariyn.

## 83

To har necha ko‘k binafshazori kavokib noranjlari bila ziynat topar, ul hazratning sipehroso taxti kavkabmisol sabot va davom gulmihlari birla istihkom topsun va to sahar gulistoni quyosh sarig‘ guli bila zeb tutar, jahonoro masnadi xurshidtimsol baqoyi lokalom gird bolishti bila orosta va mustadom bo‘lsun.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, to ul humoyun mavkib g‘ubori ko‘zlardin yiroq tushubtur, ko‘zlar firoq zulmatidin tiyra bo‘lub, hamul g‘uborni to‘tiyoliqqa topmaydurlar.

Dedimki, surma qilay gardi rahnavardingni,  
Fig‘onki, topmadi ko‘z to‘tiyog‘a gardingni.

Va to ul ro‘zafzun davlatliq oston tufrog‘i yuzlardin ayrilibdur, yuz sori qo‘ymoq uchun yuz urub,

hamul tufrog‘ni kimiyloliqqa topsa bo‘lmaydur.

G‘ubori ostoning ne ajoyib kimiyo ermish  
Ki, ruxsorimg‘a oning hajri oltun rangini bermish

Chun bu firoq shiddatidin taqrir ojiz va bu ishtiyoy suubatidin tahrir qosirdur — xoma tili ravonlig‘idin ne foyda va til xomasi gavharfishonlig‘idin ne natija? Lojaram bechoralarg‘a duo bila qone’ bo‘lmog‘din o‘zga chora yo‘qtur va dardmandlarrg‘a xayol bila o‘zin tutmoqdin o‘zga davoe yo‘qtur.

To falaki davvor to‘qquz xoni annum diramlari bila muzayyandur, ul diramliq xonlar mulk fath qilg‘on jayshingda sochiq bo‘lsun va kavokibi sayyor durusti sekka xututidin muarrodrurur ul soda siymlar ochqon kishvar zarrobxonasida sekkai adlingg‘a so‘qulsun,

Ruboziya:

To tengri erur boqiyu olam foni, Tengri tutsun senga musallam oni, To bo‘lg‘ay ulusqa shohlig‘ imkoni, Sen shohqau shoh sanga arzoniy

## 84

Ruboziya:

Desamki, so‘ray seni, ne til birla so‘ray? Yo ulki ko‘ray seni, ne ko‘z birla ko‘ray? Itlar kibi maxlasingni istab yugurgay, Gohi qilibon duo sening sori huray.

Bovujudi bu hol so‘rmoqqa dag‘i ruxsat hosil ermas va ko‘rmakka dag‘i ijozat bermas. Ammo tiriklik g‘animatdurdur. Bu faqir ilgimdin kelgancha sa'y qildimkim, bu yerga yetmagay, chun taqdir bu voqeag‘a borg‘ondur — sud qilmadi va chun qazo bu hodisag‘a bois erkandur — natija bermadi. Emdu multamas ulkim, tengri taolo taqdirig‘a rizo berilgay va borcha taqsirni o‘z nafsidin ko‘rulgay. Dag‘i qilg‘on—qilmog‘on noshoyista ishdin tengri taolo hazratida tavba qililg‘ay va bo‘lg‘on—bo‘lmog‘on noboyistadin xudoyi taolo dargohida inobat voqe’ bo‘lg‘an. Shak yo‘qturkim, asru bot maqsud vosil va murod hosil bo‘lg‘ay, albatta.

O‘zungizni taskin berib, g‘ussa tug‘yonida tengri yodi bila ishtig‘ol ko‘rguzgaysizkim, oz fursatda azim yorug‘lar yetishgay, deb gustohlik qilildi, vassalom,

Davron bazmida kim bir murod jomi ichtikim, so‘ngra yuz nomurodlig‘ xunobi sumurmadi va sipehr anjumanida kim bir izzat masnadig‘a mutamakkin bo‘ldikim, oqibat yuz mazallat tufrog‘iga o‘iturmadi; abnoyi zamong‘a kim bir vafo guli ochtikim, alardin yuz jafo tikani bag‘rig‘a sonchilmadi; ahibboni davrong‘a kim bir muhabbat eshigi ochtikim, alardin yuziga yuz adovat abvobi ochilmadi. Dahr bozorining naqdi ro‘yanduddur va ayyom jashnining shahdi zahrolud. Bu jihatdin ko‘zlarin basirat sham‘i yorutqonlar dun‘yo sori ko‘z solmaydurlar va ko‘ngullarin hidoyat ziloli oritg‘onlar olam mehrini zarrai ko‘ngulga olmaydurlar.

Ammo agarchi sipehr zolining makri beshumordur va lekin hunari dag‘i bordurkim, nechukkim, izzu ulosining madori yo‘qtur, bandu bolasining ham e’tibori yo‘qtur.

Andoqkim, johu jalolig‘a vafo bo‘lmas, mehnat va malolig‘a dag‘i baqo bo‘lmas. Baso bandkim, aning zimnida ko‘p kushodlar va baso nomurodlig‘kim, aning so‘ngida o‘kush murodlar bo‘lg‘ay. Ya’s qaro shomidin so‘ngra subhi ummid tulu’ etar va ba’s zulmoti zimnida hayoti jovid navidi yetar.

Barcha holatda shukr virdi zabon va barcha malolatda sabr hirzi jon bo'lmoq avlodurur. Va bu tariyqni alardin yaxshiroq kim bo'lg'ay — bilg'ay. Va rioyatin ham alardin ortuqkim qilg'ay — qila olg'ay. Tengri taolog'a ibodat va podshog'a duoni mudovamat qilmoq vojibdurur.

Umid ulkim, borchha mehnatlar davlatqa va borchha parishonlig'lar jam'iyatqa bot mubaddal bo'lg'ay. Omin, yo rabbil olamin.

## 85

Qulluq arzadosht ulkim, Abushahma Bahodirg'a<sup>100</sup> farzandg'inasi voqiasi yuzlangandin so'ngra shahrg'a kelib, yuqori o'tti. Ul hodisa jihatidin hazinlig'i beg'oyat va g'amginlig'i benihoyat erdi. Ammo chun podshohi islomning shafqat bila chorasoziq'i borchha g'amzadalar dardig'a davodur va marhamat bila bandanavozligi borchha motamzadalar ranjig'a shifodur, umid uldurkim, aning dag'i bu jarohatig'a marhame yetib, andin ko'ngliga kome yetgay va bu zaxmig'a iloje yetishib, andin jonig'a orome yuzlangay.

Ey sening lutfung ila shod bo'lib g'amzadalar,  
Jon topib, nafhai xulqung bila motamzadalar.

Haq subhonahu va taolo podshohi marhamatgustar va sultonni bandaparvarning soyai davlatin va zilli shafqatin borchha mahzun bandalar va mag'bun sarafkandalar boshiga poyanda va mustadom tutsun.

## 86

R u b o i ya:

Ey toyiri baxt, qilsang ul yon parvoz,  
Yor olig'a mendin qilib izhori niyoz,  
Qullug'din so'ng so'zni bu nav' et og'oz,  
K-ey mahzi saxo podshohi bandanavoz.

Ruboiya:

Bandangni firoq sensizin kuydurdi,  
Yuz qatl qilichi boshig'a kelturdi.  
A'zosig'a ming hajr toshi yog'durdi,  
Kuydirdiyu ko'kka kulinisovurdi.

Ruboiya:

Tirguzmak agar istasang ikromingdin,  
Bir jur'a havola aylagil jomingdin,  
Masrur et mahzunni in'omingdin,  
To bahravar o'lsun karami omingdin.

Chun ul viloyatdag'i bandag'a taalluq mahsuldin harne hosil bo'lub kelsakim, borchha maoshqa madad berur, yo mubarrot buq'alari takmilig'a immod yetkurur — faqir ul hazratning in'omig'a hisob qilibmen.

Bu uchurdakim, Mavlono Xudoyberdini bu ish uchun qulluqqa yuborilib erdi, doyim qiladurg'on inoyat va sa'yni bir qatla sog'indurmoq vojib erdi. Ul sababdin bu jur'at va gustohliq qilildi.

Ruboiya:

To charxdurur amringa chokar bo‘lsun,  
To dahr durur sanga musaxxar bo‘lsun,  
Lutfung ham ulusqa fayzgustar bo‘lsun,  
Zoting ham o‘ziga bandaparvar bo‘lsun.

**87**

Ruboiya:

Yetti manga davlat raqami tarxondin  
Kim, kelturub erdi bandag‘a sultondin,  
Ham ko‘nglum umidvor bo‘ldi jondin,  
Ham jong‘a visol o‘ldi tama’ jonondin,

Bu iqbol nishonikim, bandag‘a yetishti — maxmurg‘a yetgan bodai tahuro misolg‘amu o‘xshatayin yo biyobondag‘i tashnalab mahrurg‘a yo‘luqqan jomi zulolg‘amu nisbat qilayin? Tilga mazkur bo‘lg‘on va qalamg‘a mastur qililg‘on budurkim, bayt:

Ilohi jomi vasli dulfuro‘zi,  
Meni labtashnag‘a bot ayla ro‘zi.

**88**

Dinu davlat arbobi va mulku millat ashobi hazratlarida faqiri haqirning arzadoshti ulkim bu fursatda suluk bodi yasining rahnnavardi va faqru fano zoviyasining sohib dardi, shavq va muhabbat shevasining komili, ya’ni ruq’ai niyozi va ixlos homiliki, muddate bu faqirlar badanig‘a Masihoso maqoloti bila jon kiyurdi va ruhafzo muloqoti bila hayoti jovidon yetkurdii, ul saodatmand kishvar va diyor va ul ravza monand bilod va hisor sori mutavajjih bo‘ldi.

Iltimos ulkim, haryon Xizrovor qadam ursa xujasta maqdamini boisi nishot va surur bilgaylar va har qayda Dovudosor dam ursa, damini mujibi inbisot va huzur tasavvur qilg‘aylar.

Garchi bizga bo‘ldi ro‘zi hajridin dardu malol,  
Mug‘tanam tutsun visolin topsa har farxunda fol,

Haq subhonahu va taolo darveshdo‘st podshohlar soyai iqbolin darveshlar boshig‘a mustadom va g‘aribnavoz ahli johlar sarmoyai johu jalolin g‘ariblar sarvaqtig‘a bardavom tutsun, omin.

**89**

Ruboiya:

Ey nafs havosig‘a giriftor o‘lg‘on,  
Shayton ishiga ishing namudor o‘lg‘on,  
Ham zuhd ila izzatqa sazovor o‘lg‘on,  
Ham fisq ila olam eliga xor o‘lg‘on.

Ey sargashtai xudroy, va ey baxti bargashtai besarupoy, ul vaqtdin berikim, mazallat tufrog‘idin ro‘zg‘oring chehrasin supurdum va mehnat dashti sargardonlig‘idin parishon xilqatingni yig‘ishturdum. Agarchi kichik erding, ammo andoq ermaksi, xotiringdin mahv bo‘lmish bo‘lg‘ay va

agarchi tifl erding, andoq ermaksi, zamiringdin unutulmish bo‘lg‘ay!

Hayotimni sening tarbiyattinga mash‘uf va avqotimni sening muhofazatingg‘a masruf ildim va farzandlig‘ing raqamini xotirimg‘a muharrar va otalig‘ mehru shafqatin, holingga‘ muqarrar ettim. Oyu yilda bir kun, balki kechalik, kunduzlikta bir soat ahvolingdin g‘ofil bo‘lmadim va rioyating qoidasin el ko‘rgudek tuzdum, balki ko‘rganlar rashk yuzidin hasad yegudek qo‘rguzdum. Zohiringni ahli zohir fununu fazoyili bila orosta va botiningni ahli botin Haqoyiqu maorifi bila piyrosta bo‘lurg‘a sa‘y qildim, to ro‘zg‘oring pokiza oyinu da‘b va shioring tavoze‘ va tamkin bo‘lub, ahvolu af‘oling taqvo va toat bila ma‘mur va ishtig‘olu hisoling odamiyilg‘ va insoniyat bila mashhur bo‘ldi va podshohi islomning firdavs oyin bazmida iltifot va ehsong‘a abnoni ro‘zgordin mumtoz va muloyamat va in‘omg‘a ahli zamondin sarafroz bo‘ldung. Shohzodalar majlisida arjumandu ozodalar suhbatida sarbaland va o‘z fanining ahli mute‘ va farmonbardor, balki xodimu shogirkirdor va bu faqirning farzandi arjumand ko‘rmogim va rioyatingni avlod monand, balki akbod payvand mar‘iy tutmog‘im shoh va gado ollida vozih va yaxshi—yomon qoshinda loyiq bo‘ldi.

Ammo do‘stilarim nasihat yuzidin ish‘or qilurlar erdikim, har muhra tojg‘a tikilgan bila firuza bo‘lmaydur va miynoyi shisha bo‘yung‘a osqon bila zumurrad o‘rnin tutmaydur va dushmanlarim ta’n va kinoyat bila qulog‘img‘a urarlar erdikim, xayning nopol suvin sa‘y bila obi—hayvon qilurman degan va kecha ishnar qurtning tiyra paykarin jahd bila xurshidi raxshon yasarmen deb, harza xayol qilg‘on basoki xijolat barmog‘in tishlagay va pushaymonlig‘ ovuchin bir—biriga qoqqay va bu faqiri g‘ofil do‘s st so‘zi bilan mutanabbih va dushman ta’ni bila mutaqoid bo‘lmay, sening tarbiyattingg‘a kundin-kunga ustuvorroq va rioyatingqa lahzadin—lahza beqarorroq erdim, to ishing ul yerga yettikim, Fi—sog‘urs hakim<sup>101</sup> zamonidinkim, advor ilmining vozii dur, Arastu<sup>102</sup> zamonig‘achakim, muallimi avval debturlar va Abu Nasr Forobiy<sup>103</sup> chog‘indinkim, muallimi soniy debturlar, Xoja Abdulqodir<sup>104</sup> asrig‘acha ma‘lum emaskim, bu fanda hech podshoh zamonida bu fan ahlidin hech kimga muncha tarbiyat va nash‘u namo voqe‘ bo‘lmish bo‘lg‘aykim, senga voqe‘ bo‘ldi. Ammo chun ishlar o‘z yerida emas ekandur, boqib turg‘uncha ozding. Ro‘zgoring salohi fasodqa yondi va af‘oling pokizaligi nopollikka aylandi. Nasihatni quloqqa solmading va pand bila malomatni ko‘ngulga olmading. Holingdin xabardor qilg‘on soyi bexabarroq va fisqu fujuringni man‘ qilg‘on soyi batarroq bo‘ldung. Podshohi islomning muncha yilg‘i tarbiyatini va bu faqirning muncha vaqtlig‘ sa‘y va emgagini va uzun yillar tortg‘on riyoziatini nafsi shum avosi va fe‘li mazmum muqtazosi bila zoyi‘ qilding va do‘srlarning ham muloyamat bila pandu nasihatini qulog‘ingga olmading va dushmanlarning ham shiddat va shan‘atin sariq vakinoyat bila istimo‘ qilmading va ulug‘larning ham vaid va tahdidin eskarmading va haq subhonahu va taolo qoshida dag‘i tavbalar qilib, ahdlar bog‘lab, ontlar ochib, borchani buzub, tengri taolodin qo‘rqmading.

Holo ne so‘zishta, ne ahdingg‘a, ne qavlungg‘a, ne ontingg‘a e‘timod qolibtur. Nevchunki, har qaysini borlar ma‘lum qililibtur va sinalibdur.

Muncha beqoidalig‘laring asnosida borchanning talofisi va tadoruki uchun ot yuborursem va mundin g‘ofilki, otingni to‘rt daftardin chiqorilibtur: bir—mulozimlar daftarida farzandlik laqabidin, balki oshnoliq ismidin; ikkinchi — «Majolisun—nafois»<sup>105</sup> daftarida fazl va tab‘ ahli chargasidin; uchunchi — shaharning yaxshi—yomon, ulug‘—kichigi qoshida erlik va insoniyat va musulmonlig‘ va hamiyat daftardin; to‘r—tunchi — podshohi islam hazratidakim, muborak tillariga yomon duong o‘tubtur. Hayot ahli daftardin sen muncha turfalig‘ing bilakim, dinu isloming uyin buzubsen va mundoq sharifu aziz xotirlarni o‘zungdin ozurda qilmoq bila, aytsa bo‘lurkim, Ka‘bani yiqibsen, balki hayot va tiriklik binosin vayron qilibsen.

G‘aflat va nodonlig‘ing ul martabadakim, buq‘ai xayr yasamoqqa o‘zungg‘a bozi berib, bitib yiborursemkim, seni yaxshi yigit xayol qilg‘aylar va odamiy kishi sog‘ing‘oylar. Bu tamannodin yuz hayhot va bu muddaodin yuz ming uyot! Sening muncha qilg‘onlaring muqobalasida men dag‘i sazo va jazo yetkura olur erdim, ammo ikki jihatdin yetkurmadi. Biri bukim, muncha pandu nasihat va tashni‘ va malomat va ont va aymon bila birovkim, mutanabbih bo‘lmamish bo‘lsa, bir necha izo va

azob bila ham bo‘Imag‘usidur, balki ul izo va azob yetkururda bu faqirning za’flig‘ mizojig‘a taraddud va tashvish ko‘prak yetgusidur va sanga xud tafovut qilmog‘usidur. Yana biri bukim, sen har beqoidalig‘kim qilibsen anga ko‘ra sazo va jazo topibsenkim, ul podshohi islom humoyun xotirining g‘ubori va murabbiy va vali ne’matning va soyir azizlarning ko‘ngullarining ozoridurkim, har biri filhaqiqat yuz o‘lumdin ortuqtur, ammo bu ma’nidin sen g‘ofilsen.

Ruboya:

Ey g‘ofilu g‘aflatqa vujuding mag‘lub,  
Majmui yomonlig‘ nazaringda marg‘ub,  
Bording dag‘i kelmading bu erdi matlub.  
Yolg‘onlaring ichra yo‘q edi mundin xub.

## 90

Mavlono Qosimg‘a<sup>106</sup> so‘z ulkim, inson joyizul — xatodur va lekin nadomat ashkikim, iborat tavba suvidin bo‘lg‘ay, gunoh chirkin oritur. O‘zungni bu nav’ oriq qilsang, umid uldurkim, haq taolo kechurgay, ibodatqa ne yetgay.

Darvesh Alibek<sup>107</sup> xizmati bila bizning xizmatimiz orasida tafovut yo‘qtur va lekin o‘zungni yaxshi yasasangki, debturlar:

Joma chirkin makun agar kardi,  
Pok pokash bishuy agar mardi.

## 91 108

Qulluq duodin so‘ngra arz ulkim, inoyatnomakim, bu bandani aning bila yod qililib erdi, chun sihhatingizg‘a mush‘ir va salomatlig‘ingizg‘a muxbir erdi, oshufta xotirg‘a mujibi kom va muztarib ko‘ngulg‘a boisi orom bo‘ldi. To‘rt g‘azalkim to‘rt javohiri insonidan xabar berur erdi, balki to‘rt kutubi osmonidin asar yegkurur erdi — yetishti. Alfozidin xo‘blar chinidek sahfag‘a oroyish va maoniysidin alarning vaslidek ko‘ngulga osoiyish yuzlandi. Tarokibi latofatomiz va latofati nishotangiz ta‘rifin qila olmag‘andin duo qilildi va sharhin aytalayta olmag‘andin sano aytildi. Umid ulkim, to jahon bo‘lg‘ay duo va sanongiz tillarga joriy bo‘lsun va ul duo va sano o‘qlari ijobat xadafiga koriy, omin, yo rabbil olamin.

## 92

Zotingg‘a jahon mulki musaxxar bo‘lsun,  
Amringg‘a ulus hukmi tuyassar bo‘lsun,  
Zoting qayon etsa mayl surur bo‘lsun,  
A‘do uza mansuru muzaffar bo‘lsun.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, Mirzoning muborak mizojarlar ayni salomat va mahzi istiqomatdadur. Alhamdulillah valminna bu uchurda hukm yo‘suni bila forsiy parishon abyot va parokanda ash’orni yig‘ib, devon yo‘sunluq jild qilinib erdi, Yusuf Alidin tobug‘da yuborildi. Umid ulki, qabul davlatig‘a muzayyan va pisand saodatig‘a musharraf va mustahsan bo‘lg‘ay. Doimg‘i dastur bila biror inoyatnama bilan sarafroz qilurg‘a mulozimlar hokimdururlar.

To jahon bo‘lg‘ay, jahon ahlig‘a sen shoh o‘lg‘osen,

Shart bukim, qullarning holidin ogoh bo‘lg‘osen.

**93**

Har bag‘ir qoniki, hajringda ko‘zumga aylanur,  
Ko‘z ani to‘kkach bag‘ir yanglig‘ hamul dam bog‘lanur.

Arzadosht homili bilmaslik va g‘aflat jihatidin mulozamatdan qolg‘on ermish. Emdikim, o‘z holig‘a kelubdur, bilibdurkim, ne hato qilg‘on ermish. O‘z gunohig‘a mo‘tarif bo‘lib, Mirzo karamig‘a e’timod qilib, mutavajjih bo‘ldi. Umidi uldurkim, burung‘i dastur bila qullug‘in qabul qililg‘ay va soyir qullar chargasig‘a kirkay.

Bu matla’ voqe’ bo‘lub erdi, ul mahrum qolg‘onining islohog‘a bordi. Bu mahjur qul ham aytqonimg‘a isloh umid tutarmen, insholloh ikkalasi muyassar bo‘lg‘ay, deb qulluq arzadosht bitildi, vassalom.

**94**

To dahr uza gunbazi davvor o‘lg‘ay,  
Ul gunbaz uza sobitu sayyor o‘lg‘ay,  
To sobitu sayyordin osor o‘lg‘ay,  
Tengri bori holingda nigahdor o‘lg‘ay.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, zamonayi dunning bedodu jafosi va sipehri buqalamunning zulmu iyzosi shohdin gadog‘acha va fosiqdin porsog‘acha yetmagan kishi mavjud emas va zamon ahlidin muruvvat va vafo ma‘hud emas.

Ammo haq subhonahu va taolo odil hokim va qodir mustaqimdur, umid andoqdurkim hech mazlum to dodig‘a yetmag‘ay ul adl eshidigidin mahrum ketmagay. Mundin ortuq tilga haddi kalom va qalamg‘a yoroyi e’lom yo‘qturur, vassalom.

**95**

Olam elig‘a shafqat etib ahli hidо,  
Irshod yuzidin ettilar buyla nido  
Kim, har kishiga ne’mate berdi xudo  
Shukrini aning vojib erur qilmoq ado.

Haq subhonahu va taolo ancha ne’mat bandasig‘a karomat qilibturkim, aning hisobini qilmoqdin nutq lol va qalam shikasta maqoldur. Ixtisor yuzidin va ijmol tariqidin bir nechani bayon qilmoq yiroq emastur. Ul jumladin biri bandani yo‘qdin bor qilmoqdur va o‘z sanoe‘in anda namudor etmak. Yana jaholat zulmatidin xirad anvorig‘a tegurmak va tufuliyat g‘aflatidin shuur va vuquf davlatin nasib etmak. Yana xavos va idrok va ta’bi salimu farsi mustaqim bermak va islom sharafi bila bahramand din saodati bila sarbaland qilmoq. Bu ne’matlар shukri barchag‘a o‘z xurdi holig‘a ko‘ra vojib va lozimdur. Ammo hukmroni sohibjohlarg‘a va nofizi farmon podshohlarg‘a barchadin ko‘prak, nevchunkim bovujudi bu mazkur bo‘lg‘on ne’matlар haq subhonahu va taolo alarni barcha bandalaridin joh va jalol bila mumtoz va azamatu iqbol bila sarafroz qilibtur.

Va bu ne’matlар a shukr adosi bu emish: kishi shukr lafzini tilga uyurg‘ay, balki uldurkim, amr va nahyini bajo keturgay. Va bu mazkur bo‘lg‘on ne’matlardin kulliyraki islom sharafidurki, haq subhonahu va taolo anda bandag‘a necha amr taklif qilibdur. Biri o‘zining vahdoniyatig‘a va

payg‘ambarining risolatig‘a iqror qilmoqdur. Yana biri kunda besh vaqt nomozdur. Yana biri yillarda bir oy ro‘za tutmoqdur. Yana biri mol nisob haddig‘a yetsa zakottur. Yana biri istitoat, ham to‘rtida ojiz bandasig‘a musofaha qilibturkim, shahodat kalimasidin agar banda yuz yashab umrida bir qatla mazkur qilmish bo‘lsa kofiydur. Va ro‘zani safarda va za’f ayyomida yeb, evaz tutmoqnn tajviz qilibdur. Va zakotqa nisob haddini shart qilibdur va hajqa istitoat va amni tariqni mashrux etibdur.

Ammo nomozda mubolag‘a voqe‘ bo‘lubturkim, uzr va bahona bila banda bo‘ynidin ado bo‘lmash to bajo keturmas. Za’f va xastaliqda, iflos va shikastliqda,sovug‘ va yog‘inda, dushmandin qochqonda va daryo va biyobonda sargardon bo‘lg‘onda va har sa’b holda ado qilmog‘uncha chora yo‘qtur. Za’fda o‘lturub va ko‘prak za’fda yotib va naz’ holatida ishorat bila muqarrar bo‘lubtur, suv bo‘lmog‘onida tayammum bila, ammo maof bo‘lmaydur.

Bu davlatxoh qul bu qatlakim, qulluqqa musharraf bo‘ldum, andoq ma’lum bo‘ldikim, ul hazrat o‘zlarin bu taklifdin maof tutubturlar va qavm va xayllari ham dog‘i podshohlarig‘a mutobaat qilib o‘zlarin maof tutubturlar, jamoat va tengri taolo amrin bajo kelturmak ko‘zga ko‘runmadi. Agarchi tengrining bu nav’ mubolag‘aliq amridin alar o‘zlarin maof tutubturlar, bu banda davlathohliq so‘zin aytdurdin o‘zumni maof tutta olmon. Tengri uchun yo tengrining buyrug‘ini bajo kelturung, yo bir oyat, yo hadis, yo mashoyix naqli, yo rivoyate, yo masala topilg‘on bo‘lsakim, bu amrni tark qilmoq kerak, topilg‘on bo‘lsa bu bandag‘a irlsol qilingizkim, za’fim g‘olibdur va bu taklif bag‘oyat kulliy.

Yana ulkim, salotingg‘a va’da budurkim, haq subhonahu va taolo addin so‘rg‘usidur. Bas, podshohg‘a vojibdur barcha xaloyiqdin voqif bo‘lmog‘kim, alardin bir faqirg‘a zulm o‘tmagaykim, tengri taolo podshohdin so‘rg‘usidur va bobda hadisi sahib bor. Banda qulluq yonib, Panjdehqan kelganda bir kishi bu faqirg‘a dodhohliq qildikim, Mirzo navkarları usruk oni o‘qlab erdilar va xotunin chopib erdilar. Faqir alarg‘a taskin berib juziy xarjiy berib o‘ttum. Chog‘ir ichmak avom orasida shoe’ bo‘lsa, bu nav’ ish ajab ermas.

Qullarining murodi budurkim, sizning humoyun maqdamingiz har qayon yetsa va muzaffar livo sipohingiz har qayondin o‘tsa xayr duosidin o‘zga nima hosil bo‘lmag‘ay.

Xolo bu ikki zaxm yegan faqirlar Panjdeh rabotining yonidadurlar, ammo bu ishni qilg‘on kishi kim erkani ma’lum emas. Qaro ulusqa zabit va siyosat vojibdur va chog‘irning man‘i dog‘i lozim va doddxohlarni tilab, yaxshi so‘rib, arzlarig‘a yetushmak farz, vassalom.

## 96

Mirzo tilidin:

Farzandi shahid marhum Bobobek<sup>109</sup> firoqida

Ey, falak oromi ruhu munisi jonim qani?  
Subhi ayshim mehri—yu sham‘i shabistonim qani?

Ey, charxi jafokor ne sitamlar qilding,  
Jonimni nishonai alamlar qilding,  
Muhlik nafasim o‘tin alamlar qilding,  
Uzrungni qo‘lay chu karamlar qilding.

Bu g‘amfarsuda tanim tufrog‘in sovururg‘a oh yeli bas erdi, bir sarvni yiqquncha sarsari hojat ermas erdi va bu xunoluda ko‘zum charog‘in tiyra qilurg‘a qaro baxtim savodi yetar erdi, bir quyoshni qaro yerga kiyurmak kerakmas erdi., Jonimni oluring yetmasmu erdikim, ko‘zum qonin oquzurung bas ermasmu erdikim, jonimg‘a ajal tig‘i surarg‘a bedod ko‘zgudding, Menga qilg‘on zulmni hech podshohg‘a, yo‘qkim hech gadog‘a ravo ko‘rmading va menga urg‘on bedod tig‘in hech komgorg‘a,

yo‘qkim hech benavog‘a urmading. Boshimg‘a kelgan turluk—turluk g‘amu alamg‘amu o‘kuray, jonimg‘a yuzlang‘an biri—birig‘a o‘xshamas motamg‘amu ko‘ksumga tosh uray! O‘z anduhlarimni bitsam qaysi birin nomada mastur etay va o‘z mehnatlarimg‘a yig‘lasam qay birin navhada mazkur etay. Tanimdek dardu baloxo‘ri poymoli yo‘q erkandur, umid ulkim bo‘lmaq‘ay ham, g‘amu ko‘nglumdek—g‘amu ibtilo anduhining oshuftaholi mavjud emas erkandur, yo rabki vujud tutmag‘ay ham, magar haq subhonhu va taolo mahzi lutfu inoyati karamidin g‘oyatsiz dardima davo va nihoyatsiz marazu za‘fima shifo karomat qilg‘ay. Va hidoyat sham’in andoq yorutqaykim, aning partavidin tiyra ko‘zum ochilg‘ay va o‘z jonbidin andoq jazbu oshnolig‘ yetkurg‘aykim o‘zidin o‘zga hech nimani asari zamirimda qolmag‘ay va o‘z dardu shavqin ko‘nglumga andoq mustavli qilg‘aykim, aning yodidin o‘zga hech nima ko‘nglum harimida yo‘l topmog‘ay.

Tolib meni-yu o‘zini matlub etgay,  
Rog‘ib meni-yu o‘zini marg‘ub etgay,  
Oshiq meni—yu o‘zini ma’shuq etgay,  
Ishqini g‘olib, ko‘ngulni marg‘ub etgay.

Omin, yo rabbil olamin!

## 97

Banda tilidan:

Yo rab, ul davlat quyoshing zavoli bo‘lmasun,  
Nuridin kam bo‘lmog‘ining ehtimoli bo‘lmasun.

Qulluq arzadosht ulkim, jon asosig‘a baqo yo‘qtur va umr binosig‘a vafo yo‘qtur. Zamona gulshanida qaysi g‘uncha nishot bila kuldikim, hodisa tundbodidin to‘kulmadi va dahr gulistonida qaysi gul inbisot bila ochildikim, voqeа sarsaridin sochilmadi. Umr chamanining guli xorsiz ochilmaydur va hayot anjumanining muli xumorsiz topilmaydur. Baqo sarchashmasidin seroblig‘ qayda mumkin, chun «kulli man alayha fana» sog‘ari ilan bermas va tiriklik sharbatidin shodkomlig‘ ne mutasavvir, chun «kulli nafsun zoysiqt ul—mavti» qadahidin guzar ermas.

Har sham’i tirozki, bir shabistonni munavvar qildi, bir ofat yeli ani mukaddar qildi va har sarvinozkim sarafrozlig‘ havosi tutti, bir halokat samumi oni tubidan qurutti. Ammo gul to‘kulsa, umid ulkim gulistoni serob poyanda va bardavom bo‘lg‘ay va agar sham’ o‘chsa ma’mul uldurkim, xurshed olamtob tobanda va mustadom bo‘lg‘ay, omin, yo rabbil olamin!

## 98

Qulluq arzadosht ulkim

So‘lsa bir gul gulshani iqbol bo‘lsun mustadom,  
Botsa bir kavkab saodat charxi bo‘lsun bardavom.

Farzand marhum Bobobekki,

Haq taolodin o‘lsun qabri purnur,  
Ravoni jannat ul—ma’voda masrur,

Azosi bobida durbor qalamdin guharnigor raqamkim, sahfayi kofuriy najodni nuktayi mushkin savod bila oroyish berib erdi — yetishti.

Safha demakim, guliston erur ravzai firdavsi a'lodek yuz turluk gul va nasrin bila orasta va ruq'a demay, bo'stone erdi gulshani jahon arodek yuz tuman mulavvan rayohin bila piyrosa. Alfozi ul farzandning zohiridek barcha hamida alfoz bila tuzalgay, maoniysi aning botinidek barcha pisandida axloq bila bezalgan. Ruhparvarliqda aning jonafzo bayonidek masihmisol va ruhgustarliqda aning hayotoso alhonidek dovudtimsol. Umid ulkim, to anga fano xilvatgohida benishonlig'dur, senga baqo jilvagohida komronlig' bo'lg'ay va to anga odam kaxtida farsudalig'dur, seng'a vujud taxtida osudaliq bo'lg'ay.

Vujuding xalq uchun ko'p yil salomat,  
Salomat birla ming yil istiqomat.

Omin, yo rabbil olamin, vassalom.

## 99

Niyoz raf'idin so'ngra e'lom ulkim, bu uchurda ul sordin kelganlarning kalomlari fahvosidin va payomlari adosidin andoq ma'lum bo'ldikim, ta'bingizda davron havodisidin juziy za'f va ozore, mijozingizg'a zamon navoyibidin adno g'am va iztiore voqe' erkin bo'lg'ay. Tashvishe bo'limg'ay va taraddude yuzlanmag'ay, bori zaiflar za'fini haq subhonahu va taolo qut bila va marizlar marazini sihhat bila mubaddal qilg'ay. Kishi yuborib, so'rub, kayfiyatni bilmak vojib ko'rundi, bitib yuborurga muxtorsiz deb, duo va salom bitildi, vassalom.

## 100

Odamezod o'z ahvolig'a mulohaza qilsa andinkim, adam dorulomoni xilvatxonaside din vujud shahristoni mehnatxonasiq'a kelibtur va bu shahristonning maqomu manzillaridin nechani tay qilib, holo ne yerga yetibdur, borchal holda o'z qusuri a'molin va futuri ahvolin va ubudiyat adosida g'aflat va beboklig'in va nafsu havo mutobaatida jur'at va cholokligin topar va haq subhonahudin tili qosir va bayoni otil erkanin bilur.

Xususan, jame'ki alarni haq subhonahu aql nuri va tab' hadiqi bila orasta va insof vufuri va idrok kasrati bila pirosta qilibdur. Bas, bu muqaddimot muqarrar bo'lg'ondin so'ngra agar zohir yuzidin ziyyone va shikastlig'e va ma'ni jonbidin nuqson va bastalig'e yetsa shon uldur va munosib andoq ko'runurkim, kishi zohir holatig'a evrulg'ay va botin voridotig'a aylang'ay. Shariat bila ma'mur bo'lg'on umurda va tariqat bila mahkum bo'lg'on ahkomda o'zin mutaqassir va mujrim bilib, nadomatu hijolat ashkin yuziga to'kub, ajzu niyoz yuzin mazallat tufrog'ig'a surtub, qodiri mutlaq va hokimi barhaq hazratida tazarru' va tazallum bila o'zin unutgay va xotiridagi bashariyat mahol xayollarin va zamiridag'i anonyiat vabol va nakollarin istig'for ashki selig'a oqizg'ay va boshidag'i rayosat naxustlarin va ko'nglidagi hukumat shuyumatlarin istig'for ohi yeliga uchurg'oy va dimog'idagi ma'no da'volarin va nazohat qabohatlarin ajzu tazarru' sarsarig'asovurgay. Va o'z kamoli chehrasig'a juz nuqson ko'zi bila boqmag'ay, balki o'z nobud zotig'a vujud tuhmatin toqmag'ay. Shoyadki, haq subhonahu mahzi inoyati va g'oyati marhamatidin anga inobat saodati va tavba tavfiqi karomat qilg'ay. Va bu karomat tojig'a istiqomat gavhari bila ziynat bergay. Va agar bu mulohaza qilurda andinkim, bashariyat ko'zi o'z ahvoli qusurin va hisoli futurin ko'rarg'a a'modur va bu ehtiyyotlarining aning qoshida nomar'i nafs e'tirofidin ibo qilsa va makru hiyla bila habisni habib va qabixni fath libosida va xushnin husn kisvatida jilva berib, tilasakim kishini bu maqomdin o'tgargay, aning ilzomig'a aql hakimi etagiga ilik urg'ay va o'z madadig'a kelturgay. Va agar muning bila

mag‘lub bo‘lmasa muttafiq ahbob va muvofiq ashob va vafokesh yorlaru xayrandesh do‘stdorlar, dilso‘z mulozimlar va mehrando‘z xodimlar, balki xurdabin dushmanlar hiradoyin gadrfanlardin har tadbiru tahqiq va har tazviru tadqiq ila anglag‘ay. Andin so‘ng mazkur bo‘lg‘on ilojig‘a ishtig‘ol ko‘rguzub va o‘z vaqtি ro‘zgorin, umid uldurkim, tengri inoyatidin salohg‘a keltursa bo‘lg‘ay, haq subhonahu va taolo borchcha faqr yo‘lidin yiroq va faqr ahlidin qiroq tushganlarga hidoyat bila yo‘l ko‘rguzgay va inoyat bila yo‘l yurushidin maqsud sarmanzilg‘a yetkurgay, vassalom.

## 101

Ey kim, nafsingni haq dedi zillalloh,  
Ya’ni, onikim zulm quyoshi nogoh,  
Kuydurmak bila aylasa holini taboh,  
Bergaysen anga soyai adlingda panoh.

Qulluq arzadosht ulkim, mazlumekim, bu davlatanjom zamonda va mahrumekim, bu saodat farjom davronda bir qari xushhol va forig‘bol kechurubdur, bu vaqtda falak inodidin va zolimlar bedodidin anga ajab hollar va holig‘a g‘arib ixtilollar dast berib yuqori yuzlandi.

Umid ulkim, lutfi umimdinkim, majruhlar jarohatining shifosidur va xulqi karimdinkim, ranjurlar dardining davosidur, badanig‘a qut va ko‘nglig‘a sihhat va ro‘zgoriga jam’iyat va ahvolig‘a rafohiyat yuzlangay, omin, yo rabbil olamin.

## 102

Ul shah tobug‘indakim erur ma’dani jud,  
Shahlar aro bo‘mag‘ay bir andoq mavjud,  
Ham validi pokidek hisoli mahmud,  
Ham axtari tole’dek ismi Mas’ud.

Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, yiborgan juzvki, avroq qiyosidin sekiz behishtdin namudor erdi va maoniy abkori g‘avg‘osidin hur anjum anda oshkor. Har obdor lafzi kuygan ko‘ngullar o‘tig‘a taskin va har otashbor kalimasisovug‘on yuraklar haroratig‘a barqoyin. Misralar salobatidin Masih anfosi xosiyati anda paydo va baytlar latofatidin hayot suyi natijasi onda huvaydo — bu faqirg‘a yetishti. O‘qumog‘din ruh toza, takroridin ko‘ngulga fayzi beandoza hosil bo‘ldi.

Bu notosonning parishon nazmlarikim, yuborurga ishorat bo‘lub erdi, oning tartibig‘a mashg‘ul bo‘luldi. Har oyina umid ulkim, oliy majlis xuddomi mutolaasig‘a bot musharraf bo‘lg‘ay.

Aflokcha taxti iqtidoring bo‘lsun,  
Anjumcha sipohi beshumoring bo‘lsun,  
Haq xifzu siyonati hisoring bo‘lsun,  
Ya’ni, bori ishta tengri yoring bo‘lsun.

Omin, yo rabbil olamin.

## 103

Niyoz raf‘idin so‘ngra e’lom ulkim, Xoja Ahmad<sup>110</sup> keldi va yuborgan ruq‘angizni kelturdi. Bitib erdingizkim, nazmlaringizdin muddatekim bitib yubormaysen, holo ham bo‘lsa bitib yuborgilkim:

Qadri zar zargar shinosa  
Qadri javhar javhariy.

Bu korxonada musallam tutarbizkim, siz javhariy bo‘la olursiz. Ammo bizda ul javhar yo‘qtururkim, sizning nazaringizda yetkurur qobiliyati bo‘lg‘ay. Misraning yana bir ruknining ham ushbu hukmi bor. Yana fasli biloxirda hazrat maxdumzoda ta’rifida mubolag‘a qilib erdingiz, ul ta’rif mukibi xushholliq va umidvorliq bo‘lub erdikim, muning asnosida alarning bir muborak kitobati keldi. Iltifot qilib so‘zlarkim bitibturlar, birisi budurkim, har jafo qilsangiz ilikingizdin kelur. Mulohaza qiling, bizning ilkimizdin ne jafo kelur? Balki eldin bizga jafo yetishsa tahammul qilurmiz, hazrat maxdumzodag‘a ne nisbat bila jafo qila olg‘aymen. Va tengri taborak va taolog‘a nazrim borkim, hech kishiga intiqom maqomida bo‘lmag‘aymiz. Yana bu eshikda qaysi mansabdurkim, mening anda daxlim bo‘lg‘ay, sizning ish-kuchda, taqsir qilmish bo‘lg‘anmen. Mirzo majlisida mahol bo‘lg‘aykim, taqrib bila so‘z voqe’ bo‘lsa, hoshokim anda xud bu muddatda taqsir voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘ay. Ul dog‘i ham to‘rt—besh kunda bir qatla borurda. Agar taqrib bo‘lsa taqsir bo‘lmas va maxdumzodaning hech ishiga min’ahd ermas erdim. Bu toshining, ham taqribin agar siz unutibsiz, men unutmaydurmenkim, qaydin voqe’ bo‘ldi. Bar taqdirekim, min’ahd bo‘lg‘on bo‘lsam, dog‘i odamezod maraz ayyomida faroyiz va vojibotdin maofdurur to o‘zga ishlarga ne yetgay? Mahdumzodaning, to shahrda erdilar, alar mulozamatida xudxususiyat yo‘q erdi. Mashhad yo‘lida alar yo‘luqqonda juzviy mulozamatekim qildi, oncha azim ush—shon ahlening kinoyati bila taarruz va tashne’larin eshitdikim, ul fuzulluqdin ham pushaymonliq dast berdi. Ikki yilg‘a yaqindurkim faqir maraz tortadurmen. Sulton Badiuzzamon Mirzodin<sup>111</sup> Haydar Muhammad Mirzog‘a deguncha sarhaddag‘i jami’ maxzumzodalar kishilar yuborib so‘rdurdilar, ruq’alarida anvoi rioyat xotir bila diljo‘ylig‘lar qilib. Bovujudkim, maxdumzoda borchha og‘alarining qoidasin taxalluf qilib, bekdin ruk’a bitib so‘rdura olmadilar, bu faqirning andin va hech kishi din tama’im yo‘qtur. Hech birda izhori shikoyat qilmadim. Alar ham sar ba sarga ham rozi bo‘lmayin. Bu faqirni o‘zlariga jafo qilmoqqa nisbat beribturlar. Andoqkim ruq’ani sizga yuborduk, agar siz bila erkandurur mujmal bitiguncha ul javobni mufassal bila bitisangiz kerak erdikim, inson joiz ul — xatodur shoyad voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘ay. Agar sizning vuqufingiz yo‘q erkandur, siz ta’riflar bilan faqirni yod qilsangiz erdi, hargiz faqirg‘a muncha kuft yetmagan erdi. Faqirni jafokashlikka nisbat qilibturlar. Agarchi so‘z ko‘p erdi, ma’lul bo‘lmog‘onsiz deb ushmunchag‘a ixtisor qilildi.

## «MUNShAOT»NING IZOH VA TARJIMALARI

1. Odobi tasnifga ko‘ra bu yerda Olloh hamdi keladi. Navoiy asar mohiyatidan kelib chiqib, Xudoni Qur’oni majidni insho qilgan — yaratgan munshi deb ta’riflamoqda.
2. Tarj. ar.: ulug‘ligi yuksak va ne’matlari umumiy.
3. Muhammad payg‘ambar tufayli mazkur imlo (ya’ni, shariat ahkomlari) zamon sahifalariga yozilgani bayon etiladi.
4. Tarj. ar.: Unga (ya’ni payg‘ambarga), oilasiga va sahabalariga maqtovlar bo‘lsin.
5. Tarj. ar.: Osmomonning qanday ko‘tarib qo‘yilganligiga...
6. Tog‘larning qanday tiklanganligiga...
7. Tarj. ar.: Sharob va uning kayfidan yuragim harorat bilan kuydi.
8. Tarj. ar.: Hurmatli kishilar oldida uzr maqbuldir.
9. Yusuf — Yoqub payg‘ambar o‘g‘li, go‘zalligi bilan mashhur bo‘lgan. «Yusuf va Zulayxo» qissasi Sharqda keng tarqalgan edi. Navoiy bu o‘rinda ana shu qissaga ishora qiladi.
10. Tarj. ar.: Dunyo osmonini chiroqlar bilan bezadik.
11. Tarj. ar.: Shisha ichidagi chiroq kabi.
12. Tarj. ar.: Dengizlar o‘rtasida ochilganda.
13. Tarj. ar.: Dengizlar qo‘zg‘atilganda.
14. Mazkur maktub va undan keyingi 8 raqamli maktublar Munshaot»ning ilgarigi nashrlariga kirmagan.
15. Tarj. ar.: Ollohga va uning ne’matlari hamd.
16. Tarj. ar.: Tomiri yerda va shoxlari osmonda.
17. Tarj. ar.: Ular ham bulutlar yurgandek yurarlar.
18. Tarj. ar.: Tagidan anhorlar oqadi.
19. Tarj. ar.: Mevalar, hummolar, anor?
20. Tarj. ar.: U aslo o‘lmaydi, doimo tirik, uning sha’ni muqaddas va oliydir.
21. Navoiy asarlari o‘n besh jiddligi tarkibidagi «Munshaot»da mazkur maktub keyingi maktub bilan qo‘shib yuborilgan. Ularning ikki alohida maktub ekanligini adabiyotshunos Yu. Tursunov aniqlagan. Biz ham «Munshaot» qo‘lyozmalari bilan tanishib, hamda maktublar mazmunidan kelib chiqib, bu o‘rinda Yu. Tursunov haq degan xulosaga keldik.
22. Tarj. ar.: Kim tangriga bo‘lsa, tangri ul kishiga bo‘lur.
23. Tarj. ar.: Nafs erta nima bo‘lishini bilmaydi.
24. Bu jumlaning ma’nosini anglab yetmadik.
25. Olloh xohlagan va istagan narsasini hukm qiladi.
26. Tarj. ar.: Olloh adl va ehsonga buyuradi.
27. Tarj. ar.: Bir soatlik adolat ikki dunyo (insonlar va jinlar dunyosi) ibodatidan yaxshirokdir.
28. Tarj. ar.: yaramasliklar onasi.
29. Mavlono G‘iyosiddin Jaloliy — Navoiy mulozimlaridan.
30. Sulton Ali Mashhadiy — mashhur xattot. Uni «Qiblat—ul—kitob», deb ta’riflashgan. Husayn Boyqaro saroyida xat—totlik qilgan.
31. Tarj. ar.: Ollohga hamdlar bo‘lsinki, o‘z bandasiga kitob nozil qildi.
32. Tarj. ar.: Qul va unga tegishli hamma narsa xojasinikidir.
33. Mavlono Mir Husayn Bovardiy — Xurosonning taniqli fozillaridan. «Majolis un—nafois»ning to‘rtinchi majlisida u haqda ma’lumot mavjud.
34. Tarj. ar.: Har bir nafs o‘lim sharbatini totuvchidir.
35. Tarj. ar.: Har bir kishi bizga o‘tuvchidir (bizga qaytadi).
36. Tarj. ar.: Ish buyurilgan kishi uzrlidir.
37. Sulaymon ibn Dovud — Yahudiylar podshohi va payg‘ambar. Bayt ul-muqaddasni ta’mir

qilgan. Insu jins, qushlar tilini bilgan, oqil va dono bo‘lgan.

38. Tarj.: Safar qiling, salomat bo‘lasiz.

39. Shayx Muhammad Mirohur — nufuzli mulozimlardan. U orqali Navoiy shohga yohud yuksak mavqe’li shaxsga maktub yo‘llagan.

40.. Sulton Mahmud og‘o — bu shaxs yuqorida Shayx Muhammad miroxurdan yuborilgan xatning javobini olib kelgan.

41. Muhammad Aminbek Husayn Boyqaroga xizmat qilgan beklardan.

42. Xoja Faxriddin bitikchi — Astrobodning nufuzli va e’tiborli kishilaridan. U podshoh buyrug‘i bilan Hirota chaqirilgan edi. Bu yerda uning bo‘yniga qandaydir ayblar qo‘yilib, qamoqqa olinadi. So‘ngra Muhammad Aminbek, Sulton Ahmadbek va Darvesh Muhammad suvchi degan beklarga Astrobodga borib Xoja Faxriddinning mol—mulkini musodara qilish, qarindosh—urug‘larini ham qamoqqa olish buyuriladi. Ular Astrobodga borib, farmonni bajarishga kirishadilar. Astrobod hokimi Mo‘g‘ulbek avval ularga podshoh farmonini bajarishda yordam beradi. Keyin esa, bitikchi qavmi tarafiga o‘tib, isyon ko‘taradi, xoja Faxriddinning qarindosh—urug‘larini ozod qiladi. Muhammad Aminbek boshliq beklar Hirota qaytib, bo‘lgan voqealarni aytadilar. Podshoh Astrobodga Badiuzzamonni yuboradi. Mo‘g‘ulbek Iroqqa qochadi. Maktub shu voqealar munosabati bilan yozilgan.

43. Ustoz Behzod — mashhur musavvir va naqqosh. Navoiy unga homiylik qilgan. Bu o‘rinda Behzod Salmon Sovajiyning «Firoqnama» asariga tasvir yaratish mumkinligi haqida so‘z ketmoqda.

44. Shayxim — Amir Shayxim Suxayliy. Navoiyning yaqin do‘sti, shoir va davlat arbobi. Uning nomini Navoiy o‘z asarlarida turli munosabatlar bilan ko‘p tilga oladi.

45. Mir Sayid Abu Ishoq — Navoiyga shohdan maktub va sovg‘alar keltirgan shaxs.

46. Mavlono Hudoyberdi — Navoiying topshirig‘i bilan shoh huzuriga borgan shaxs.

47. Abdulkarim — bu shaxs Badiuzzamon Mirzodan Husayn Boy — qaroga xat olib kelgan. Mazkur xat Navoiy vositachiligi bilan shohga topshirilgan.

48. Mo‘g‘ulbek — Husayn Boyqaroning ulug‘ beklaridan. Avval Hirotda, keyin Astrobodda hokim bo‘lgan. Umrining oxirida isyon ko‘tarib, Iroqqa qochib ketgan va o‘sha yerda o‘ldirilgan.

49. Tarj.: may ichgilu, hushyor bo‘l.

50. Ildirim — Badiuzzamon Mirzo huzurida miroxur vazifasida xizmat qilgan.

51. Haydar — Navoiyning jiyani. Sabuhiy taxallusi bilan she‘r yozgan. Navoiy Astroboddalik paytida uni bir ish bilan Hirota yuboradi. Bu yerda u podshoh odamlari Astrobodda Navoiyni zaharlamoqchi bo‘lganligi haqida so‘zlaydi. Shu sababli podshoh g‘azabiga uchrab zindonga solinadn. Keyinchalik boshqa bir bahona bilan qatl qilinadi.

52. Sulton Mahmud Mirzo — Sulton Abusaidning o‘g‘li. Avval uzoq yillar Xisorda, umrining oxirida bir necha oy Samarqandda podshoh bo‘lgan.

53. Mahmud barlos — temuriylar Davridagi nufuzli va e’tiborli beklardan. Sulton Abusaid davrida Kirmonga hokim etib tayinlangan. Keyinchalik Hisorda Sulton Mahmud Mirzo qoshida ulug‘ bek bo‘lgan. She‘rlar ham yozgan. U haqda Navoiy «Majolis un —nafois»da ma’lumot berib o‘tadi. Bobur ham «Boburnoma»da tilga olgan.

54. Mavlono Sohib — «Majolis»da Navoiy uni «Kabudjomalig‘, ta’bi yaxshi, g‘oyibona shatranjni xo‘b o‘ynar edi», deb ta’rif qiladi. Navoiyning yaqin suhbatdoshlaridan bo‘lgan.

55. Mazkur xatni olimlar Husayn Boyqaroga yozilgan, deb hisoblashgan. Aslida esa bunday emas. Xatda Navoiy adresat, nomini imo—ishoralar bilan ko‘rsatgan. Mana o‘sha so‘zlar: «Ul qalamgakim, varaq hoshiyasida badoe’ nukta surub zamon notavonin masrur qilibtur — yetti iqlim yakqalam bo‘lsun...» Bu yerda Badiuzzamon ismiga ishorat bor. Demak, xat Husayn Boyqaroga emas, Badiuzzamonga yozilgan.

56. Yusuf Ali — Navoiy mulozimlardan. U Mashhaddan Navoiyning «og‘zi sireshtlig‘» (yopiq, maxfiy) xatini olib kelgan.

57. Shayx Alibek — Mashhadda Navoiy bilan birga bo‘lgan.
58. Husaynqulibek — Bu ham Mashhadda Navoiy bilan birga bo‘lgan.
59. Xoja Hoji Mahmud Tabriziy — maktubdan ma’lum bo‘lishicha bu shaxs e’tiborsizlik va xoksorlikda qolgan. Navoiy podshohdan unga iltifot ko‘rsatishni so‘raydi.
60. Xoja G‘iyosiddin Hofiz Dehdor — Xoja Dehdor nomi bilan mashhur. Navoiyning yaqin kishilaridan.
61. Jabrail — Ollohning to‘rt farishtasidan biri. Payg‘ambarlarga Ollohning vahylarini yetkazuvchi.
62. Arslonbek axtachi — bu shaxs Navoiyga Badiuzzamon Mirzo maktubini yetkazgan.
63. Tangri rizosi ota rizosiga vobastadur, tangri g‘azabi ham ota g‘azabiga vobasta.
64. Hakim Sulaymon — Turkiy mashoyixlardan. Ahmad Yassaviy muridi. Sulaymon Boqirg‘oniy nomi bilan shoir sifatida ham mashhur. Navoiy uni «Nasoyim ul—muhabbat»da zikr etgan.
65. Adib Ahmad — Navoiy uni ham «Nasoyim»ga kiritgan. «Qutadg‘u bilig»ning muallifi. Tug‘ma ko‘r bo‘lgan.
66. Ibrohim Xalil — Ibrohim payg‘ambar. Xalil uning laqabi. Ka’bani bunyod etgan. Ikki o‘g‘li bo‘lgan: Soradan Ishoq va Xojardan Ismoil.
67. Ozari buttarosh — Ibrohim payg‘ambarning otasi.
68. Boysung‘ur mirzo (1399—1433/34) Shohruxnning o‘g‘li. Adabiyot va san’atga, naqqoshlik va xattotlikka ishtiyoqi baland bo‘lgan. Firdavsiy «Shohnoma»sining to‘liq matnini tuzdirgan va o‘zi so‘zboshi yozgan.
69. Bobur Mirzo — Sulton Abulqosim Bobur. Boysung‘urning o‘g‘li. 1452—57 yillarda Xuroson hukmdori bo‘lgan. Navoiyning otasini Sabzavor hokimi qilib tayinlagan. Navoiyning otasi vafot etgandan so‘ng, Bobur yosh Alisherga homiylik ko‘rsatgan, uni saroy xizmatiga qabul qilgan. Navoiy bu podshohni o‘z asarlarida iliq bir samimiyat bilan eslaydi. Abulqosim Bobur she‘r ham yozgan, «Majolis»da zikr etilgan.
70. Ulug‘bek mirzo — Shohruxnning o‘g‘li, amir Temurning nabirasi, asl ismi Muhammad Tarag‘ay (1394—1449), buyuk olim, astronom, davlat arbobi. Samarcandda rasadxona (observatoriya) qurdirgai va ilmiy kuzatishlar olib borgan. «Ziji Ko‘ragoniy» nomli yulduzlar jadvalini tuzgan. Tarixga doir «To‘rt ulus tarixi» nomli asari ham bor.
71. Abdullatif — Ulug‘bekning o‘g‘li. Otasini qatl ettirgan. Olti oy podshohlik qilgandan so‘ng o‘zi ham o‘ldirilgan. Abdullatif she’rlar ham yozgan.
72. Jahonshoh — Jahonshoh mirzo turkman, Iraq va Ozarbayjon hukmdori (1438 — 1467).
73. Hasanali — Jahonshoh mirzoning o‘g‘li.
74. Temurbek — amir Temur Ko‘ragoniy (1336 — 1405), buyuk davlat arbobi, jahongir podshoh.
75. Darvesh Muhammad — saroy mulozimlaridan.
76. Zafarnoma» — Sharafuddin Ali Yazdiyning Temurbek Ko‘ragonga bag‘ishlangan tarixiy asari.
77. Xofiz Muhammad Sanoiy — Aftidan bu shaxs shariat ahkomlarini yaxshi bilgan alloma bo‘lsa kerakki, Navoiy Badiuzzamonga shar’iy umurlar bobida undan foydalanishni tavsiya qiladi.
78. Mir Zaynulobidin Astrobod ashroflaridan. Navoiy Badiuzzamonga Mir Zaynulobidinni hurmat qilishni, unga iltifot ko‘rsatishni tayinlaydi.
79. Mushtariy — Jupiter, forsiyida Birjis. Ilmi nujumda «Sa’di Akbar», «Falak qozisi» deb yuritiladi, joyi oltinchi falakda emish.
80. Sulton Muhammad Mirzo — Shu nomda Husayn Boyqaro va Xadicha beginlar nabira ko‘rganlari munosabati bilan yozilgan tabrik maktubidir.
81. Begin — Xadicha begin. Avval Abusaid Mirzoning g‘unchachisi (kanizagi) bo‘lgan. Bobur u haqda yozadi: «Muhammad Mo‘min mirzoni aning sa’yi bilan o‘lturdilar. Sulton Husayn mirzoning o‘g‘lonlari yog‘iqtilar, ko‘praki muning jihatidan edi, o‘zini oqila tutar edi, vale beaql, purgo‘y xotun edi, rofiziya ham ekandur (2316).

82. Bu o'rinda Jomiy vafoti to'g'risida so'z ketmoqda. Bu xat ham «Munshaot»ning avvalgi nashriga kirmagan.

83. Tarj. ar.: Har bir narsaning halokati sabab bilandir. Ollohdan boshqa hamma narsa halok bo'luvchidir.

84. Tarj. ar.: Dunyoda g'aribdek va musofirdek bo'l (hadis).

85. Tarj. ar.: Qudratli malik huzurida sidq o'rni.

86. Jomiy (1414—1492) — olim va shoir. Navoiyning do'sti, maslakdoshi, hamfikri, 1476 yilda u Jomiyni o'ziga pir sifatida tanlagan. Jomiy vafotidan keyin Navoiy uning xotirasiga bag'ishlab «Xamsat ul—mutahayyirin («Hayratlanganlar beshligi») asarini yozgan.

87. Sanjar — Navoiy bu yerda saljuqiylarning oxirgi podshohi Sulton Sanjarga ishora qiladi. Uning poytaxti Mar shahri bo'lganligi, Husayn Boyqaroning o'g'li Abulmuhsin ham Marvda hukmdor bo'lganligi sababli Navoiy uni «taxti Sanjar uzra shoh», deb ta'riflaydi.

88. Abulmuhsin — Husayn Boyqaroning o'g'li. Onasi Latifa Sulton og'acha bo'lgan.

89. Muhammad Ma'sum — Husayn Boyqaro o'g'li. Kandahorda hokim bo'lgan. Unga Ulug'bek mirzoning qizini olib bergai edi. Otasi hayotligida vafot etib ketgan.

90. Muzaffar Husayn Husayn Boyqaroning o'g'li. Onasi Xadichabegim.

91. Safiyabeka — podshoh xonadoniga mansub ayollardan bo'lsa kerak, deb taxmin qilamiz.

92. Sayd Badr — Husayn Boyqaro amirlaridan shohga yaqin, doimiy ulfati bo'lib, raqsga ham tushar ekan. Miri Mo'g'ul — Mo'g'ulbek. Husayn Boyqaro beklaridan. Ma'lum muddat Hirotda, keyinroq Astrobodda hokim bo'lgan. So'ngra isyon ko'tarib Iroqqa qochib ketgan va o'sha yerda o'ldirilgan.

93. Muhammad Ko'kaltosh — Husayn Boyqaro mulozimlaridan.

94. Mahmud — bu shaxs haqida boshqa ma'lumot topolmadik.

95. Mir Darvesh Muhammad suvchi — shoh saroyida saqqa bo'lgan.

96. Ustodzodai Changi — musiqachi, changda kuylar ijro etgan.

97. Banda Bobo — shoh nadimlaridan.

98. Afzal — Xoja Afzal. Husayn Boyqaro vazirlaridan. Navoiy bilan yaqin do'st bo'lgan.

99. Shoh G'arib Mirzo — Husayn Boyqaro va Xadichabeginning o'g'li. Laqabi Abulfavoris (Favoris — forisning ko'pligi, sher, suvoriy demakdir), bukri bo'lgan, oila qurmagan. Iqtidorli shoir bo'lgan. Majolisda she'rлaridan namunalar keltirilgan. Navoiy bu shahzoda madhida «Farhod va Shirin» dostonida alohida bob ajratgan, vafotiga bag'ishlab marsiya yozgan.

100. Abushahma Bahodir — maktub mazmunidan ayon bo'ladiki, bu shaxs boshiga musibat tushgan. Navoiy shu munosabat bilan uning ko'nglini ko'tarish, tasalli berishni podshohdan iltimos qilgan.

101. Fisog'urs hakim — Pifagor (miloddan avval VI asr), qadimgi yunon faylasufi, diniy va siyosiy arbob. Musiqa ilmning ham asoschisi hisoblanadi.

102. Arastu — Aristotel, miloddan avvalgi IV asr, qadimgi yunon hakimi. Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida Iskandarning ustoz va maslahatchisi sifatida talqin etilgan.

103. Abu Nasr Forobiy (260/1874 — 339/1950) — buyuk olim, faylasuf. «Arastuyi soniy», «Muallimi soniy» laqablariga sazovor bo'lgan.

104. Xoja Abdulqodir — XIV asrda shuhrat qozongan mashhur cholg'uchi sozanda.

105. «Majolis un-nafois» — 1492 yilda yozilgan va 1498 yilda Navoiyning o'zi ikkinchi tahririni amalga oshirgan. Unda 459 ta shoir haqida ma'lumot va asarlaridan namuna keltiriladi.

106. Mavlono Qosim — Navoiyning xizmatiga o'tmoqchi bo'lgan Darveshali musohiblaridan.

107. Darvesh Alibek — Navoiyning ukasi, Balx hokimi ham bo'lgan. Navoiy vafotidan keyin iste'foga chiqib, 1563 yilda Shayboniyxon, 1511 yilda Bobur xizmatiga kirgan.

108. Mana shu maktubdan boshlab qolgan maktublar «Munshaot»ning avvalgi nashriga kirmagan. Ularning ayrimlarini adabiyotshunos Yu. Tursunov Turkiyada saqlanayotgan «Munshaot»

fotonusxasidan olib e'lon qilgan. Keyinroq bu maktublarning aksariyati o'zimizdagi qo'lyozmalarda ham mavjudligi ma'lum bo'ldi.

109. Bobobek — podshoh xonadoniga mansub yoshlardan. Maktubda uning vafoti haqida so'z ketadi.

110. Xoja Ahmad — shahzodalardan birining xizmatida bo'lgan shaxs.

111. Badiuzzamon Mirzo — Husayn Boyqaroning to'ng'ich o'g'li. Onasi Sanjar Mirzo Marviyning qizi Beka Sultonbegim. 1506 yilda otasi vafotidan so'ng taxtga o'tiradi. 1507 yilda Shayboniyxonidan yengilib, Shoh Ismoil huzuriga qochadi. Turk sultoni Sulton Salimshoh Ismoil bilan urushib, Tabrizni ishg'ol qilgach Badiuzzammonni 1514 yilda Istanbulga olib ketadi. Ko'p o'tmay toun — vabo kasalidan vafot etadi.

Navoiy bu shahzodaga katta umidlar bog'lagan, u bilan shoh orasida nizolar paydo bo'lganda, ularni yarashtirish uchun harakatlar qilgan. «Munshaot» tarkibidagi qator maktublar Badiuzzamonga yozilgan. Shoир dostonlarida alohida bag'ishlovlari, «Majolis»da ham ma'lumotlar bor.